

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH
NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**

ZAMIRAXON ISAQOVA

FALSAFA

**fanidan ma’ruza mashg‘ulotlari uchun
o‘quv-uslubiy qo‘llanma**

**Namangan
2016**

“Falsafa” fanidan tuzilgan ma’ruzalar matni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tayyorlangan bo‘lib, unda falsafiy bilimlar shakllanishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari, falsafiy dunyoqarash, inson hayotining maqsadi, mazmuni va mohiyati, borliq, harakat va rivojlanish, falsafiy kategoriyalar, ong, ruhiyat, bilish, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar, milliy falsafa, hozirgi dunyoning ilmiy, falsafiy, diniy manzarasi, insoniyatning umumbashariy muammolari yangicha yondashuvlar asosida tahlil qilingan hamda ming yillar davomida milliy va jahon falsafasi rivojiga hissa qo‘shgan mutafakkirlar ilgari surgan g‘oyalarning falsafiy-ma’rifiy mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Mas’ul muharrir

O.Mamatov
falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar

D.Rahimboyeva
falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

F.Oripov
katta o‘qituvchi

Muharrir
N.Mirzaholov
o‘qituvchi

“Falsafa” fanidan ma’ruza mashg‘ulotlari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Kengashining 2016 yil 26 avgust № 1 sonli majlis qarori bilan tasdiqlanib, nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

Falsafa insonni komillikka etaklovchi bilimlar manbaidir. Sharq mutafakkirlari falsafani tibbiyot ilmiga qiyos qilib, uni ma'naviy tibbiyot, ya'ni inson ruhi va jamiyat ma'naviy sog'lomligini ta'minlovchi, barcha illatlardan xalos qiluvchi ilm deb ta'riflaganlar. "Kimki falsafani egallashga jiddu-jahd qilsa va uni egallashga muvaffaq bo'lsa, ruhi dunyodagi zulmat va buzqlikdan soflanadi". Aksariyat talabalar "Falsafaning nima keragi bor", "Falsafani nima uchun o'rganish kerak" deyishadi. Aslida falsafa inson haqidagi fan bo'lib, inson hayotining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Inson xohlaydimi, yo'qmi, qayerda bo'lmasin falsafiy fikr yuritish, mushohada qilish kundalik hayotiga singib ketgan...

Tasavvur qiling. Siz kemadasiz. Manzil uzoq va mashaqqatli. Ochlik, suvsizlik, kasallik va o'lim sizni ta'qib etmoqda... "Dunyoga kelish va dunyodan ketish" deb atalgan ikki manzil o'rtasida qolgan inson idroki tafakkur orqali to'g'ri yo'lni tanlaydi. Manzilga sog'-salomat etish uchun sizda tafakkur kuchi, aql-farosat bor. Siz ulkan va beg'ubor osmonning naqadar go'zalligi, suvning tiniqligi va hayotning qisqaligi, umrning o'tkinchiligi haqida tafakkur qilasiz. Siz "taqdir" deb hech bir tadbir qilmay, yo'qlik qa'riga ketishingiz va aksincha, aql-farosatni ishga solib, manzilga etishingiz, dengizning jilolanishidan zavqlanibgina qolmay, ajoyibotlarni ko'rish ishtiyoqi bilan suvning ostiga tushish va dengizdan nafaqat egulik, dur-gavhar ham topishingiz mumkin bo'ladi. Falsafani o'rganishdan maqsad borliq, tabiat, jamiyat va inson, ularning mohiyati va bir butunligini teran anglashdir. Inson borliqning komil namoyandasi bo'lgani uchun buyuk olamning kichkina ko'rinishi, olam ichra kichik olamdir. Zohiriy ko'rinishiga ko'ra kishilar har xil, lekin ularning mohiyati, ildizi, tabiati, ehtiyojlari, so'nggi manzili mushtarakdir. Yashashdan maqsad "yo'lini qilib, kun kechirish – eb-ichish, nasl qoldirish" kabi tabiiy ehtiyojlarni qondirish emas, o'zining inson ekanini qalban anglashidir.

Inson haqida, uni sevish, e'zozlash haqidagi balandparvoz maqtovlar bilan insonni o'zgartirish mushkul. Sho'rolar dastak qilgan "hamma narsa inson uchun, uning baxt-saodati uchun" shior quruq safsata va zerikarli aqidaga aylangani achchiq haqiqatdir. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, barcha qadriyatlar qatori, insonga ham munosabat o'zgardi. Insonning jamiyatdagi o'rni, qadr-qimmatini borasida aniq vazifalar qo'yildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda falsafa alohida ahamiyat kasb etadi.

Muhtaram Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "dunyo tan olgan ulug' faylasuflarning asarlari hanuzgacha o'zbek tilida chop etilmagani tufayli aksariyat ziyolilar, xususan, yoshlarimiz ularning g'oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Suqrot va Aflotun, Nitsshe va Freyd kabi olimlarning asarlarini izoh va sharhlar bilan tushuntirish" asosiy maqsadimizdir.

Zero, jahon falsafasi sarchashmalarini o'rganish, tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish foydadan xoli bo'lmaydi...

1-mavzu. Falsafa: uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

1. “Falsafa” atamasining mohiyati va mazmuni. “Falsafa” va “faylasuf” tushunchalarining tarixiy va zamonaviy talqinlari. Hozirgi davr falsafasining asosiy vazifalari.
2. Falsafaning bahs mavzulari va ularning xilma-xil talqinlari, Abadiy va oʻtkinchi muammolar. Falsafiy mavzularni ilmiy-nazariy oʻrganish va tadqiq etish masalalari. Falsafada milliylik va umuminsoniylik. Milliy davlatchilik va milliy falsafa.
3. Oʻzbek falsafasi, uning oʻtmishi va zamonaviy rivojlanishi. Islom Karimov istiqlol falsafasining asoschisi. Falsafani oʻrganish jarayonida milliy gʻoya va istiqlol mafkurasining nazariy asoslarini egallash zarurati. Oʻzbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida falsafani oʻrganishning ahamiyati.
4. Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. Individual va ijtimoiy dunyoqarash. Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Afsona va rivoyatlar-mifologik dunyoqarashning gʻoyaviy ildizi. Mifologik dunyoqarashning genezisi va falsafiy-tarixiy ahamiyati. Doston, hikoyat va xalq ogʻzaki ijodining falsafiy talqini. Diniy dunyoqarash, uning asosiy qadriyatlari va tamoyillari. Dinning tarixiy shakllari. Dinning dunyoviy va ilohiy talqini. Teologiyaning falsafiy masalalari.
5. Falsafa-dunyoqarash sifatida. Uni dunyoqarashni boshqa shakllari bilan oʻzaro bogʻliqligi. Nazariya va amaliyotning birligi- falsafiy dunyoqarash tamoyili. Falsafiy dunyoqarashning mohiyati, umuminsoniy va milliy xususiyatlarini oʻrganishning ahamiyati.
6. Hozirgi davrda Oʻzbekistonda yangi falsafiy dunyoqarashini shakllantirish va komil insonni tarbiyalash vazifalari

Qoʻllaniladigan innovatsion va axborot taʼlim texnologiyalari. *Mavzu zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda oʻtkaziladi. Oʻrganishning hamkorlik modeli, namoyish etish, “Aqliy hujum”, “Muammoli vaziyat”, “Blits-soʻrov”, bahs-munozara, dialog va savol-javob usulidan foydalaniladi.*

“Falsafa” soʻzining lugʻaviy maʼnosi “donishmandlikni sevish” (“phileo” – sevaman, “sophia” – donishmandlik)dir. Bu soʻzni birinchi boʻlib oʻzini “filosof” deb atagan qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor ishlatgan. Sharq mutafakkiri Abu Nasr Farobiy “Falsafaning maʼnosi va kelib chiqishi haqida” asarida falsafani “hikmatni qadrlash ilmi” deb taʼriflagan.

Falsafa donishmandlikni sevish haqidagi taʼlimot ekan, donishmandlikning oʻzi nima degan savol qoʻyilishi tabiiydir. Qadimgi yunon faylasufi Diogendan “Donishmand kim?” deb soʻrashganda, “haqiqiy donishmand Xudodir, biz esa donishmandlikni sevuvchilarmiz” deb javob bergan. Suqrotning fikricha, “oʻzlikni anglash, oʻzligini barcha narsalardan yuqori tutish – donishmandlikdir”. Lev Tolstoy fikricha, “boshqalarga bergan maslahatlariga avvalo oʻzi amal qiladigan, hech qachon

haqiqatga qarshi bormaydigan, atrofidagi kishilarning nuqsonlariga sabr-toqat bilan chidaydigan kishilar donishmanddir”. Demak, insonni tubanlikdan yuksaklikka ko‘taruvchi barcha sifatlari donishmandlikdir. Donishmandlik o‘zligi, o‘z mohiyatini bilish orqali dunyoni, insonni va insoniyatni insoniylik ko‘zgusi bilan anglab etishdir.

Jamiyat ma’naviy taraqqiyotining dastlabki davrlarida falsafa insonning olam haqidagi barcha bilimlarini o‘z ichiga olgan. Kishilar qadim zamonlardan boshlab borliq, dunyo, tabiat nima, ular qanday tuzilgan, borliqning asosida nima yotadi, insonning o‘zi nima, dunyoga qanday rivojlanadi, ong nima kabi savollarga javob berishga harakat qilganlar. Ilk faylasuflar olam va dunyodagi narsalarning mohiyatini substantsiya (“substantio” – mohiyat) tushunchasi orqali ifodalaganlar. Pifagor hamma narsa sonlardan tashkil topgan, Geraklit – olov, Fales – suv, Anaksimend – havo, Anaksimend – apeyron, Aflotun – g‘oyalar, Demokrit – atomlar olamning asosida yotadi, deb tushuntirganlar. Birinchi bo‘lib Misr ehromlarining balandligini o‘lchashga muvaffaq bo‘lgan ilk faylasuf Falesning qarashlarini tahlil etsak: “Hamma narsaning ibtidosi suvdur”. Fales fikricha, tabiatdagi barcha narsalar asosiy suyuq modda – suvdan paydo bo‘lgan va o‘zgara borib, yana suvga aylanadi. Erning o‘zi ham suvdan vujudga kelib, keyinchalik tekislikka aylangan, tog‘lar paydar bo‘lgan, atrofini suvlik o‘rab turadi, suv abadiydir, lekin undan vujudga keladigan narsa va hodisalar vaqtincha va o‘tkinchidir. Fales bu erda oddiy suvni nazarda tutmagan, balki inson hissiy tajribasiga yaqin va tanish bo‘lgan modda (suv)ni mavhum falsafiy tushuncha sifatida ishlatgan.

Olamning asosida nima yotadi, nima birlamchi, degan masalaga faylasuflar turlicha yondashganlar va bir qator falsafiy qarashlar shakllangan. Monizm (“monos” - bitta, yakka) – olamning asosi yagona ibtido, bitta sababga ega deb, dualizm (“dua”- ikki) olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g‘oya yotadi (R.Dekart) deb, plyuralizm (“plyuralus” – ko‘plik) olamning asosini bir necha elementlar (masalan, qadimgi xitoy, hind, yunon faylasuflari borliq olov, suv, havo, er, temir kabilarning birikuvidan yuzaga kelganligiga ishora qiladilar, moddiy narsalarga ustivorlik rolini beradilar. Boshqalari, narsalar ideal sezgilarning kompleksidan tashkil topgan deyдилar) tashkil etadi deb, materializm olamning asosida materiya, ya’ni moddiy narsalar yotadi, ong, tafakkur materiyaning xossasi, materiya taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga keladi va voqelikni aks ettiradi deb, idealizm olamning asosida ruh yoki g‘oyalar yotadi, materiya ikkilamchi, hosila narsa, ruh, ong, tafakkurning samarasidir deb ta’lim beradi.

Olamni bilish mumkinmi yoki yo‘qmi degan masalaga faylasuflar ikki xil yondashadilar. Gnostiklar olamni bilish mumkin deb hisoblaydilar. Agnostiklar olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz imkoniyatlari cheklangan, inson aqli olamni qancha o‘rganmasin oxirigacha etmaydi, u cheksizdir deb olamni bilish mumkinligini inkor etadilar. Azaliy bo‘rganish jarayonida ilm-fan taraqqiy etib, yangi ufqlar ochiladi. Olam va odam munosabatlari, olamdagi o‘zgarish, rivojlanish, umumiy aloqadorlik va taraqqiyotning qay tarzda amalga oshishi, qanday sodir bo‘lishi, adolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, umrning mazmuni kabi masalalar falsafaning azaliy muammolaridir. Muayyan davrda jamiyat talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan (masalan, siyosiy jarayonlar, revolyutsiya, inqirozlar) tug‘ilib, ma’lum vaqt o‘tgach echimini topadigan masalalar falsafaning o‘tkinchi muammolardir.

Falsafiy mavzularni ilmiy-nazariy o'rganish va tadqiq etishning turli usul va uslublari bor. Dialektika, metafizika, sofistika, sinergetika, germenevtika, eklektika, dogmatika shular jumlasidandir.

Dialektika ("dialektike" - suhbat, munozara qilish) qadimda suhbat, munozara, bahslar haqiqatni ochish yo'li va usuli tarzida talqin qilingan. Mutafakkirlar dialektikani bahslardagi qarama-qarshi fikrlar o'rtasidagi ziddiyatlarni ochib berish orqali haqiqatga erishish san'ati (Suqrot) deb tushunganlar. Keyinchalik dialektika borliqdagi barcha narsalar, hodisalar, jarayonlar o'zaro aloqada, bog'lanishda, o'zgarishda, rivojlanishda deb talqin qiluvchi ta'limot sifatida e'tirof etildi. Geraklitning umumiy o'zgaruvchanlikning universalligi, Zenon aporiyalari, Demokritning atomlar mavjudligi va harakati, Arastuning ziddiyat, inkor, vorislik, mazmun va shakl, uslublari haqidagi qarashlari dialektikani boyitgan. Keyinchalik I.Kant, F.Gegel dialektikani taraqqiyotning umumiy nazariyasi sifatida asoslab bergan va uni fan darajasiga ko'targan. Doimiy aloqadorlik, vaqtning oldinga qarab harakat qilishi va orqaga qaytmasligi, voqealarning ketma-ketligi tarzidagi bog'lanishlar, rivojlanish va taraqqiyot, olamning rang-barangligi va uyg'unligi dialektikaning asosiy tamoyillaridan biridir.

Metafizika ("meta ta physika" – fizikadan keyin) dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etilgan, olamning o'zgarmasligi, mexanik qonunlar ustuvorligi, borliqning abadiyligini e'tirof etadigan, olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan holatini e'tiborga oladigan tafakkur uslubi. Hozirda metafizikaga olam mohiyati yoki har qanday voqelikning asoslari, borliq namoyon bo'lishining mohiyati to'g'risidagi falsafiy uslub deb qaraladi.

Sofistika ("sophist" – mohir, so'zamol, donishmand) biror fikrni ifodalashda majoziy ma'nodagi tushunchalarni ishlatish orqali kerakli ma'no-mazmun, maqsadga erishish, ayyorlik qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Sofistlar axloq va huquq haqidagi bahs-munozaralarda olgan bilimlarini namoyon qilish, mohir notiq bo'lish uchun ushbu usuldan foydalanganlar (masalan, "Siz ahmoq odam emassiz" deb aytilgan so'zdan maqsad uning ahmoqligini ta'kidlashdir: "Siz ahmoq, odam emassiz"). Arastu sofistlarni "soxta donishmandlik" mualimlari deb atagan. Sofistikadan badiiy ijodiyotda (Abu Ali ibn Sino "Hayy ibn Yaqzon", Fariduddin Attor "Mantiq ut-tayr", "Bulbulnoma", Alisher Navoiy "Lison ut-tayr", Gulxaniy "Zarbulmasal") keng foydalanilgan.

Sinergetika – dialektika va metafizika asosida shakllangan va ularni to'ldiradigan, olamni yangicha izohlashga qaratilgan, murakkablikni o'rganadigan, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tabiatini bilishga qaratilgan nochiziqliq tafakkur uslubidir. Uning asoschisi N.Prigojin fikricha, butun borliq va voqelik rivojining asosini ziddiyatlar, qarama-qarshilik emas, balki turli tomonlarni murosaga keltirish tashkil etadi. Rivojlanishning asosiy yo'li tomonlarni kelishtirish, murosaga keltirishdan iborat. Dialektika chiziqlik tafakkuriga asoslangan bo'lsa, sinergetika chiziqsizlik tamoyilini yoqlaydi, ya'ni taraqqiyot oldindan belgilab qo'yilgan yo'ldan ketmay, har bir narsa va hodisaning ichki xususiyati va tashqi aloqadorligi negizida har safar yangi va betakror yo'ldan borishini ko'rsatadi.

Germenevtika (“hermeneutikos” – izohlash, talqin etish) – tarixiy-falsafiy fan doirasida matnlarni nazariy asoslovchi tafakkur uslubi. Germenevtika inson borlig‘i, mohiyatini anglashning shart-sharoiti, uning borlig‘ini tushunishning metodologiyasidir. Tushunish va anglash bir-biri bilan bog‘liqligi e’tirof etiladi. Elektronika, mikroelektronika, kompyutersozlik, bionika, nanotexnologiya, informatsion jamiyat va madaniyat taraqqiyotida germenevtikaning alohida o‘rni bor. Eklektika (“eklektikos” – tanlayman) turli va hatto bir-biriga zid tushuncha, qarash, g‘oya va nazariyalarni bir falsafiy ta’limotda birlashtirish, olamdagi narsa va hodisalarning munosabatlari o‘zgarish va rivojlanishda ekanligini ajrata bilmaslik. Eklektika tarafdorlari inson bilimining o‘zgaruvchanligi va nisbiyligini mutlaqlashtirganlar. Suqrot va Arastu eklektika qoidalarining bo‘sh va samarasiz bilish usuli ekanligini alohida ta’kidlaganlar.

Dogmatika (“dogma” – fikr, ta’limot) biror bir fikr, ta’limotga, muayyan oqim tarafdorlariga, aqidalarga ko‘r-ko‘rona ishonish, unga yopishib olish, har qanday sharoitda ham uning o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilish, ilm-fan yutuqlarini tan olmaslik, bilishning ma’lum tomonini mutlaqlashtirish, shu orqali nisbiy haqiqatning ahamiyatini tan olmay, mutlaq haqiqatni bilishning birdan bir bosqichi deb hisoblash. Dogmatikani yoqlovchilar diniy aqidalarni rad etib bo‘lmaydigan mutlaq haqiqat deb e’tirof etadilar. Shunday qilib, falsafiy ta’limotlarda jamiyat hayotining barcha sohalari tarixiy jarayonga xos tamoyillar, ijtimoiy guruhlarining manfaat va kayfiyatlari, tafakkur usullari o‘z aksini topadi.

Falsafiy tafakkur madaniyati insonning o‘z o‘zini anglashidan boshlanadi. Inson tafakkuri falsafiy dunyoqarash asosida sayqal topar ekan, har bir xalq va millatning o‘z g‘oyasi va mafkurasi ham milliy tafakkur rivojiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Biz so‘z bilan aytganda, o‘z o‘zini anglash yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonning shakllanishiga imkon beradi”.

Falsafa tabiat, jamiyat va inson tafakkurining mohiyati haqidagi bilimlarni o‘zida ifodalab, insonni borliqqa munosabatining metodologik asoslarini belgilab, tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy muammolarini o‘rganadi hamda falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Falsafa insonning o‘z mohiyatini anglashi, borliqning turli sohalariga oid bo‘lgan hodisa va voqealar haqida, ularning tub mohiyatini ifodalaydigan umumiy xulosalar chiqarishi, umummilliy g‘oya va mafkuraning kishilar ongida shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir. Binobarin, “milliy g‘oyaning yana bir muhim ahamiyati shundan iboratki, u millatimiz, xalqimizning o‘zligini anglashga, o‘zining milliy qadriyatlari va urf-odatlarini yo‘qotmasdan, avaylab, e‘zozlab, o‘sib kelayotgan kelajak avlodga etkazib berish uchun xizmat qilishi kerak”. O‘zbek falsafasining rivoji xalqimizning milliy an‘analarga sodiqligi, mamlakatimizning buyuk kelajagiga ishonchi, muqaddas qadriyatlarga hurmat-ehtirom, yuksak intellektual salohiyatiga bog‘liqdir.

Dunyoqarash olam to‘g‘risidagi umumiy g‘oyalar, qarashlar, insonning dunyoda tutgan o‘rni, hayotiy yo‘nalishi, ishonch-e’tiqodi, ideali, bilish tamoyillari, o‘zi va boshqalarning hayotdagi o‘rnini bilishi, insonning mohiyatini, o‘zligini anglashi haqidagi qarashlar tizimidir. Dunyoqarash bilish, qadriyat, amaliy faoliyat

va ularning o‘zaro birligini qamrab olgan. Dunyoni bilish darajasiga ko‘ra, dunyoqarash kundalik ong va nazariy ongga bo‘linadi. Dunyoqarash insonni, dunyoni va o‘zini anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi jihatidan uning har qanday moddiy va ma‘naviy faoliyatida o‘z ifodasini topadi.

Dunyoqarash kishilardagi xurofiy, afsonaviy, g‘ayriilmiy nuqtai nazarlarni, salbiy reaksion qarashlarni ham o‘z ichiga oladi. Inson hayot faoliyati davomida ulg‘ayib borishi bilan muayyan dunyoqarashi ham shakllanib boradi. Uning ma‘lum bir dunyoqarashi barqaror shaklga kelishi bilan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi, aks holda shaxs bo‘la olmaydi. Muayyan jamiyat doirasidagi dunyoqarashlar majmuasi uning e‘tiqodini tashkil etadi. Dunyoqarashning bir kishi yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi ijtimoiy dunyoqarash deyiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar hosilasidir.

Dunyoqarash o‘ziga xos vorislik va davomiylikka ega bo‘lib, insoniyatning o‘tmishi, hozirgi va kelajakdagi hayotiy sharoitlarining anglab olingan qadriyatlar tizimidan iboratdir. Dunyoqarash kishilarning turmush tarzlari va hayotiy mavqelarini ularning axloq odob me‘yorlaridan tortib bir butun madaniyati va ma‘naviyatigacha bo‘lgan barcha jihatlarni o‘zida mujassam etadi. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning dunyoqarashi, ya‘ni dunyoni yuzaki, sodda, cheklangan tushunishdan boshlab, o‘zining mifologik, diniy va falsafiy bosqichlariga tomon rivojlanib borganligini guvohi bo‘lamiz. Shu asosda dunyoqarashning tarixiy shakllari vujudga keladi. Inson tashqi olam haqidagi bilim va ma‘lumotlarni egallashida mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashning ahamiyati kattadir.

Mifologiya (“mifhos” – afsona, naql, rivoyat) ibtidoiy ongda voqelikning fantastik in‘ikosi bo‘lib, bu in‘ikos qadimgi zamon uchun xarakterli bo‘lgan xalq ijodiyotida gavdalantirilgan. Mif tarixning turli bosqichlarida paydo bo‘lgan naql bo‘lib, uning fantastik obrazlari (xudolar, afsonaviy qahramonlar) tabiat va jamiyatning turli hodisalarini umumlashtirishga intilishdan iborat edi. Bu dunyoqarash o‘z ifodasini ko‘proq qadimgi davrlarda yaratilgan naqlar, qissa, rivoyat va afsonalarda topgan. Mifologik (afsonaviy) dunyoqarash ijtimoiy taraqqiyotnig boshlang‘ich bosqichlariga xos bo‘lib, inson dunyoni tushunishining o‘ziga xos oddiy usuli, ya‘ni xayoliy in‘ikosi sifatida paydo bo‘lgan. Afsonaviy dunyoqarashda xalqning ijtimoiy turmushi, tafakkur tarzi, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma‘naviy munosabatlari xayoliy tarzda aks etgan.

Diniy dunyoqarashda tabiat va borliqdagi narsa va hodisalar xudoning irodasiga, tafakkur ilohiy kuch-qudratga bog‘lab tushuntiriladi. Diniy dunyoqarashning shakllanishi tadrijiy va jiddiy jarayon bo‘lib, fetishizm, sehrgarlik, totemizm, anemizmning ba‘zi elementlari mavjud bo‘lsa ham, ulardan mazmunan keskin farqlanadi. Diniy dunyoqarashning muhim jihatlarini diniy tuyg‘u, diniy aqidalarga ishonish, sig‘inish, diniy e‘tiqod va shu kabilar tashkil etadi. Diniy dunyoqarashga ko‘ra, butun borliq olam, tabiat, jamiyat, inson Alloh ijodi mahsuli, hamma joyda va hamma narsada xudoning irodasi hukmronidir. Diniy va dunyoviy ilmlar rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan Markaziy Osiyo mutafakkirlari al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘beklar olamni Alloh yaratganini e‘tirof qilganlar.

Diniy dunyoqarash inson hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonning his-tuyg‘u, quvonch-tashvish, umid-ishonchlariga bevosita aloqadordir. Shunga ko‘ra, diniy e‘tiqodga ustun darajada e‘tibor qaratilgani bilan u dunyoqarashning boshqa turlaridan ajralib turadi. Din va diniy dunyoqarash xususida shuni aytish mumkinki, Sho‘rolar davrida dinga bir tomonlama yondashilib uning inson manfaati sohasida kishilarning axloqiy munosabatlarini takomillashtirishdagi ijodiy ahamiyatini to‘g‘ri tushunilmadi. Dinga qarshi kurashlar niqobi ostida xalqimiz asrlar davomida yaratgan diniy marosim, urf-odat va an‘analar ta‘qiqlandi, madaniy meros bo‘lgan masjid va madrasalar buzib tashlandi. Qatag‘on avj olgan davrda diniy kitoblar yo‘q qilindi.

Istiqlol sharofati bilan yurtimizda dinga yangicha munosabat shakllandi. Diniy qadriyatlar inson ma‘naviy kamolotining muhim tarkibiy qismi va omili deb qaraldi. Qur‘on, hadisda g‘oyalar, islom mutafakkirlarining komil inson shaxsini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan qomusiy asarlari dunyo yuzini ko‘rdi.

Diniy dunyoqarash umuminsoniy qadriyatlarning dunyoviy bilimlarning barcha tomonlari bilan bog‘langanida jamiyat ma‘naviy kamolotga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Yoshlarda sharqona odob-axloq madaniyatini tarbiyalashda islom dini alohida o‘rin tutadi. Yurtboshimiz I.Karimov “Ota bobolarimiz dini biz uchun ham imon, ham hayo, ham axloq, ham diyonat, ham ma‘rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig‘indisi emas. Ana shuning uchun ham bu ma‘rifatni xalqimiz jon-jon deb qabul qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo‘lishga, izzat-ehtiromlar tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar”.

Teologiya (“theo” – xudo, “logos” – ta‘limot) diniy dunyoqarashni falsafiy tahlil etadigan, xudo, uning sifatleri, belgilari va xususiyatlari to‘g‘risidagi diniy ta‘limotlarni asoslaydigan va himoya qiladigan ilohiyotshunoslik fani. Teologiya olam va odam munosabatlari, umrning mazmuni, hayot va o‘lim kabi masalalarni ilohiyot, diniy e‘tiqod tushunchalari bilan bog‘lab tahlil qiladi. Teologiya ilm-fan, falsafa va axloqni o‘zida mujassam etgan tizim sifatida oliy o‘quv yurtlarida o‘rganiladi. Din inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy, ma‘naviy, ruhiy vazifalarni bajaradi, masalan, axloqiy va ma‘naviy qadriyatlar, tarixiy va madaniy merosdan bahramand etadi, turli diniy marosim va bayramlar yordamida kishilarni birdamlik, mehr-oqibat, saxovat va oliy axloqiy qadriyatlarga e‘tiqod ruhida tarbiyalaydi.

Insoniyat tarixidagi har bir davr falsafiy masalalarni tadqiq qilishda o‘ziga xos yo‘lni tanlab, o‘z davri nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Mifologik va diniy dunyoqarash inson ma‘naviy hayotining yangi bosqichiga ko‘tarildi, natijada dunyoni aql ko‘zi, tafakkur salohiyati bilan o‘rganish boshlandi, ya‘ni dunyoni ilmiy tushunishning zamini yaratildi, uning mohiyati tafakkur kategoriyalari asosida tahlil qilindi. Falsafiy dunyoqarash borliqni aqliy jihatidan umumlashtirib tushuntiruvchi nazariy qarashlar tizimi bo‘lib, mifologik va diniy dunyoqarashdan farqli o‘laroq, insonning aqliy intellektual faoliyatiga e‘tibor qaratadi. Falsafiy dunyoqarash tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma‘lumot berish bilan birga butun borliq, olamni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini bilish murakkab ziddiyatli jarayon ekanligini ta‘kidlaydi.

Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar jamiyatning tabiat bilan uzviy birligi, inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi, turli xalqlar madaniyatining xilma-xilligi va birligi yotadi. Falsafiy dunyoqarash ilmiy bilishda muhim uslubiy vazifani bajaradi. Falsafa voqelikdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqasi va taraqqiyot qonunlarini aks ettirib, narsalarning mohiyatiga chuqur kirib borish, taraqqiyot qonunlarini bilish va olamda yuz berayotgan hodisalarni ongli tahlil qilish imkoniyatini beradi. Falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va taraqqiyotiga afsonaviy va diniy dunyoqarash katta ta'sir ko'rsatgan. Falsafiy dunyoqarash doimo insonning muayyan maqsadiga qaratilgan amaliy va nazariy faoliyati bilan uyg'unlashgan eng umumiy umumlashtirilgan ta'limotlarda ifodalanadi. Falsafiy dunyoqarash asosini falsafiy qarashlar, tasavvurlar, tashkil etadi. Falsafiy dunyoqarashning to'g'riligi va ilmiyligini insoniyatning amaliy tajribasi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy faoliyati ochiq-ravshan ko'rsatadi. Falsafa fani jahon madaniyatining tarkibiy qismi sifatida dunyodagi alohida xalq, elat, millatniki emas, balki turli davr va turli sharoitda yashagan, yashab kelayotgan xalqning, butun insoniyatning umumiy yutug'i, bashariyatning asrlar osha rivojlanib, sayqallangan aql-idrok va tafakkuri mahsulidir.

Falsafa umumiy qonuniyatlar haqidagi fan bo'lib, bu qonuniyatlarga borliq ham, inson tafakkuri ham, bilish jarayoni ham aloqador. Falsafiy dunyoqarash borliqqa bo'lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini – axloq, huquqiy munosabatlarini – huquq, siyosiy munosabatlarini – siyosat, diniy munosabatlarini – din, ekologik munosabatlarni – ekologiya tadqiq etadi.

Alohida fan sifatida falsafaning asosiy masalasi tafakkurning borliqqa, ongning materiyaga munosabati, ya'ni olamning asosida nima yotadi, nima birlamchiligi muammosidir. Falsafa ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, pirovard hisobda jamiyatning iktisodiy munosabatlari bilan belgilanadi. Falsafiy dunyoqarash mantiqiy tahlil, umumlashma, mantiqiy muhokama, xulosa, mantiqiy isbot, dalillash va raddiyalar asosida nazariy fikr yuritish orqali borliqni tushunish, tushuntirish, baholash va izohlashdir. Falsafiy dunyoqarashga har doim hurfikrlilik, fikriy teranlik kabi xususiyatlar xosdir. Falsafiy dunyoqarashning asosiy tamoyillari ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, universallik, maqsadlilik, g'oyaviylik, nazariya va amaliyot birligidir. Ular xar qanday dunyoqarash shakllari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Falsafiy dunyoqarashning ilmiyligi shundaki, u narsa va hodisalar o'rtasidagi bohlanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong emas, balki nazariy ong darajasida ifodalaydi. Falsafiy dunyoqarashning tarixiyligi shundaki, u jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligi va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamga xolis, ilmiy va izchil aks etishiga putur etadi. Falsafiy dunyoqarash universal bo'lib, boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qiladi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga ega. Falsafiy dunyoqarash g'oyaviydir, uning asosida muayyan g'oya yotadi. Falsafiy dunyoqarash g'oyani e'tiqodga aylantirish va uni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Falsafiy dunyoqarash nazariya va amaliyot birligidir. U nazariyani ijtimoiy amaliyot tajribalari bilan umumlashtirib, istiqbol rejalar belgilaydi. Falsafa milliylik va umuminsoniylik tamoyiliga asoslanadi. Milliylik – har bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari, millatning unda namoyon bo‘ladigan ruhidir. Umuminsoniylik – barcha millatga xos bo‘lgan xususiyatlarning in‘ikosi, bashariyatga xos bo‘lgan jihatlar, jamiyat rivojining barcha davr va hududlarga xos umumiy tamoyillaridir.

Milliy dunyoqarash umuminsoniy dunyoqarash shakli va uning tarkibiy qismi sifatida yuzaga keladi. Olam va odam munosabatlari, jamiyat va tabiatni asrash, umrni mazmunli o‘tkazish, yaxshilik va yomonlik kabi masalalar insoniyat uchun umumiy bo‘lsa ham, muayyan milliy xususiyat, maqsad va intilishlarda o‘z aksini topadi. Hozirda turli dunyoqarash shakllarining o‘zaro aloqadorligi kuchayib, muayyan dunyoqarash shakllanish va rivojlanish jarayonida insonga oliy qadriyat sifatidagi munosabatning ahamiyati ortmoqda.

Insoniyat yaratgan ma’naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to‘plangan xikmatlar xazinasi, ajdodlar ma’naviy merosi muhim o‘rin tutadi. Har bir davrning buyuk mutafakkirlari o‘z yurti va xalqi tafakkuri, ruhiyati hamda orzu-intilishlarini falsafiy ta’limotlarida ifoda etib, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g‘oyalarni ilgari surganlar.

Xalqni buyuk maqsadlar sari etaklovchi g‘oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, millatimizning buyuk daholari, mashhur allomalarning hayotbaxsh g‘oyalariva o‘lmas asarlarini o‘rganish, targ‘ib-tashviq qilish tom ma’noda milliy o‘zlikni anglashga beqiyos xizmat qiladi. Ma’lumki, yaqin-yaqinlargacha dialektik materializm falsafadagi eng to‘g‘ri ta’limot, falsafa tarixini tahlil qilishda bosh mezon deb kelingan, shuning natijasi o‘laroq, falsafaning asosiy masalasi materializm bilan idealizm o‘rtasidagi kurashdan, falsafa tarixi esa materializm bilan idealizm, dialektika bilan metafizika o‘rtasidagi kurash tarixidan iborat, deb talqin qilingan. Mutafakkirlarning qarashlari ham ana shu mezon bilan baholangan. Ularning qarashlaridagi ilg‘or va reaksion tomonlar ham shular bilan o‘lchangan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanladi, rivojlanishning “o‘zbek modeli”ni amalga oshirishga kirishdi. Xalqimizning huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish zarurati dunyoqarashni tubdan o‘zgartirish, sho‘rolar davrida hukm surgan aqidalardan voz kechish, milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish, shu asosda milliy ma’naviyatni yuksaltirish, har bir mutafakkirning falsafiy tafakkur taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini xolisona baholashni taqozo etmoqda.

Bunda ijtimoiy fanlar, xususan, falsafiy fanlar rivoji ulkan ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Ko‘p asrlik tariximiz shuni ko‘rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma’rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o‘rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo‘ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo‘ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo‘ladimi – barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta’sir kuchiga ega”.

Falsafiy fanlar tizimi insoniyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi mexanizmdir. Ma’lumki, Qadimgi Yunoniston va Rimda qariyb barcha bilimlar falsafa tarkibida rivojlangan va keyinchalik fanlar o‘z tadqiqot ob’ektiga ega bo‘lib, falsafa tarkibidan

chiqqan. Insonning olam sir-asrorlarini bilishga qiziqishi muayyan davrga kelib, falsafiy-nazariy bilimni tarixiy zaruratga aylantirdi. Buning natijasida aqliy va jismoniy mehnat taqsimotining dastlabki shakllari vujudga kelib, fanning nazariy jihatlarini o'rganishga kirishildi.

Olam va odam yaralishi, mavjudlik va rivojlanish qonuniyatlarini afsona va rivoyatlarda ifodalagan mifologiya, ilohiy va ruhiy qarashlar tizimini shakllantirgan teologiya, inson psixik holatlarini tahlil etadigan psixologiya, jamiyat va shaxs hayotida axloqiy me'yorlar va tamoyillar o'rnini tadqiq etadigan axloqshunoslik, estetika, madaniyat, huquq, siyosat kabi turli yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Falsafiy bilimlarning asosiy yo'nalishlari quyidagicha:

Ontologiya – borliq falsafasi, insonning olamga munosabatini o'rganadi.

Gnoseologiya – bilish falsafasi, olamni anglash, bilishning shakllari, usullarini tadqiq etadi.

Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi, aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv masalalarini tahlil etadi.

Praksiologiya – insonning amaliy faoliyatini tadqiq etadi.

Metodologiya – bilish va o'zgaruvchan faoliyat usullarini o'rganadi. Logika – tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganadi.

Etika – axloq falsafasi, insoniyatning axloqiy tamoyillari, me'yor, tartib-qoidalarini tadqiq etadi.

Estetika – go'zallik falsafasi, jamiyat va inson hayotida go'zallikning o'ri, tartib-qoidalarini o'rganadi.

Ijtimoiy-falsafiy fanlar tizimi quyidagicha.

Antropologiya – inson falsafasi, odamning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi, inson hayotining mazmuni, insonning jamiyatdagi o'ri, ijtimoiy aloqalari, shaxs kamoloti, ma'naviyati masalalarini falsafiy talqini bilan shug'ullanadi.

Kulturologiya – madaniyatning mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, taraqqiyot bosqichlari va istiqbollari yaxlit, bir butun hodisa sifatida o'rganadi.

Sotsiologiya – jamiyat falsafasi, ijtimoiy munosabatlar sotsial uyushmalarining rivojlanish va amal qilish qonunlarini o'rganadi.

Politologiya – siyosat falsafasi, davlatni boshqarish san'ati, siyosiy hokimiyat va uning amal qilish qonuniyatlari, siyosiy jarayonlar mohiyati, mazmuni, asosiy yo'nalishlari, siyosiy boshqarish mahorati, ichki va tashqi siyosatning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etadi.

Ideologiya – mafkura falsafasi, ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, maqsad-muddaolarini ifodalaydigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va ularni amalga oshirish yo'llarini o'rganadi.

Teologiya – din falsafasi, dinning falsafiy tahlili, xudo to'g'risidagi diniy ta'limotlarni o'rganadi.

Huquq – huquq falsafasi, huquqning mohiyati, vujudga kelishi, huquqiy qoidalarining axloqiy me'yorlar bilan mutanosibligi masalalarini o'rganadi.

San'at – badiiy bilish va anglash, badiiy qadriyatlar, badiiy ijod, badiiy idrok jarayonlarini falsafiy tahlil etadi.

Falsafiy bilimlar tizimidagi har bir yo'nalish jamiyat rivojlanishida o'ziga xos determinant (sabab) vazifasini bajarib, ob'ektiv hodisa sifatida dunyoni bilishdagi

yaxlitlikni o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda aks ettiradi. Falsafiy g'oyalar, nazariyalar, ularning shakllanishi va ahamiyati xususida to'xtaladigan bo'lsak, har qanday falsafiy bilim dastlab g'oya tarzida bo'lgan. Falsafiy g'oyalar inson hayot tarzi, tafakkurining ko'zgusidir.

Inson muayyan muammoni anglash va hal qilish jarayonida fikrlaydi, muammoni echishning usul va vositalarini izlaydi. Kishilarning narsa va hodisalarga o'z ehtiyoj va manfaatlari nuqtai nazaridan yondashishi natijasida muammoga munosabat va uni hal qilishga qaratilgan amaliy, nazariy harakat paydo bo'ladi. Inson g'ayriinsoniy g'oya va qarashga asoslangan xatti-harakatlarni ta'qiqlashga qodirligi uchun umuminsoniy maqsadlar sari intiladi.

Hech bir tinchlikparvar xalq urushni xohlamaydi, aksincha, umrini yaratuvchilik va bunyodkorlik ishiga bag'ishlaydi. Hayot g'oya va nazariyalar o'rtasidagi kurash, bahs-munozaralardan iborat. To'g'ri va haq yo'lni tanlash har bir insonning o'z qo'lida. O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchi, tanlagan yo'lining to'g'riligiga ishongan inson kelajakka ishonch bilan qaraydi, jamiyatdagi xilma-xil fikrlardan esankiramaydi, hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday buzg'unchi g'oya, qarash, g'arazli tahdidga qarshi kurashga qodir bo'ladi.

XXI asr bo'sag'asida insoniyat oldida olamshumul muammolarni hal etish vazifasi ko'ndalang bo'ldi. Yadro urushi xavfi, keskinlashayotgan ekologik muammolar, xom-ashyo va energetika resurslari, Er shari aholisining shiddat bilan o'sib borayotgani, oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi, sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat, ma'naviyat, axloq, fan-texnika va texnologiyani rivojlantirish muammolarini hal etish yangicha tafakkurni taqazo etadi. Buning uchun dalillar bilan ilmiy asoslangan nazariyalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish lozim.

Falsafa insonning mohiyati, yashashdan maqsadi, ma'naviy ideallari, borliqdagi o'рни, munosabatlari sabablari, ruhiy va moddiy ehtiyojlarini qondirish usul va vositalarini ko'rsatib beradi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tayotgan pallada inson tafakkuri va ongida saqlanib qolgan eskicha fikrlash qoliplarini bartaraf etish, milliy o'zlikni anglash, milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda aql-zakovat va sabr-toqat bilan ish tutishda falsafaning o'рни va ahamiyati beqiyos.

Falsafa insonni har qanday murakkab vaziyatda ham yuksak g'oyaviylik, mustakam e'tiqod, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydi, insonni murosas va hamkorlik qilishga, muammolarni hal etishning oqilona yo'lini topishga yordam beradi. Falsafa diniy va dunyoviy bilimlar o'rtasidagi mantiqiy uyg'unlikni ilmiy izohlash, uning qonun va tamoyillarini xolis tahlil qilish, diniy va dunyoviy fanlarining o'zaro munosabatlarini umuminsoniy maqsad va manfaatlar doirasida muvofiqlashtirishni amalga oshiradi. Falsafaning eng asosiy vazifasi kishilar ongida sog'lom aql tafakkuriga mos dunyoqarashni shakllantirishdir.

Falsafaning uslubiy vazifasi maqsadga erishish usuli, muayyan tarzda tartibga solingan faoliyat. Uslub maxsus falsafiy ma'noda bilish vositasi sifatida o'rganiladigan predmetni tafakkurda qayta hosil qilish usulidir.

Metodologiya falsafa fanining tadqiqot ob'ektini o'rganishga yo'naltirilgan eng umumiy tamoyil, usul, vositalar tizimidir. Falsafa boshqa fanlar uchun uslub (metodologiya) bo'lib xizmat qiladi.

Falsafaning gnoseologik vazifasi narsa va hodisalarni bilishning qonuniyatlarini bilishda ob'ekt va sub'ekt dialektikasini chambarchas bog'liq holda ochib beradi. Bunda bilimlarning haqiqiyligi masalasi asosiy o'rin tutadi.

Falsafaning evristik vazifasi tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy yangi qonunlarini kashf etish, o'z-o'zini anglash, milliy o'zlikni anglashni xarakterlaydi.

Falsafaning tarbiyaviy vazifasi ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash, yuksak axloqiy me'yorlar, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, tabiatga oqilona munosabat, uni muhofaza qilishning nazariy asoslarini belgilaydi.

Falsafaning praksiologik vazifasi falsafiy g'oya va nazariyalarning ijtimoiy hayotga amaliy tatbiq etilishi bilan izohlanadi. Bu vazifalarning o'zaro ichki bog'liqligi falsafaning umumnazariy va uslubiy ahamiyatini belgilaydi. Ularning har tomonlama o'rganish inson va jamiyat mahnaviy kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Inson o'zining insonligini qanchalik chuqur tushunsa, yashashning mazmun-mohiyatini teran anglaydi. O'zligini anglagan inson olamning bor rang-barangligi bilan birga hayot mazmunini, o'zining shunchaki tiriklik yoki majudlik belgisi emas, balki betakror mo'jiza ekanligi, inson qadr-qimmatini mushohada qiladi, inson hamisha ma'rifatga muhtoj bo'lishi, xurofot, jaholat hayot kushandasi, manqurtlik o'zini va olamni unutish ekanligini tafakkur qiladi. Inson bevosita ichki quvvat bilan ma'naviy etuklik, komillikka intiladi.

Mustaqillik – jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqlool haqida o'ylash, falsafiy dunyoqarash yangilanishining asosidir. Istiqlool erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir. Istiqlool o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida kishilarning barcha munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi va ana shu mezonlar asosida yashashidir. Istiqlool bizga o'zligimizni anglatdi. U dunyoqarashimizni tubdan o'zgartirib, voqealar rivojini butun mohiyati bilan anglashga, dunyoga kengroq va teranroq nazar solishga, bu ko'hna olamda sho'ro tizimidan boshqa davlatlar tizimi ham borligi, boshqacha yashash ham mumkinligi, kommunistik mafkuradan bo'lak hayot lazzati, inson qadr-qimmatini himoya qiladigan o'zga g'oyalar ham mavjudligini ko'rsatib berdi. Mustamlakachilikning kishilik tarixidagi fojiasi – insonni mustaqil fikrlashdek ulkan iqtidordan mahrum etganida.

Falsafiy tafakkurni yangilash jarayoni qator muammolarni bartaraf qilishni taqazo etadi. Jumladan, mustabid tuzum mafkurasining ijtimoiy, ma'naviy va falsafiy sohalaridagi asoratlarini bartaraf etish, kishilar ongi va turmush tarzidan sobiq tuzum aqidalarini siqib chiqarish, xalqimiz ongida hamon saqlanib kelayotgan loqaydlik, boqimandalik va mutelik kayfiyatiga barham berish, bir yoqlama va tor fikrlashdan voz kechish, ma'naviy merosimizni keng va chuqur o'rganish va ijodiy rivojlantirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni milliy mentalitetimizga moslash, ya'ni ularda milliy g'oya va istiqlool mafkurasini tamoyillarini aks ettirish, yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash, jahon va Sharq xalqlari falsafiy merosini o'rganish va boshqalar.

Mustaqillik inson imkoniyatlarini kengaytirib, uning yaratuvchilik iqtidori va bunyodkorlik qobiliyatini kuchaytirdi. Xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlari, milliy o'zligimizni o'zida mujassam etgan milliy mafkura umuminsoniy qadriyatlar,

dunyo sivilizatsiyasi yutuqlari hamda ilg'or, taraqqiyparvar g'oyalar bilan boyitib, o'z oldiga oliy ezgu maqsad va vazifalarni qo'ygan.

Falsafiy tafakkur yangilanishini harakatlantiruvchi kuch – jamiyatning faol a'zosi, shaxsdir. Falsafaning yangilanishi uchun moddiy-iqtisodiy (iqtisodiy plyuralizm va mulkchilikning turli shakllari, bozor munosabatlari, aholini ijtimoiy himoyalash), ijtimoiy-siyosiy (ko'p partiyaviylik, ya'ni mazmun va shakldagi siyosiy tizim), ma'naviy (qadriyatlar, ma'naviy va madaniy meros) asoslar zarur hisoblanadi. Falsafiy ongning yangilanish jarayoni jamiyat ma'naviy hayoti, mafkurasi, madaniyati, ta'lim tizimidagi yangilanishi, inson ruhining poklanishi kabi jarayon bilan uzviy bog'liqdir.

Falsafiy ong o'zgarishining muhim jihatlari shundaki, falsafiy dunyoqarashning yangilanishi ijtimoiy jarayon bo'lib, falsafadagi yangilanish jamiyatdan, o'z davridan, ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlardan tashqarida sodir bo'lmaydi, balki aga shu jarayonlarning asosiy xususiyatlarini ask ettiradi. Falsafiy ongning yangilanishi tarixiy zaruratdir, ya'ni u tasodifiy namoyon bo'ladigan o'tkinchi hodisa emas. O'tish davrining zaruriyati jamiyatni tubdan isloh qilish va kishilarda yangicha tafakkurni shakllantirishni taqazo etadi.

Falsafiy ongning yangilanishi jamiyat ma'naviy hayoti, har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va e'tiyojlarini tubdan o'zgartiradi. Falsafiy ongning yangilanishi muayyan bir davrni o'z ichiga qamrab oladi va bu jarayon o'tish davri hisoblanadi.

Falsafiy ongning yangilanishi inkor va vorislik jarayoni bo'lib, bir tomondan o'z tarixiy o'tmishdan voz kechish, sinfiy-partiyaviy tamoyillarni inkor etish va yangi jamiyat taraqqiyoti uchun vosita bo'ladigan moddiy va ma'naviy merosni saqlanib qolishi kuzatiladi.

Mamlakatimiz mustaqilligining bugungi bosh strategik maqsadi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Taraqqiyotimiz taqdiri esa yoshlarning qo'lida. Ana shu oliy maqsadlarni amalga oshira oladigan, ma'naviy-axloqiy, ruhiy-jismoniy etuk va faol shaxs jamiyat taraqqiyoti, davlat istiqboli, shaxs – jamiyat – davlat manfaatlari uyg'unligini teran anglaydigan, qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari jo'sh urgan, yuksak malakali mutaxassislarni shakllantirish oliy va o'rta maxsus ta'limning asosiy vazifasidir.

Falsafaning yangilanishi mafkuraviy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mafkura jamiyat ma'naviy muhit holatini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biri bo'lsa, falsafa uni shakllantiradigan omillardar biridir. Mafkura o'z mohiyati, maqsadi, harakat yo'nalishi bilan jamiyatning bosh g'oyasiga xizmat qiladi. Sobiq mustabid tuzum mafkurasidan voz kechilib, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirilmoqda.

I.Karimov "Mafkura xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyanagan holda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli o'laroq munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i lozim"ligini uqtirgan edi. Mafkura dunyoqarash asosini tashkil etadi, jamiyat va xalqning taraqqiyot yo'lini belgilaydi, rivojlanishning etakchi g'oyalarini ilgari suradi.

Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi uchun mustabid tuzum siyosati tufayli ongimizga singib ketgan asoratlardan xalos bo'lish lozim. Buning uchun milliy g'urur va iftixor tuyg'usining yuksalishida yuksak o'rin tutadigan Vatan va xalq tarixi, ma'naviy-madaniy meros, ona tili, din, milliy turmush tarzi, milliy urf-odatlarini yangi davrning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda hayotimizning ajralmas qismiga aylantirish lozim.

Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi qanday? Nima uchun hozirga qadar urushlar, turli taloto'p va tortishuvlarga barham berilmayapti? Eski qoliplarga o'ralgan falsafiy dunyoqarash asosida yangi zamonning mafkuraviy talablariga qanday javob berish mumkin? Bu kabi savollar inson deb atalmish xilqatni o'ylantirishi tabiiy.

“Ko'p sinovlar, azob-uqubatlar, xatolar, fojialar, urushlar, qatag'onlarni boshidan kechirgan asrimiz poyoniga etayotgan, insoniyat yangi asr bo'sag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari bahs-munozara doirasidan chiqib to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda”.

To'qnashuv, qonli kurashlarning sababchisi oqim va yo'nalishlarning shaxsiy manfaatlari bo'lib, ana shu manfaatlar ulkan harakatlatiruvchi kuch hisoblanadi va u o'zga davlatlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar ongi, dunyoqarashi, turmush tarziga ta'sir o'tkazish, o'z manfaatlari doirasiga bo'ysundirish uchun yo'naltirilgan maqsadlarni shakllantiradi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti, kishilar ongi va ruhiyatiga o'zlarining tor manfaatlaridan kelib chiqqan holda ta'sir ko'rsatishga urinayotgan kuchlarga qarshi o'z mustaqil fikri va mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan, milliy istiqlol mafkurasi bilan qurollangan fidokor kishilar kerak.

Bu mafkura fikr qaramligi, tafakkur qulligini oldini olishga xizmat qiladi, milliy japslik, taraqqiyot, buyuk kelajakni ta'minlaydi, deb ishonch bilan aytish mumkin. Ushbu olamshumul vazifalarni amalga oshirishda yurtboshimizning qator asarlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

3-mavzu. Qadimgi va o'rta asrlar falsafasi

1. Markaziy Osiyodagi eng qadimgi falsafiy qarashlar. Miloddan oldingi ming yilliklarda vatanimiz hududida ijtimoiy - siyosiy va falsafiy tafakkur rivoji. Qadimgi Xorazm, Sug'diyona, Afrosiyob, Shosh madaniyati, uning milliy g'oya shakllanishidagi ahamiyati.
2. "Avesto" va zardushtiylik g'oyalari. Avesto – mamlakatimiz tsivilizatsiyasi va xalqlarimiz ijtimoiy fikri tarixining qadimgi namunasi. Zardushtiylikning olam, borliq va rux tabiat va odam to'g'risidagi qarashlari. Avestoda milliy g'oyalarning ifodalanishi va uning xalqlarimiz taraqqiyotidagi ta'siri. Makedoniyalik Iskandar istilosi va Grek-Baqtriya davri falsafasi. Istilo davrida milliy g'oyalar va qadriyatlarning tanazzuli. Siyosiy jarayonlar va falsafiy fikrlarda istilochilar g'oyalarining aks etishi. Spitamen boshchiligidagi harakatning milliy-falsafiy g'oyalari. Kushon davlati davridagi g'oyaviy qarashlar va madaniy taraqqiyot. Hindiston va xalqimiz o'rtasidagi madaniy aloqalar.
3. Markaziy Osiyoda buddaviylik. Buddaviylikning Kushon davrida yangi va ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanishi.
4. Moniy falsafasi. Moniylik g'oyalarining tarqalishi. Mazdak g'oyalari. Mazdakiylikning tarqalishi, asosiy tamoyillari va qarashlari. Moniy va Mazdak ta'limotlarining tarixiy taqdiri va xalqlarimiz ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri.
5. Vatanimiz madaniyati va falsafasining jahon tsivilizatsiyasiga ta'siri. Falsafiy merosni egallash va yoshlarda tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllaitirish vazifalari.
6. Sharq jahon tsivilizatsiyasining markazlaridan biri Qadimiy Sharq, Misr va Bobil falsafasi. Iudaizm dini va falsafiy ta'limoti. Xind falsafasi: vedalar va upanishadalar, jaynizm, hinduizm va buddizm.
7. Qadimgi Xitoy falsafasi: Konfutsiy va Lao Tsz, konfutsiylik va daosizm g'oyalari.
8. Antik dunyo falsafasi. Antik dunyo va Yunoniston falsafasining klassik davri. Milet va eley maktablari. Geraklit, Pifagor va pifagorchilar. Sofistlar falsafasi. Suqrot va Aflotun falsafasi. Aflotunning g'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi to'g'risidagi ta'limoti. Yunon atomistlari: Levkip, Demokrit va boshqalar. Arastuning hayoti, faoliyati va asarlari. Ellinizm davri va stoiklar falsafasi.
9. Qadimgi Rimda falsafiy fikrlar. Xristianlikning shakllanishi, tarqalishi va g'arb falsafasiga ta'siri.
10. Qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafasini o'rganishning zarurati, uning jahon madaniyati va fani uchun ahamiyati.

Qo'llaniladigan innovatsion va axborot ta'lim texnologiyalari. *Mavzu zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi. Namoyish etish, Og'zaki bayon qilish, FSMU, muammoli ta'lim, B/B/B jadvali, bahs-munozara, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usulidan foydalaniladi.*

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston eng qadimgi zamonlardan buyon inson yashab kelayotgan diyor bo'lib, qadimiy va buyuk madaniyat obidalari, yodgorliklari, an'analariga ega. Olimlar O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lganligini isbotladilar.

Zarafshon, Sirdaryo va Amudaryo bo'ylarida joylashgan so'g'd, massaget, tohar qabilalari miloddan avvalgi uchinchi mingyillik boshlaridayoq o'troq hayotga o'tib, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Sug'orma dehqonchilik madaniyati, bog'-rog'lar barpo etish, uzumchilik rivojlangan.

Shu davrlardan boshlab jez va temirga ishlov berilib, mehnat va harbiy qurollar yasalgan, to'qimachilik, tikuvchilik va hunarmandchilik taraqqiy etgan. Keyinchalik shaharlar paydo bo'lib, tosh devorli mustahkam qal'alar qurilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1997 yili Xiva shahrining 2500 yilligi nishonlanayotgan kuni o'z ma'ruzasida o'zbek davlatchiligi 2700 yillik tarixga ega ekanligini butun dunyoga rasman e'lon qildi: "O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo'yilgan. Shu ma'noda, milliy davlatchiligimiz tarixi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi.

Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig'idir". Ushbu haqiqatni bugun butun dunyo tan oldi. O'zbek davlatchiligining eng qadimiy tarixiy davrlarini yoritishda arxeologik qazishmalar natijalari, mahalliy yozma adabiyot namunalari – "Avesto", ko'hna eroniy bitiklar, Yunoniston, Xitoy, hindistonlik mualliflar yozib qoldirgan meros asosiy manba hisoblanadi.

Insoniyat tarixida bo'lib o'tgan turli voqea-hodisalardan to'g'ri va xolis xulosalar chiqarish inson ma'naviy kamoloti uchun zamin bo'lgan. O'tmish falsafiy tafakkuri tarixini o'rganishdan maqsad – tarixda ro'y bergan voqea-hodisalarni millat va xalq ongida qanday aks etib, qanday g'oyalarning tug'ilishiga sabab bo'lgani, ularning milliy taraqqiyotga qanday ta'sir ko'rsatgani, qaysi mafkura ko'proq rivojlanish yoki tanazzul tomon etaklagani kabi haqiqatlarni bilishdir.

Tarixni falsafasiz to'g'ri tushunib bo'lmagani kabi, falsafani ham tarix haqiqatisiz to'g'ri anglash mushkul. Hozirgi o'zbek xalqining etnik ildizi turkiy qabilalar bilan birga forsiy qabilalar (so'g'd, parfiya)ga ham borib taqaladi. Bu madaniy meros boy xalq og'zaki ijodi namunalari, eroniy, turkiy, zardushtiy, buddaviy kabi yozma bitiklar, Shiroq, To'maris, Kuntug'mish kabi afsonalar, Alpomish, Go'ro'g'li turkumidagi dostonlar, qissa va hikoyalar, matal-masallar, topishmoq, qo'shiqlarda aks etgan. Uning bir qismi yozma tamal toshlari – qadimgi bitiklar bo'lsa, ikkinchisi xalqimizning qadimiy-tarixiy kitobi "Avesto", uchinchisi, allomalar qoldirgan manbalardir.

Olam va odamning yaratilishi, tabiat, iloh va ilohlar haqidagi tasavvurlar, yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, yillar almashinishi, Navro'z bayrami va u bilan bog'liq qo'shiqlar – qadimgi sug'd xalqlarining tafakkur olamidan darak beradi. Qadimgi bitiklar – toshlarga bitilgan turkiy yozuvlar garchi miloddan oldingi VIII asrga oid bo'lsa-da, ularda uch ming yillik tarixga oid tasavvurlar, turmush tarzi, orzu-umid va intilishlar, qadriyat va an'analar, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, diniy va badiiy qarashlar, umuman, tarixiy va ma'naviy xotira aks etgan.

Qadimgi turkiy bitiklar Urxun-Enesey, Selenga, Talas, Norin, Amudaryo, Dunay, Don, Sirdaryo bo'ylari, Cherkassk, Donetsk, Kipr, Mo'g'uliston va boshqa erlardan topilgan. Ushbu bitiklarda Vatanni sevish, ona zaminga sadoqat ruhi ustuvorlik qiladi.

Xalqimizning tarixiy-falsafiy tafakkuri "hayot yo'riqnomasi" deb atalgan "Avesto"da aks etgan. "Avesto" bundan uch ming yillar avval dastlab og'zaki shaklda, so'ngra bitik holatiga keltirilgan qadimgi xalqlar e'tiqodi, diniy-falsafiy, siyosiy-axloqiy qarashlari, tasavvurlari, ta'limotlari, tabiiy-ilmiy bilimlari, she'riyati va badiiyati, boy og'zaki ijodiyoti majmuasidir.

Mashhur tarixchi al-Istahriyning ma'lumot berishicha, "Avesto"ning 12000 ho'kiz terisiga tilla bilan yozilgan rasmiy nusxasi Istahr shahri yonidagi ibodatxonaga qo'yilgan bo'lib, buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnaynning buyrug'i bilan faqat tabiatshunoslik, falsafa, she'riyat, falakiyot, kimyo, jug'rofiya, botanika, tarix, siyosat, axloq kabi sohalarga oid ma'lumotlar qoldirilib, qolgan qismi yoqib yuborilgan. Saqlab qolingani qismi Yunonistonga – Arastu tasarrufiga yuborilgan.

"Avesto" zardushtiylik dinining asosiy kitobi deb e'tirof etilsa ham, sof diniy kitob bo'lmay, Turon, Eron va Ozarbayjon xalqlarining tabiiy-falsafiy bilimlari, axloqiy-siyosiy o'g'itlari, qonunlar va huquqiy tasavvurlar majmuasi, insonni, tabiatni ulug'lash, ilohiylashtirish, muqaddaslashtirishga oid qadriyatlar madhiyasidir.

"Avesto"da insoniyatning olam tuzilishi, tabiat va uning ne'matlaridan foydalanish yo'l-yo'riqlari, inson axloqi, jamiyat tizimi, insonning orzu-armonlari, o'zini va olamni bilish qobiliyati bir butun holda shakllanib, u ruh, jon, farishta, tana, tuproq, suv, olov haqidagi tushunchalarda ifodalangan.

Mifologiyadan dinga o'tish va dinlar asosida bir tizimli falsafiy dunyoqarash, amaliyotda esa shu dunyoqarash asosida qonun-qoidalar ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. Zardushtiylik dini nafaqat Eron, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, balki umuminsoniyat tarixida tafakkuriy-e'tiqodiy va amaliy-ijtimoiy yuksalish edi. Zardusht – o'z davrining buyuk mutafakkiri, zabardast inson bo'lgan. Uning qarashlari islom dini kirib kelgunga qadar katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Buyuk ipak yo'li 12 ming chaqirimcha uzunlikda bo'lgan Sariq dengizi sohilidan boshlanib Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali o'rta dengiz sohillarigacha borgan.

Ikkinchi yo'nalish Markaziy Osiyo orqali Hindistonga olib borgan. Bu yo'lda Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv kabi qator qadimiy shaharlar joylashgan. Savdogarlar moldan tashqari turli madaniyat, fan yangiliklarini keltirganlar, sivilizatsiyalar yaqinlashuviga xizmat qilganlar. Sug'diyonadan Xitoyga jun gazlama, gilam, bezak buyumlari va qimmatbaho toshlar, Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan nasldor otlar olib borilgan.

Buyuk ipak yo'lida joylashgan me'morchilik yodgorliklarini o'rganishda hunarmandchilik buyumlari, tangalar topilgan. Masalan, Termizdan Rim tangalari, Afrosiyobdan sopol, Rim shamdonlari, Misr muhrlari topilgan.

O'zbekiston sivilizatsiyasi tarixida yangi davrning boshlanishi kushonlar sulolasi faoliyati bilan bog'liq. Kushonlar mintaqadagi deyarli barcha siyosiy birliklar, makonlar va hatto qo'shni mamlakatlarni yakka siyosiy markaz atrofida birlashtirib, o'zbek davlatchiligi tarixida saltanatchilik bosqichini ochganlar. Bu

davrda Budda dini, madaniyati, an'analari, buddiylik falsafasi, diniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, davlatchilik va huquqiy tafakkur chuqur ildiz otgan, gullab-yashnagan.

Budda madaniyati, an'analari keyinchalik Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Machay qishlog'i aholisining turmush tarzi, an'analari, xalq amaliy san'ati, baxshilar termalari, kuy-qo'shiqlarida mo'jaz shaklda etib kelgan.

Zardushtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan, bu davrning ilg'or mafkurasi Moniy ta'limotida aks etgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha risolalar yozgan. Moniy "moniylik yozuvi" nomli alifbo ham tuzgan. Uning ta'limotiga ko'ra, hayotda dastavval nur dunyosi – yaxshilik va zulmat dunyosi – yovuzlik bo'lgan. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsurdan (ruh – nur farzandi, jism – zulmat mahsuli) iborat.

Moniylik ta'limoti asosida Mazdak ta'limoti vujudga kelgan bo'lib, u eramizning 5-6 asrlarida keng tarqalgan. Uning asoschisi Mazdak (470-529 yillar) bo'lgan. Mazdak ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish yo'lida xalq ommasini kurashga da'vat etgan. Unda boylikka hirs qo'yish va o'ta kambag'allik qoralanadi. Ushbu harakat amaldagi hukumat tomonidan eramizning 6-asrida bostirilganiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan. Mazdak fikricha, jamiyatda ijtimoiy adovatlarga qarshi kurashish hamda insoniy munosabatlarni vujudga keltirishning eng yaxshi yo'li – xudoga toat-ibodat qilishdir.

VII asr o'rtalariga kelib Sosoniylar davlatining kuchsizlanganidan foydalangan arablar avval Eronga, keyin Markaziy Osiyo xududiga hujum qilganlar. Ziyod ibn Abu Sufiyon (vaf. 666 y.), Ubaydulloh ibn Ziyod (vaf. 673.), Qutayba ibn Muslim (vaf. 707 y.) boshchiligida arab qo'shinlari Movarounnahr va Xuroson erlarini fath etganlar. VIII-IX asrlarda arab xalifaligi Osiyo, Afrika va Evropaning bir qismini egallagan ulkan imperiyaga aylangan. Yagona muomala tili arab tili bo'lib, madrasalarda shu tilda ta'lim olib borilgan, ilm-fanga doir asarlar arab tilida yaratilgan. Bu hol turli o'lkalar, xalqlardan etishib chiqqan olimlar, ziyolilarning o'zaro muloqot olib borishi, tahsil olishi, fan yutuqlaridan bahramand bo'lishlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirgan.

Abbosiylar hukmronligi davrida (VIII-XI asrlar) ilm-fanga e'tibor kuchayib, Qur'onni tafsir qilish, hadisshunoslik, fiqh ilmlari, shuningdek, aniq fanlar (matematika, geografiya, tibbiyot, ilmi nujum, taqvim tuzish, geodeziya), falsafa, filologiya, musiqashunoslik rivojlangan. Abbosiylar arablar istilo qilgan qadimgi yozma va og'zaki yodgorliklar, "donishnomalar"ni tiklash, arab tiliga tarjima qilishni yo'lga qo'yganlar. Natijada pahlaviy, suryoniy, yunon tilidan ko'plab ilmiy va badiiy asarlar tarjima qilingan. Xalifa Ma'mun (813-833) davrida Bag'dod chinakam ilm-ma'rifat markaziga aylanib, Bag'dod, Damashq, Buxoro, Qohira, Kufa, Nishopur, Balx, Samarqand madrasalarida minglab tolibi ilmlar turli sohalar bo'yicha tadqiqot olib borganlar, rasadxonalarda osmon jismlari harakati o'rganilgan. Arab tilida ulkan she'riyat yaratilib, hind, fors afsonalari asosida "Ming bir kecha" kabi jahonshumul asarlar vujudga kelgan. Xalifa Ma'mun davrida mo'tazila oqimi ratsionalistik dunyoqarashga asos soldi va islom falsafasi rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Mo'tazila ta'sirida "Ixxon as-safo" ("Sof birodarlar", X asr) jamiyati shakllandi. Ular yaratgan ellik bir jildidan iborat ilmlar qomusi islom olamida katta voqea bo'ldi.

Qomus mualliflarini islom tarixidagi birinchi hurfikrli mutafakkirlar (Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy) deyish mumkin. X asrga kelib Xorazm, Buxoro, Samarqand ilm-fan va madaniyat rivojlangan shaharlarga aylanib, ilmiy-ijodiy muhit vujudga keldi. Bularning hammasi ulkan madaniy yuksalishning natijasi bo‘lib, dunyo tarixida “Musulmon sivilizatsiyasi” nomi bilan mashhur. Bu quyidagi omillar bilan belgilangan:

a) Markaziy Osiyoning qadimiy madaniyat o‘chog‘i bo‘lgani va IX-X asrlarga kelib, bu erda keng ma‘nodagi ma‘naviy tiklanish, uyg‘onish yuz bergani;

b) mahalliy hokimiyat xalifalik markazidan taboro mustaqil bo‘lib borish jarayoni va shu asosda milliy-ma‘naviy o‘z-o‘zini anglashning yuz bergani edi.

Sharq Uyg‘onish davri dunyo ilm-fani rivojiga munosib hissa qo‘shgan, X-XI asrlarda Xorazmda vujudga kelgan katta ilmiy markaz “Dor ul-Hikma val maorif” – Ma‘mun akademiyasidir. Unda faoliyat olib borgan buyuk siymolar orasida Abu Sahl ibn Yahyo al-Masihiy (970-1017), Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq (X asr-1037), Abul Hasan ibn Suvar al-Xammor (942-XI asr boshlari), Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad as-Saolibiy (961-1038), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (937-1048) bo‘lgan. Garchi Ma‘mun akademiasining faoliyati qisqa vaqt (996-1017) davom etgan bo‘lsa-da, fanning barcha sohalarida qomusiy bilimlar yaratilgan. Olimlar qadimgi Xitoy, Yunoniston, Hindistonda yuzaga kelgan ilm sarchashmalaridan ham bahramand bo‘lganlar. Qo‘lyozma asarlar suryoniy va yunon tilidan arab tiliga tarjima qilingan, sharhlar bitilgan, hattotlar tomonidan nusxalar ko‘chirilgan, kitoblarga oltin suvi bilan sayqal berilgan.

O‘rta asrlar Movarounnahr diyoridagi ilm-fan taraqqiyotining yuksalishi, buyuk allomalarning ma‘naviy sarchashmalari bevosita Islom dini, Qur‘oni Karimdagi ilohiy mo‘‘jizalar bilan bog‘liq edi. Islom dini buyuk ilmiy kashfiyotlar uchun taraqqiyot beshigi bo‘ldi. Qur‘onni puxta o‘zlashtirgan, uning oyatlarini to‘g‘ri talqin etgan olimlar buyuk “azimushsha’n”da yozilgan haqiqatni hayotda ilmiy dalil, tajriba orqali anglab etganlar, oqibatda ular ilmiy kashfiyot deb e‘tirof etilgan. Qur‘onda zikr etilgan hodisalar olimlar tomonidan tasdiqlangan.

G‘arbda falsafa, fan va san‘at tushkunlikka yuz tutgan bir vaqtda Sharqda qadimgi yunon ilg‘or falsafiy, tabiiy-ilmiy an‘analar va azaliy mahalliy an‘analar negizida ma‘naviy hayot yuksak rivojlangan.

Mashhur mutafakkir va qomusiy allomalar Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino faoliyatida ilm-fanning xilma-xil jabhalari o‘z ifodasini topgan. Ular salafлари erishgan yutuqlar bilan chegaralanmay, intellektual sohaning ochilmagan qirralarini kashf etdilar, yangi yo‘nalishlarga zamin yaratdilar. Qolaversa, ular Islom falsafasiga tayangan holda insoniyat istiqboli komil insonni shakllantirish orqali yuzaga kelishi, axloq-odob inson tafakkurining ajralmas tarkibiy qismi ekanligi, davlat va jamiyat rivojiga xizmat qiluvchi g‘oyalar har bir davr uchun zaruriyat ekanligi bilan birga ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan asoslab berdilar. Shu ma‘noda, mazkur masalalar barcha musulmon sharqi mutafakkirlarining asarlarida u yoki bu darajada o‘z ifodasini topgan.

Yurtimiz ilm-fani va falsafasida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (vaf. 850 y.) matematik, astronom, faylasuf sifatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Xorazmiy

dunyoqarashida ijtimoiy-falsafiy masalalar, xususan, jamiyat, uning istiqboli haqidagi fikr-mulohazalari alohida o‘rin egallaydi.

Ahmad ibn Muhammad al-Farg‘oniy “Bayt ul-hikma”da faoliyat ko‘rsatib, riyoziyot, falakiyot, jug‘rofiya kabi ilmlar bilan shug‘ullangan. Al-Farg‘oniy ilm-fan tarixida birinchi bo‘lib olam tuzilishini ilmiy tasavvur etishning muhim vositasi bo‘lgan sferalarning radiuslarini aniqlab berdi. Al-Farg‘oniy Erni “eng kichik yulduzdan ham kichikdir” deydi. Farg‘oniy Nil daryosining gidrometeriologik tabiatini o‘rganishga imkon beruvchi nilometr barpo etdi.

O‘rta asr musulmon Sharqining mashhur mutafakkiri, “Sharq Arastusi”, “Ikkinchi muallim” deb ulug‘langan Abu Nasr Forobiy (873-950) qadimgi yunon ilm-fanining bilimdoni sifatida Arastuning “Metafizika”, “Fizika”, “Meteorologiya” va mantiq sohasiga oid kitoblari va boshqa axloq-odob, psixologiya, tabiiy fanlar bo‘yicha yaratgan ilmiy risolalarga sharhlar yozgan.

Forobiy ilm-fanning turli sohalariga tegishli “Falsafa manbalari”, “Mantiq ilmiga kirish”, “Masalalar manbai”, “Substantsiya”, “Davlat to‘g‘risida risola”, “Falsafani o‘rganishdan avval nimalarni o‘rganish lozim”, “Falsafiy masalalar va ularga javoblar”, “Aql haqida risola”, “Fozil odamlar shahri” kabi 160 dan ortiq asar muallifidir. Forobiy fikricha, borliq olti bosqichdan iborat bo‘lib, bu bosqichlar ayni vaqtda butun mavjud narsalarning asosidir, ular bir-biri bilan sabab va oqibat munosabatlari bilan bog‘langan: birinchi sabab – xudo; ikkinchi sabab – osmon jismlari; uchinchi sabab – faol aql (xudoning irodasi, yaratuvchanlik xususiyatlari); to‘rtinchi sabab – jon; beshinchi sabab – shakl; oltinchi sabab – materiya.

Mavjud narsalarning hammasi shu olti asosdan kelib chiqadi. Ular o‘z xarakteri, printsipi va imkoniyatlariga ko‘ra ikki (imkoniyat va voqelik) turga bo‘linadi. Birinchi turga mohiyatan ularning mavjudligi zaruriy ravishda kelib chiqmaydigan narsalar kiradi. Bular “vujudi mumkin” deb ataladi. Bunga birinchi sababdan boshqa hamma sabablar kiradi. Ikkinchi turga – mohiyatidan ularning mavjudligi hamma vaqt va zaruriy ravishda kelib chiqadigan narsalar kiradi. Bu “vujudi vojib”, ya’ni o‘z-o‘zicha mavjud narsalar deb ataladi. Bu bilan Forobiy “birinchi sabab – xudo mavjud” degan xulosaga keladi va bu asoslarning hammasi bir yoqlama pastga qarab boruvchi sabab-oqibat orqali o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Forobiy dunyoning paydo bo‘lishini o‘zaro sabab-oqibat munosabatlari bilan izohlaydi. Forobiy ta’limotiga ko‘ra moddiy jismlar olti turga bo‘linadi: a) osmon jismlari b) aqlli hayvonlar v) aqlsiz hayvonlar g) o‘simliklar d) minerallar e) to‘rt element, ya’ni tuproq, suv, havo, olov. Ular jismlik va moddiylikning asosi bo‘lib, materiyaning eng oddiy turlaridir. Qolgan beshta tur ana shu to‘rt elementning turlicha qo‘shilishidan vujudga keladi. Bundan tashqari beshinchi element – efir bor. Forobiy Arastudan farqli o‘laroq, efirni qolgan to‘rt elementdan o‘z tuzilishiga ko‘ra farqlanishi, boshqa jihatdan umumiyligini ta’kidlaydi. Forobiy fikricha, moddiylikning xarakterli xususiyati va belgisi bo‘y, en va chuqurlikdir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yil) ilm-fanning deyarli barcha sohalarini bilan shug‘ullangan, Yaqin va O‘rta Sharqning boy fan-madaniyatini puxta o‘rganib, qadimgi yunon mumtoz ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik alloma bo‘lib etishdi. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarida samarali ijod etib, 152 kitob va risolalar qoldirgan. Beruniy olamni yaxlit bir butun sifatida tasavvur etadi. Uningcha olamdagi

barcha narsalar doimo harakatda va butun borliq mana shu harakat asosiga qurilgandir. “Olam azaliy... falak cheksiz bo‘shliqqa joylashgan. Olamdagi barcha o‘zgarishlar, tuzilish va buzilishlar, paydo bo‘lish va yo‘qolishlarning o‘ziga xos sabablari bor”. Beruniy fikricha, “tabiatda ma’lum qonuniyat bor, tabiatdagi hodisalarni o‘sha qonuniyatlarga, tabiatning o‘ziga asoslanib izohlash kerak”. Beruniy fikricha, borliq abadiy, materiya doimo o‘zgarib, harakat qilib, yangilanib, turli shaklga kirib turishi ham doimiydir. Beruniy koinotdan tashqari yana boshqa ko‘plab olamlar borligi haqidagi farazlarni ham o‘rtaga tashlaydi. Beruniy xudoning borligini e’tirof etib, uning moddiy olamdagi ishtirokini e’tirof etadi. Allomaning tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlari jahon falsafiy tafakkuri ravnaqiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlari o‘z davrining ko‘zgusidir. Ibn Sino merosida inson qadri, ilm va axloq birligi muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Ibn Sino “Donishnoma” asarida falsafani uch qismga bo‘ladi: fizika (tabobat to‘g‘risidagi ta’limot); logika (tabobat va insonni bilish yo‘llari to‘g‘risidagi ta’limot); metafizika (borliqni butunlay bilishi to‘g‘risidagi ta’limot). Uning fikricha, moddiy olam mangu, u hech kim tamonidan yaratilmagan, turli shakllarga o‘tib turuvchi borliq bu materiyadir va u hamma buyumlardan oldin mavjud bo‘lib, buyumlar esa mana shu materiyadan paydo bo‘lgandir.

Qoraxoniylar hukmdorlar ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga e’tibor qaratganlar. Qoraxoniylar davrida Buxorodagi dunyoga mashhur Minorai Kalon, qator masjidlar, Jarqo‘ton, Bobkent minoralari, O‘zganda maqbaralar, minora, masjidlar, Samarqandda madrasalar bunyod etilgan. Qoraxoniylar davrida Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib kabi dunyoga mashhur iste’dod egalari yuzaga chiqqan. XI asrda yashagan O‘rta Osiyolik mashhur olim, yirik mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariy ilmning turli sohalari, xususan, arab va turk tillari, fors adabiyoti bilan shug‘ullanib, ularni puxta egallagan. “Devonu lug‘atit turk” asarida olim nafaqat til va adabiyot, jug‘rofiya, tarix sohasida boy fikrlar, ilk islom davri ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlariga doir ma’lumotlar to‘plagan.

XI asrning ko‘zga ko‘ringan shoiri, mutafakkiri va olimi Yusuf Xos Hojib (tug‘. 1019-1021) va uning ma’naviy merosi butun dunyoga mashhurdir. Yusuf Xos hojib jamiyatning to‘rt ustunini quyidagicha belgilab bergan: adolat, davlat, aqlu zakovat, qanoat. To‘rt ustun asosidagi jamiyat baxt-saodatini ta’minlashda ilm birinchi o‘ringa qo‘yilgan:

”O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar.

Bilim qayda bo‘lsa, buyuklik bo‘lar”.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgu-bilig” asari qoraxoniylarning markazlashgan davlat tuzish to‘g‘risidagi maqsad va orzulariga javob bergan.

Ilmu ma’rifatga bo‘lgan an’anaviy e’tibor saljuqiylar davrida ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Abu Bakr Marvaziy, Sharafiddin Tusiy, Abulhasan Ali Marvaziy, Umar Xayyom, Abulhotam Muzaffar Isfizoriy, Zahiriddin G‘aznaviy kabi handasachilar, yulduzshunoslar, riyozatchilar, Muhammad Ilohiy, Sayyid Ismoil Jurjoni, Fahriddin Roziy kabi tabiblar, kimyogarlar, Mu’iziy, Anvari, Sobir Termiziy, Asiruddin Axsakatiy, Daf’iy Marvaziy kabi yirik shoirlar shular jumlasidandir. XII asrda yashagan Ahmad ibn Mahmud Yugnakiy (tug‘. 1147-50 y.)

zamonasining o'qimishli va fozil kishisi, iste'dodli olim va shoir bo'lgan. Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") asari turkiy xalqlarning noyob adabiy yodgorligi sifatida qadrlidir.

Mintaqaviy tafakkur tarixida tasavvuf Yaqin va O'rta Sharq xalqlari diniy-falsafiy tafakkurining o'ziga xos qismi sifatida muhim o'rin tutadi. Buyuk mutasavviflar Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy, Mansur al-Xalloy, Abu Bakr Vositiy, Junayd Bag'dodiy, Abu Said Abul Xayr, Bobo Tohir, al-Hamadoni, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumiy bu tafakkur tarzini takomillashtirishga muhim hissa qo'shganlar.

Tasavvuf o'zining ruhiy kamolotga, ma'rifatga erishish, insoniylik, ezgulik, xalqparvarlikka chaqirish, haqsizlik va zulmni qoralash tamoyillarini IX-XI asrlarda ham, undan keyin ham susaytirmadi. Movarounnahrda tasavvuf an'analari Ibrohim Adham davridayoq oriflik va zuhd ko'rinishida mavjud bo'lib, Abu Bakr Vositiy (IX asr)dan boshlab turkiy tasavvuf tariqatlari vujudga kela boshlagan.

Yurtimizdagi eng nufuzli yassaviylik va naqshbandiylik tasavvuf tariqatlarining salaflari Xoja Ahmad Yassaviy (vaf.1166 y.), Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (vaf.1220 y.)lar Xoja Yusuf Hamadoni (vaf. 1140 y.) xalifalari bo'lganlar, so'ngra o'zlarining tariqatlarini tuzganlar. Ana shu asosda yassaviylik va naqshbandiylik tariqati vujudga keldi. Har ikki tariqat aqidaviy va amaliy jihatlariga ko'ra, bir biridan farq qilsa ham, xalqimiz tafakkuri rivojida muhim rol o'ynagan.

Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari turkiy adabiyotning noyob yodgorliklaridan bo'lib, islom dini, kalom falsafasi va tasavvufidan, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy tartib va muammolaridan, oddiy mehnatkash xalq hayotidan yaxshi xabardor ekanligidan guvohlik beradi. Yassaviy axloqiy falsafasining mazmunini bu dunyodan voz kechish emas, balki haq yo'lida jamiyatni fisqu fasod, kibru havo, razolat va nodonlikdan tozalashdan iborat bo'lgan intilish tashkil etadi. Yassaviy fikricha, inson hayoti qanchalik o'tkinchi, uqubatli bo'lmasin, komillikka intilishi kerak. Kamolot yo'lini tanlagan kishi vijdon ovozigacha quloq soladi. Ana shunda Yaratuvchining vasliga etishi, o'zini barcha nuqson va kamchiliklarni xalos etishi mumkin. Inson Allohga yaqinlashib borgani sari o'zidagi gunoh va kamchiliklarga qarshi qalbning botiniy murossasizligini chuqurroq va teranroq anglay boshlaydi.

Yurtimizda shakllangan falsafiy tafakkur rivojida Najmiddin Kubro (1145-1221) salmoqli o'rin tutadi. U tasavvufiy tafakkurning zabardast allomalaridan biridir. Najmiddin Kubro "Favoyih al-jamol va favotih al-jalol", "Al-usul al-ashara" va kabi qator asarlar yozib qoldirdi. U asos solgan Kubraviya tariqati tasavvuf falsafasining boshqa yo'nalishlaridan nafaqat insonni ruhiy-ma'naviy kamolotga olib boruvchi yo'nalish ekanligi bilan, balki inson ruhiy-ma'naviy olamining shakllanishi jarayonini bilishga e'tiborni qaratgani bilan tubdan farq qiladi. Kubraviya ta'limoti olam va odam to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi.

Mo'g'ullar bosqini arafasida va hukmronligi davri mintaqamiz tafakkuri tarixidagi qora kunlar bo'lib, ming yillardan beri rivojlanib kelayotgan an'analar, ma'naviy meros o'tda kuydirildi. Muhtasham qasrlar, shahar va qishloqlar vayron qilindi. Chingizxon yurishiga sabab sifatida 1218 yilgi O'tror voqeasidir. 1220 yili Buxoro, Samarqand, 1221 yili Urganch, Termiz qo'ldan ketgan. Xo'jand hokimi Temur Malik, Jaloliddin Xorazmshoh mardliklari nechog'lik yuqori bo'lishiga

qaramay, tashabbus qo‘ldan ketganligi bois urushda yutqazilgan. Chingizxon qo‘shinlari soni 200 mingga yaqin edi xolos. Madaniy jihatdan qoloq siyosiy kuch kurashda g‘olib chiqdi.

Jaloliddin xorazmshohlar taxti vorisi sifatida o‘z xonadoniga tegishli bo‘lgan erlarda hukmronlikni tiklashni maqsad qilib qo‘ygandi. U avval shimoliy Hindistonda, so‘ngra Kermon, Sheroz, Isfahon va Ozarbayjonda xorazmshohlar siyosatini tiklab, 1226 yili Tiflisni olgan. 1230 yili esa Kichik Osiyoning Janubiy – Sharqiy qismini zabt etgan.

Insoniyat tarixida shunday davrlar borki, unda buyuk ishlarga tayyor millatlar, o‘zining yo‘lboshchilari etakchiligida, tarixning muayyan qisqa bosqichlarida ming yillarda qo‘lga kiritish mumkin bo‘lgan natijalarga erishganlar. Aynan ana shunday davrlar insoniyat tarixiga shu millatga mansub buyuk kishilarning o‘chmas nomini bitadi, jahon madaniyatini boyitadi, umumbashariy taraqqiyotga katta hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Mo‘g‘ullar istilosi va asorati vatanimizga qanchalik vayrongarchilik keltirmasin, mag‘rur ajdodlarimiz iste’dodi, bunyodkorlik dahosini so‘ndira olmagan. Sivilizatsiyaga qaqshatqich zarba berilishiga qaramay, xalqimiz vayron bo‘lib, kuli ko‘kka sovurilgan shaharu qishloqlar o‘rnida fusunkor me‘moriy binolar, tarixiy obidalar, ko‘rkam arxitektura yodgorliklarini bunyod etganlar.

Ko‘hna Urganchda qad ko‘targan, balandligi 62 metr bo‘lgan ulug‘vor minora XIII asrning noyob yodgorligi hisoblanadi. Islom olamining etuk olimlaridan biri, Shayx Sayfiddin Boxarziy (vafoti 1258 y.) nomi bilan Buxoroda barpo etilgan maqbara va unga tutash binolar majmui ham o‘rta asr me‘morchiligining go‘zal namunasi. Samarqanddagi Shohizinda, Buxorodagi Bayonqulixon, Ko‘hna Urganchdagi Najmiddin Kubro, To‘rabekxonim, Xo‘janddagi To‘baxonim maqbaralari XIV asrning nodir me‘moriy yodgorliklari bo‘lib, bu davrda ilm va ma‘rifat yirik hunarmandchilik va savdo markazlarida avj olgan.

Buxorodagi “Ma’sudiya” va “Xoniya” madrasalarida minglab tolibi ilm tahsil ko‘rgan. XIII asr ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida fan va adabiyot, asosan mo‘g‘ullar hukmronligi o‘rnatilmagan viloyatlar – Kichik Osiyo, Janubiy Eron va Hindistonda taraqqiy etgan. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida yana adabiy, ilmiy muhit markazi mintaqamizga ko‘chgan.

Sufiylik ta’limoti, ilmi nujum, tarixshunoslik sohalarida zabardast olimu fuzalolar etishib chiqqanlar. Ular yaratgan o‘lmas asarlarda o‘sha zamonning muhim muammolari, tarixiy voqealar, hodisalar tafsilotlari bayon etilgan yoxud sharhlab berilgan.

Naqshbandiylik tariqati chuqur bunyodkorlik ruhi bilan sug‘orilgan, bu ta’limot “Dil ba yor-u dast ba kor” shiorini o‘ziga qoida qilib olgan. Unda imon-e’tiqod, ilohiy qoidalar bilan birga dunyoviy g‘oyalar, insonparvarlik, axloq-odob qoidalari mujassamlashgan.

4-mavzu. O'RTA ASRLAR VA YANGI DAVR OVRO'PASIDAGI FALSAFIY FIKRLAR (2 soat)

Reja

- 1. Rim imperiyasining qulashi va Ovro'pada yagona milliy mafkuraning tanazzuli. O'rta asrlarda Ovrupa madaniyati. Nominalizm va realizm, apologetika, patristika va sxolastika g'oyalari.**
- 2. Renessans davri falsafiy tafakkuri. Ovro'pada XV-XVII asrlarda ijtimoiy-siyosiy hayot va yangi zamon falsafiy tafakkuri. Rim falsafasi: J.Bruno, N.Kopernik, F.Bekon, T.Gobbs qarashlari.**
- 3. XVII asr Ovrupa falsafasidagi ratsionalizm. XVIII asr ma'rifatchiligi: Volter, Russo, Lametri, Didro, Gelvetsiy, Golbax.**
- 4. I.Kant - nemis falsafasi namoyandasi. V.Gegel – nemis mumtoz falsafasi asoschisi. Keyingi falsafiy oqim va g'oyaviy jarayonlar.**
- 5. O'rta va yangi davr Ovrupa falsafasini o'rganishning hozirgi davrdagi ahamiyati.**
- 6. Renessans davri falsafiy tafakkuri. Yevropada XV-XVII asrlardagi ijtimoiy - siyosiy o'zgarishlar va yangi zamon falsafiy tafakkurining shakllanishi.**
- 7. Italiya falsafasi. XVII asr Yevropa falsafasidagi ratsionalizm. XVII asr fransuz falsafasi va ma'rifatchiligi. Nemis milliy falsafasi, uning tarixiy ildizlari.**
- 8. O'rta va yangi davr Yevropa falsafasini o'rganishning ahamiyati.**

Qo'llanadigan ta'lim texnologiyalari. Mavzu zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi. O'rganishning hamkorlik modeli, namoyish etish, "Aqliy hujum", "baliq skeleti", B/B/B jadvali, bahs-munozara, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usulidan foydalanish.

Evropada o'rta asrlar feodalizmining qaror topishi falsafiy tafakkur taraqqiyotida yangi davr boshlanishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda din dunyoqarash va mafkuraga aylanib, antik falsafa, ilm-fan, san'at, siyosat, huquqshunoslik, umuman, qadimgi sivilizatsiyadan yuz o'girildi. Bu davr falsafasida ikki jarayon ro'y berdi. Xristianlik dini shakllanib, davlat dini va mafkurasi darajasiga ko'tarildi, insoniyat tafakkurining barcha sohalari, jumladan, falsafa ham cherkov aqidalariga moslashtirildi. O'rta asrlarga kelib inkvizitsiya (inquisition – tekshiruv, qidiruv) ustivor yo'nalishga aylandi. Inkvizitsiya katolik cherkovining erkin fikrlarga, Papa hokimiyatining g'oyaviy dushmanlariga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan maxsus sud muassasasi bo'lib, xristianlikning sofliğini saqlash g'oyasini mutlaqlashtirilib, ko'plab olim, yozuvchi, ziyolilar mavjud siyosiy tizim va cherkov inkvizitsiyasining qurboni bo'lganlar. Jumladan, J.Bruno (1600), L.Vanini (1619) tiriklayin olovga tashlangan. 1835 yilga qadar davom etgan inkvizitsiya oqibatida yuz minglab kishilar

gulxanda kuydirilgan. Din bilimning barcha sohalarini, shu jumladan, falsafani ham o'ziga buysundirdi. Petr Domiani iborasi bilan aytganda, "falsafa ilohiyot xizmatchisi"ga aylanib qoldi. Bu falsafa sxolastik falsafa degan nomni oldi. Xristianlar orasida adashib qolgan diniy safsatabozlar va faylasuflarga qarshi kurash davomida xristian yozuvchilari o'zlariga apolegetlar (yunoncha apologiya – himoya) nomini oldilar. O'z asarlarida xristianlikning afzalliklarini himoya qildilar. Ulardan biri Kvint Pertulion (160-220) bo'lib, falsafa bilan xristian dini ta'limotini bir-biri bilan kelishtirish mumkin emasligi, xristianlikning ijtimoiy funktsiyasi u yoki bu tarzda falsafiy almashtirishga muhtoj emasligi, shu tufayli mohiyatan falsafaga zaruriyat yo'q ekanligini isbotlashga urinadi. "Xristiandan so'ng hech qanday bilimga ishtiyoqning keragi yo'q. Evangeliedan so'ng hech qanday tadqiqotning keragi yo'q. Apologentlar izidan borib patristika oqimi rivojlandi. Ular eretiklarga qarshi kurashda o'z hissalarini qo'shib, o'zlarini muqaddas sanab cherkov otasi nomini oldilar. G'arbdagi eng ko'zga ko'ringan cherkov otalaridan biri Avreliy Avgustin (354-430) bo'lib, falsafiy tafakkur markaziga xudoni qo'ydi: Xudo eng buyuk ne'mat va oliy mohiyatdir. Uning fikricha, ma'naviy hayot asosida aql emas, erkinlik turadi. Sxolastik ta'limotni bir yaxlit tizimga keltirgan, katolik cherkovining piri deb rasmiy e'lon qilingan Foma Akvinskiy dunyoning mavjudligi xudoga bog'liqligi, xudo birinchi sabab ekanligini aytib, xudoning mavjudligini narsalarning mavjudligidan keltirib chiqarishga harakat qiladi va o'z qarashlarini Arastu falsafasidagi mazmun va shakl o'zaro munosabati haqidagi ta'limot bilan mustahkamlaydi. Bu davr falsafasining qiyofasi gnostika, dualizm, apologetika, sxolastika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar ta'limotida aks etgan.

Gnostika (gnosis – bilim) milodning 150 yillarida vujudga kelgan va keng tarqalgan diniy-ilohiy ta'limot bo'lib, xristianlik yunon falsafasi bilan qorishib ketgan. Gnostiklar har jihatdan mukammal bo'lgan Xudoning mavjudligini tan olib, xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa tabiatining ruhiy jihati bilan Xudoga moslashgan, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat bir-birini taqozo etadi. Gnostiklar xudoni bilishning va o'z-o'zini anglashning mistik vositalarini ko'klarga ko'tarib, aqliy bilishga salbiy munosabatda bo'lganlar. Gnostiklarning dunyo moddiy boyliklari va huzur-halovatlaridan o'zini haddan tashqari tiyish, diniy va axloqiy kamolotga erishish kabi asketik qarashlari o'rta asrlarda zohidlik, monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Misrlik Valentin va suriyalik Vasilid gnostika oqimining yirik vakili bo'lib, 354 yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qilinishi gnostikaning asosiy yutuqlaridan biridir.

Dualizm (duo – ikki) gnostikaning asosiy yo'nalishi bo'lib, bu oqim vakillari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara borligini e'tirof etib, materiya hamma vaqt yovuzlik timsoli ekanligi, Xudo moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, degan qarashni ilgari surganlar. Dualizmning yirik vakili R.Dekart fikricha, ikki substantsiya materiya va ruh yonma-yon mavjud bo'lib, Xudoga bo'ysunadi. Cheksiz va abadiy bo'lgan tabiat inson tafakkuriga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi va rivojlanadi. Nemis mumtoz faylasufi I.Kant ham dualist bo'lib, uning fikricha, ideal narsa (inson ongi) bilan bir qatorda hodisalarning ob'ektiv asosi bo'lgan "narsa o'zida" ham mavjuddir, lekin "narsa o'zida"ni bilib bo'lmaydi.

Apologetika (apologetikos – himoya qilish) Rim imperiyasi parchalanib, oʻrta asrlar Gʻarbiy Evropa sivilizatsiyasi vujudga kelguncha oʻziga xos oʻtish davri sodir boʻlib, maʼnaviy va mafkuraviy vaziyat murakkablashgan sharoitda xristianlikni inson va jamiyatni maʼnaviy poklikka, ruhiy kamolotga olib boruvchi taʼlimot ekanligini asoslash va bu taʼlimotni himoya qilish ehtiyoji tugʻilganda yuzaga keldi. Xristian apologetlari oʻz eʼtiqodlarini himoya qilishga, xristian falsafasi asoslarini yoritishga, davlatning xristianlikka dushmanligini bartaraf qilishga qaratilgan maktublar, vaʼzlar, risolalar yozdilar. Bu apologetik tafakkur tarzi va anʼanasini keltirib chiqardi. Apologetlar xristianlikni ayblovchi ateizm, dabdabalik, Xudog qarshi xatti-harakatlar kabi ayblarni inkor qilish bilan birga xristianlikning pokligini tasdiqlab, yahudiylilik va mushrik (koʻp xudolik)larni tanqid qildilar va xristianlika qoʻyilgan ayblarning hech bir dalilga asoslanmaganligini taʼkidladilar. Ulardan biri falastinlik Flaviy Iustin boʻlib, imperatordan xristianlikka munosabatini qayadan koʻrib chiqishni soʻrab “Birinchi apologiya”, keyinroq “Ikkinchi apologiya”sini yuboradi. Flaviy Hudoni inson aqli bilan olingan bilim orqali bilib boʻlmasligi, ilohiy borliq haqidagi ishonchli bilim manbai vahiy ekanligini eʼtirof etadi. Apologetlarning yana bir vakili Tertullian fikricha, aqliy mulohaza va drnishmandlik eʼtiqod oldida biror maʼno va imkoniyatga ega emas. Faylasuflar bir fikrni anglab etmagandirlar: haqiqat bitta, u ilohiy haqiqatdir. Inson aqli uni hech qachon ifoda qila olmaydi. Barcha falsafiy maktablar haqiqatdan keyin paydo boʻlgan. Haqiqat Xudodan, falsafa va diniy bidʼat iblisdandir. Xristianlarni taʼqib qilingani sari ularning miqdori oshib boryapti, demak, cherkovni taʼqib qilayotgan davlat qoidalari shubhalidir. Falsafa real hayotdan ajralib sxolastika (ital. “sxola” – shkola)ga aylantirildi.

Oʻrta asr falsafasining yirik namoyandalari asosan buyuk din arboblari islohiyotchilari boʻlib, monastrlar madaniyat va maʼrifat markazlari hisoblangan. Falsafa fan sifatida oʻz mustaqilligidan mahrum, diniy rasm-rusm va qoidalar har qanday tafakkurning boshlangʻich nuqtasi va asosi boʻlib qolgan, yunon falsafasining ilgʻor anʼanalari unutilgan, Aflotun va Arastuning taʼlimotlari diniy aqidalarni asoslash maqsadida turlicha talqin etilgan. Tabiatni oʻrganish, hurfikrlilik gunoh hisoblanib, inkvizitsiya (cherkov sudi) buyrugʻi bilan jazoga tortilgan.

Oʻrta asrlarda Gʻarbiy Evropada diniy-sxolastik falsafa rivojida bir-biriga qarama-qarshi nominalizm va realizm oqimlarining oʻziga xos oʻrni bor. Diniy mafkura hukmron mavqeni egallach, falsafa realistlar va nominalistlarning turli nazariyalari oʻrtasidagi gʻoyaviy kurash asosida rivojlandi. Realizm tarafdorlari umumiy “universaliya”lar real narsadan oldin va ulardan tashqarida yashaydilar, deb hisoblasalar, nominalistlar aksincha, ayrim buyumlar borligini eʼtirof etib, “universaliya”larni inkor etdilar. Ular umumiy gʻoyalar faqat inson fikrida mavjud boʻladi va umumiy tushunchalar sifatida yashaydi, deb taʼlim berganlar. Realistlar fikricha, umumiy tushunchalar obʼektiv mavjud boʻlib, mustaqil mohiyat sifatida tabiatdagi ayrim narsalarga va kishilarga nisbatan birlamchidir. Moddiy olamning ayrim va yakka predmetlari esa ikkilamchidir. Realizmning yirik vakillari Foma Akvinskiy va Anselm Kenterberiyiski (1033-1109)dir.

Oʻrta asr Gʻarbiy Evropa sxolastik falsafasining yirik vakili italiyalik faylasuf va islohiyotchi Foma Akvinskiy (1225-1274) rasmiy katolik dini mafkurasini atroflicha ishlab chiqqan. Mutafakkir Aristotel falsafasi orqali xristian dini aqidalarini

ilmiy-falsafiy jihatdan nazariy asoslagan holda shaklni birlamchi, moddiy narsalarni uning ijodiy mahsuli deb hisoblagan. Foma Akvinskiy fikricha, falsafa va dinning maqsadi Xudoning mavjudligini isbotlashdir. Dunyoda turli shakllar bor, jon ham ana shu shakllardan biridir, jon birlamchi, o'lmaz shakl bo'lib, tana jondan ajralishi bilan halok bo'ladi. Olam makonda cheklangan va zamonda o'z nihoyasiga ega bo'lib, faqat ilohiy kuch bilangina harakat qiladi va mavjud bo'la oladi. Tabiatdagi narsa va hodisalarni sezgilar vositasida bilish mumkin bo'lsa ham, olamning mohiyati, ya'ni Xudoni bilishdan ko'ra uni sevish muhimroqdir. Foma Akvinskiy umumiy tushuncha (Xudo) birlamchi, tabiatdagi narsalar ikkilamchi deb izohlab, ijtimoiy tengsizlikni Xudoning irodasi bilan bog'lagan holda cherkovni nazariy jihatdan mustahkamlashga harakat qildi va Papaning huquqini Xudoning huquqi bilan tenglashtirdi.

Foma Akvinskiy o'rta asr sxolastik falsafasi va ilohiyotshunosligini mustahkamlashga harakat qildi. XIX asrning 70-yillariga kelib, Foma Akvinskiyning falsafiy nazariyasi, ya'ni tomizm katolik cherkovining rasmiy falsafasi sifatida qabul qilindi.

Moddiylik va ideallik o'rtasidagi kuchli kelishmovchilik hamda ziddiyat realistlar (yunon. "haqiqatda isbotli") va nominalistlar (yunon. "nom", "ism") o'rtasidagi bahsda yaqqol ko'zga tashlanadi. Realistlar umumiy tushunchalar (universalliylarni) yakka narsalarga bog'liq bo'lmagan holda mavjud ekanligini pirovard natijada uning xudo bilan bog'liq ekanligini e'tirof etadilar. Bundan butun borliq ilohiy mohiyatini namoyon bo'lishidan iborat degan xulosa kelib chiqadi. A.Kentberinskiy (1033-1109) umumiy mohiyat sifatida ifodalanuvchi abadiy yagona xudo real mavjuddir deydi.

Moddiy olamdagi barcha narsalar shu umumiy mohiyatdan kelib chiqqandir. Tabiatdagi turli-tumanlik xudoning ijodkorlik qudratining namoyon bo'lishidir. Nominalistlar bunga qarama-qarshi mavqeda turadilar. Ular umumiy tushunchalar (universalliylar) yakka narsalarga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lishi mumkin emas deb uqtiradi. Ularning fikricha, umumiy tushunchalar yakka narsalarning nomlaridir. Masalan, nominalist Rostselin (1050-1112) fikricha, umumiy tushunchalar hissiy narsalarni belgilashi u yoqda tursin, umuman mavjud emasdir, umumiy tushunchalar odamlar tomonidan yakka, alohida narsalarga beriladigan nomlardir. Faqat yakka alohida narsalar mavjuddir, tabiatdagi alohida narsalar, ularning xususiyatlari real va birlamchidir, umumiy tushunchalar esa ikkilamchidir.

XVII-XVIII asrlar G'arbiy Evropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu davr Evropa mamlakatlarida o'rta asrchilik feodal munosabatlari tugatilib, kapitalistik munosabatlar to'liq qaror topadi va rivojlanadi. Kapitalistik ishlab chiqarish ehtiyoji tabiatni, insonning o'zini, jamiyatni ilmiy o'rganish, bilishni taqazo qiladi va uni o'rganishni tezlashtiradi. Dengizlarda savdo munosabatlarning o'sishi kemasozlikning rivojlanishiga, kemalarda Er shari bo'ylab ilmiy ekspeditsiyalarning uyushtirilishi, yangi erlar, yangi qit'alarni ochilishiga olib keladi. Yangi geografik kashfiyotlar qilinadi. Natijada, tabiatshunoslik bilimlari, mexanika, matematika, fizika, ximiya, astronomiya sohalarida yangi-yangi tadqiqotlar olib borilib, o'rta asr sxolastikasi va diniy aqidalarni uloqtirib tashlanadi. Yangi ilmiy dunyoqarash shakllana boshlaydi. Nemis olimi Keplerning sayyoralarining harakati qonunlarining ochishi, ingliz olimi Isaak Nyutonning olamning tortilish qonunlarining kashf etishi,

ingliz faylasufi F.Bekon tomonidan insonning dunyoni bilishdagi muhim o‘rin egallovchi induktiv metodni ishlab chiqishi, fransuz olimi Rene Dekartning inson bilimining hosil bo‘lishiga oid deduktiv metodni asoslab berishi asos bo‘la oladi. Bu davr falsafasida metafizik va metamexanistik materializm qaror topdiki, bu F.Bekon, Jon Lokk, T.Gobbs fransuz faylasuflari R.Dekart, Lametri va Gelvetsiy qarashlarida o‘zining yorqin ifodasini topdi.

Ingliz olimi Rojer Bekon (1214-1294) esa falsafani ayrim fanlarning tadqiqot natijalarini yakunlaydigan umumiy nazariy fan deb hisobladi. Bu yangi davrda tabiatni bilishga intilishning kuchayishi natijasida falsafada empirik va ratsionalistik oqimlar vujudga kelgani bois, empirik oqim asoschisi F.Bekon tabiatni bilishning manbai tajriba, eksperiment, kuzatishdir. Inson sezgi a‘zolari orqali tabiat to‘g‘risida hosil qilingan faktlar, dalillar va ma‘lumotlarni tajriba orqali tekshirishi, aniqlashi, undagi hato va kamchiliklarni bartaraf etish zarur. Shu asosda insoning tabiat haqidagi to‘g‘ri, to‘liq bilimlari hosil bo‘ladi, deb uqtirgan.

Uyg‘onish termini G‘arbda Renessans tushunchasi bilan ifodalanib, uni ilmiy iste‘molga birinchi bo‘lib italyan mutafakkiri I.Vazzari kiritgan. Bu davrda astronomiya, matematika, mexanika, fizika, jug‘rofiya, fiziologiya sohasida ilmiy izlanishlar kuchaygan. Ana shunday sharoitda o‘rta asr sxolostikasini inkor etuvchi, inson aql-zakovatini ulug‘lovchi falsafiy qarashlar vujudga kela boshladi. XIV va XVI asrlar G‘arbiy Ovrupa Uyg‘onish davrini uchga bo‘lish mumkin:

1. Ilk uyg‘onish davri (XIV asr)
2. O‘rta uyg‘onish davri (XIV-XVI asr)
3. So‘nggi uyg‘onish davri (XVI va undan keyingi asrlar)

Uyg‘onish davrining yirik vakili Nikolay Kuzanskiy fikricha, Xudo tabiatni va insonni yaratgan eng oliy va mutlaq borliqdir. Ayni vaqtda tabiat makondagi cheksizligi va vaqtdagi abadiyligi bilan xudoga o‘xshashdir. Uning fikricha, “Barcha narsalar Xudoda bo‘lgani kabi Xudo barcha narsalardadir”. N.Kuzanskiy o‘z qarashlarida inson masalasiga ham katta e‘tibor beradi.

Uyg‘onish davrining birinchi sotsiologi N.Makiavelli (1469-1527) egoizm, moddiy manfaatdorlik inson faoliyatining asosidir, degan g‘oyani ilgari suradi: “Odamlar ota-onasining o‘limini yo‘qotgan mol-mulkiga nisbatan tezroq unutadilar”. “Podshoh” asarida davlatning kuch-qudratini qonun tashkil etishi lozimligi, bunga erishish uchun turli yo‘llardan foydalanish mumkinligini bayon qiladi. “Qudratli davlat tuzmoqchi bo‘lgan hukmdor bir qancha, jumladan, sher va tulki xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak”.

Ingliz gumanisti va davlat arbobi Tomas Mor (1478-1535) “Utopiya” asarida xalqning azob-uqubatda yashayotganligini chuqur kayg‘u bilan yozar ekan, buning asosiy sababini mulkiy munosabatlardan qidiradi. Xususiy mulkni kishilik jamiyatning asosi, deb bilgan Makiavellidan farqli, Mor uni ijtimoiy zulmning bosh sababi deb ko‘rsatadi.

Italiyalik faylasuf va sotsiolog Tomazzo Kompanello (1568-1639) “Quyosh shahri” asarida odamlar jamoa bo‘lib yashashishi kerakligi, jamoa manfaati uni tashkil etgan a‘zolari manfaatidan yuqori turishi lozimligini bayon qiladi. “Quyosh shahri”da tasvirlangan jamiyatda ham “Utopiya” dagi singari xususiy mulk

bo'lmaydi, ammo mehnat bu erda takomillashgan: qo'l mehnati o'rnini texnika egallagan: mehnat majburiyatdan ehtiyojga aylangan.

Polyak astronomi Nikolay Kopernik (1473-1543) olamning geliotsentrik sistemasi nazariyasini yaratdi. Unga ko'ra, olamning markazi Quyosh bo'lib, uning atrofida boshqa sayyoralar bilan bir qatorda Er ham aylanib turadi.

Nemis astronomi Iogan Kepler (1571-1630) geliotsentrizm nazariyasidan kelib chiqib, sayyoralar holatini kuzatish asosida sayyoralar harakatining uch qonunini kashf qildi. Bu Kopernikning Quyosh sistemasi tuzilishi manzarasining aniqlashtirishga va butun olamning tortishish qonunini kashf qilinishiga imkon berdi.

Italiya olimi Jordano Bruno (1548-1600) fikricha, butun olam tuproq, havo, suv, olov va efirdan iborat, Er bilan osmon olamning fizikaviy yakka jinsligini tasdiqlaydi. Moddiy olam birlamchi bo'lib, ong ikkilamchidir: moddiy olam mangu, u hech qanday Xudo tomonidan yaratilgan emas: bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmaydi: u cheksizdir: moddiy olam cheksiz turlarda ifoda etiladi, lekin bu cheksiz narsa va hodisalar bir-biri bilan o'zaro aloqada, birlikdadir. Quyosh sistemasidan tashqari yana sanoqsiz dunyolar mavjud, dunyo – bepoyon, moddiy olam uning kichik bir qismidir, er esa bepoyon olamning zarrachasidir.

Italyan olimi Galileo Galilei (1564-1642) olamdagi barcha narsa va hodisalar moddiy asosga ega, olam benihoya, materiya abadiy, tabiat yagona bo'lib, mexanika qonunlariga bo'ysunadi, deb tushuntirgan. Galilei Qadimgi yunon mutafakkiri Demokritni ustoz deb tan olib, olamdagi narsa va hodisalarning moddiy asosini atom tashkil qiladi, degan g'oyani qo'llab-quvvatlagan. Galilei "inson o'z ongida tabiat qonunlarini bilishga qodir, kuzatish, tajriba tabiatni bilishning boshlang'ich nuqtasi, hodisalarning ichki mohiyatini bilish bilishning oliy bosqichi, bilish jarayoni esa hissiy va aqliy bilimdan iborat" degan va ilmiy tajribaga asoslangan matematik usulning asoschisi sifatida mexanika va astronomiya sohasida muhim dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan bir necha ilmiy kashfiyotlar qilgan. Uning kashfiyotlari geliotsentrik nazariyaning to'g'riligi, olamning cheksizlik g'oyasi, er va inson jismlarining moddiy jihatdan bir-biriga o'xshashligi, tabiatning mavjud qonunlari va ularni bilish mumkinligini isbotlagan.

XVII-XVIII asrlarda G'arbiy Evropada savdo munosabatlarining rivojlanishi kemasozlik taraqqiyoti, yangi shaharlarning paydo bo'lishi bilan bir qator fanlarning ehtiyoji, xususan, astronomiya, matematika va mexanika singari fanlarning ehtiyojini kuchaytirdi. N.Kopernikning geliotsentrik nazariyasining ta'siri tobora kuchaydi, Kepler planstalarining harakat qonunini ochdi, Galileyning mexanika nazariyasi vujudga keldi. Nyuton mexanikaning asosiy qonunlarini ochdi. Tabbiyot fanlaridagi bu kabi ilmiy yutuqlar yangi dunyoqarashni vujudga keltirdi, asosan feodalizm tuzumining kirib kelish davri bo'ldi. Bu davrda tabiatni ilmiy bilish protsessi tez o'sdi. XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib G'arbiy Evropada, xususan, Frantsiyada bu yangi ilmiy dunyoqarash shunday edi-ki, u asosan falsafa va burjua siyosiy qarashlari o'rtasida o'z aksini topdi. Bu kurash 1789-1794 yillardagi burjua inqilobida yaqqol ko'rindi. Inqilobni tayerlashda fransuz faylasuf va ma'rifatparvarlari Volter, Jan Jak Russo, Didro, Lametri, Gelvetsiy, Golbax muhim rol o'ynadilar. Ular din va sxolastikaga asoslangan falsafaga hamda Frantsiyadagi sotsial siyosiy tartiblarga qarshi keskin kurashdilar. Bu davrda mexanika,

matematika, astronomiya kabi fanlar bilan birga meditsina, fiziologiya, biologiya singari fanlar ravnaq topdi. Bu esa materiya va harakat to'g'risidagi tasavvurlarning kengayishiga yordam berdi. Fransuz faylasuflari inglizlar ta'limotidagi biryozlamalikni bartaraf etdilar, biologik va ijtimoiy hodisalarni mexanika qonunlari asosida isbotlashga va tushuntirishga harakat qildilar. Materiyaning bo'linmas va o'zgarmas atomlardan iborat ekanligini e'tirof etib, uning fizikaviy ta'rifini berdilar. Ularning fikricha, insonning sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi barcha narsalar materiyadir. Golbax fikricha, materiya jismlarning turlicha qo'shiluvchidan iborat, u abadiy, bordan yo'q va yo'qdan bor bo'lmaydi. Materiya tabiatdan tashqaridagi kuchga muxtoj emas, u bepoyondir.

Fransuz faylasuflari dinni har jihatdan tanqid qilib, dinning paydo bo'lishi kishilarning tabiat kuchlari oldidagi ojizligi, ilmsizligi va nodonligi deb hisobladilar, "xudo odamni emas, balki odam xudoni yaratgan" din kishilar ongini zaiflashtiradi, ijodiy qobiliyatini susaytiradi va xurofat kuliga aylantiradi, deb yozdilar.

Lametri "Odam – mashina" asarida insonni "mahorat bilan yasalgan mexanizmdir, uning organizmini mexanikaga tayanib o'rganish kerak" degan g'oyani ilgari surgan. Gelvetsiy esa "kishi fazilatlarini muhim va tarbiya mahsulidir" deb yozgan. Fransuz ma'rifatparvarlari sezgilar bilish manbai ekanligini, bilish ob'ektiv borliqning kishi ongida aks etishi ekanligi asoslash bilan tafakkurning bilishdagi roli va ahamiyati ham kayd etdilar.

Yangi ilmiy dunyoqarash XVI-XVIII asrlarda Angliyada ham tez taraqqiy etdi, fan davrga mos ravishda rivojlandi. Frensis Bekon sxalostikaga qarshi hujum boshladi. Uning fikricha, "falasafaning asosiy predmeti – materiya va uning tizimini o'rganishdir". Olam moddiy: materiya, tabiat – birlamchi, inson ongi ikkilamchidir. Materiya boshlang'ich kuchga va qonunga ega, u barcha predmet va hodisalarning asosi va bosh sababidir. Materiyaning miqdori doimiydir, u kamaymaydi va ko'paymaydi, hech narsa yo'qdan bor va bordan yo'q bo'lmaydi. Materiya buzilmas shakllarga ega, shakl esa materiyaning sifat aniqligidir, moddiy shakllar zichlik, siyraklik, sovuqlik, og'irlik, issiqlik kabi turlicha harakatlanuvchi oddiy sifatlarning moddiy ifodasidir. Bekon tabiat mohiyati va qonunlarini bilish mumkinligini inkor etuvchi Platon g'oyalarini tanqid qildi va birinchi bo'lib "bilish – kuchdir" degan g'oyani o'rta qo'ydi. Uningcha, tabiat bilish manbai – tajribadir, sezgi orqali tabiat to'g'risida yig'ilgan dalillarni tajriba orqali tekshirish, aniqlash, kamchiliklarni to'ldirish zarur.

Tomas Gobbs mantiqshunos, matematik, estetik, davlat va huquq nazariyachisi bo'lib, sxalostikaga uzil-kesil zarba berdi. Olam materiyadan, jismlar yig'indisidan iboratligi, olamda jismoniy sababdan boshqa narsa yo'qligi, olamdagi hamma narsa va hodisalar borliqning turli shakllardagi ifodasi ekanligini ta'kidladi. Gobbs fikricha, olam moddiy, borliq esa mangudir, lekin ayrim jismlar vaqtinchadir, chunki ular vujudga keladi va yo'qoladi. Olam birlamchi, ong, tafakkur ikkilamchidir. Materiya va uning zarrachalari hajm, shakl va mexanik harakat kabi xususiyatlarga ega bo'lib, ular uzunlik, tenglik va bo'yga egadir. Demak, bor bo'lish miqdor, shakl, hajmga ega bo'lishdan iborat.

Gobbs bilish jarayonlarini chuqur tahlil etib, bilishning sezgidan boshlanib, aql va tafakkurda davom etishi va yakun topishini e'tirof etgan holda sezgilarni

mexanistik manoda tushundi. Uningcha, sezgi obektiv reallikni subektiv obrazi, nerv sistemasining xizmati emas, balki tashqi moddiy zarrachalarning organizmdagi harakatidan iboratdir.

XVII asrning eng yirik mutafakkiri frantsiyalik Rene Dekart (1596-1650)ning falsafiy qarashlari dualistik xarakterga ega bo'lib, olamning asosida ikkita, bir-biridan mustaqil, birlamchi sabablar, moddiy substantsiya, "fikrlovchi substantsiya" yoki xudo yotadi, degan qarashni ilgari surgan. Uningcha, olam materiyadan iborat, materiya esa mangu va cheksizdir. Dekart olamning oxiri bor, deb davo qiluvchi sxolastikaga qattiq zarba berdi. Greklarning "atom bo'linmas" degan fikrini noto'g'ri, "materiya korpuskulalardan iborat, korpuskulalar (moddiy zarrachalar) so'ngsiz bo'lina beradi" deb o'zgartirdi. Uning talimoticha, materiyaning mohiyati uning hajmida, moddiy zarrachalar doim harakatda, harakat esa predmetlarning o'rin almashinuvidan iboratdir. Materiya va harakat doimiy, ular yo'qolmaydi.

Dekart sezgi a'zolari va ularning faoliyatiga ishonmadi. Uningcha, ko'z, quloq, til, badan va burun tashqi dunyo to'g'risida noto'g'ri xabar beradi. Dekart ta'limoticha, bilishning manbai ham, bilimlarimizning haqiqatlik o'lchovi ham – tafakkur, aqlidir. "Madomiki hamma sezgilarimiz shubhali ekan, demak, mening shubhalanishimgina shubhasizdir. Bundan "Men fikrlayapman – demak mavjudman" degan mashhur ibora vujudga keldi.

Spinoza (1632-1672) gollandiyalik buyuk olim bo'lib, uning falsafiy sistemasi markazida "moddiy substantsiya" tushunchasi yotadi. Uning fikricha, moddiy substantsiya hech narsaga, hatto xudoga ham muhtoj emas. Spinoza Dekart qarashlaridagi dualizmni qat'iy rad etdi va dunyoning asosida faqat bir substantsiya yotishini etirof qildi. Uning fikricha, tabiatda ikki substantsiyaning bo'lishi mumkin emas, bir substantsiya ikkinchisining sababi bo'la olmaydi. Substantsiya cheksiz va doimiy bo'lib, uning yaratilishi ham, yo'qotilishi ham mumkin emas. Substantsiya o'zidan tashqarida mavjud bo'lgan qandaydir tashqi kuch bilan bog'langan emas va o'z oldiga maqsad ham qo'ya olmaydi, bu jihatdan tabiatdan farq qilmaydi, balki tabiatning o'zidir. Spinoza o'zining materialistik qarashlarini panteizm bilan niqobladi. Uningcha, substantsiya – moddiy olamning o'zidir. Biroq, substantsiyani u xudo deb biladi. Spinozaning xudosi esa mohiyati bo'yicha tabiatning o'zidir. Spinoza fikricha, bilish jarayoni uch bosqichdan iborat, moddiy dunyo ta'sirida vujudga kelgan sezgi va hislarga asoslanuvchi tasavvurlardir. Haqiqiy bilishning asosi aqlidir.

XVII asr Angliya falsafasining yirik namoyandasi Jon Lokk (1632-1703) sxolastikaga qarshi kurashda muhim rol o'ynadi, tug'ma g'oyalar haqidagi nazariyani tanqid qildi. Xudo g'oyasi noaniq va chalkash, deb hisobladi. Uning ta'kidlashicha, kishilar bilimi va turli-tuman g'oyalarning manbai hissiy tajribadir. Barcha bilim va g'oyalar tajriba va sezgilarni kelib chiqqanidir. Inson tayyor tug'ma g'oyalarga ega bo'lmaydi va ega bo'lishi ham mumkin emas. Uning ta'limoticha, turli sharoitda yashovchi kishilarda narsa va hodisalar, yaxshi va yomon to'g'risidagi tushunchalar, bilimlar ham turlicha bo'ladi, chunki bu bilimlar turli sharoitda tashqi dunyoda olingan, bor narsalarning obrazidir. Lokk sensualizmining mohiyati ham aynan mana shundadir.

Leybnits (1646-1716) o'zining substantsiyalarining ko'p xilligi haqidagi ta'limotini o'rtaga qo'yadi. Leybnits fikricha, substantsiyalar xilma-xildir. Leybnits ularni monodalar deb ataydi. Monadalar oddiy bo'lib, moddiylik xususiyatiga ega emas, shuning uchun unga qo'lamlik yotdir, agar monadalarga sezgilar xos bo'lsa, ular jonlar deb ataladi. Monadalarga aql xos bo'lsa, ular ruhlar deb ataladi. Monodalar o'z faoliyatlarini aniq va ravshan ifodalash darajasiga ko'ra bir-birlaridan farqlanadilar.

Yangi davr falsafasida XVIII asr fransuz mutafakkirlarining falsafiy fikri taraqqiyoti fransuz ma'rifatparvarlar harakati bilan bog'liqdir. Ular ichida eng ko'zga ko'ringan vakillari Volter, Didro, Lametri, Gelvetsiy, Golbax edilar. Ular "hamma narsalar – materiyadir" degan qarashni ilgari surganlar. Fransuz faylasuflari harakatni materiyaning ajralmas xususiyati deb ta'kidlagan holda, harakatni tushunishda mexanistik darajadan yuqori ko'tarila olmadilar. Ular harakatni predmet yoki hodisalarning fazoda oddiy o'rin almashuvidan iboratdir, deb tushundilar.

Falsafiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan nemis mumtoz falsafasining vakillari I.Kant (1724-1804), G.Xegel (1770-1831) va L.Feyerbax (1804-1872) dir.

Nemis mumtoz falsafasining asoschisi I.Kant zamonasining dolzarb nazariy muammolari bilan shug'ullangan, dialektika g'oyalarini qayta tiklagan mutafakkirdir. Kant fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Bu uning "Osmonning umumiy tabiiy tarixi va nazariyasi" kitobida yaqqol ifodasini topdi. Kant o'zining tabiiy-ilmiy qarashlari bilan tabiatning metafizik tarzda tushunishga chek kuydi. Kantning falsafadagi xizmati shundaki, u dialektik g'oyalar masalasini kundalang qilib qo'ydi. Oqil fikr dialektikaga xos ekanligini yaxlit tushundi.

Nemis mumtoz falsafasining eng yirik vakili F.Xegel barcha mavjud narsalarning asosida mutlaq g'oyaning (mutlaq ruh ham deb ataladi) rivoji yotadi, deb uqtiradi. Xegel falsafiy tizimni (sistemasini) yaratib, mutlaq g'oya o'zining boy mazmunini moddiy olam-tabiat va jamiyat sifatida ifoda etishini ko'rsatar ekan, avvalo, olam uzluksiz taraqqiyotda ekanligini qayd etadi. Dialektik tafakkur uslubini va uning asosiy qonunlarini tadqiq etish bilan Xegel falsafiy fikr taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shdi.

Nemis mumtoz falsafasining so'nggi vakili L.Feyerbax tafakkur, ongni ikkilamchi, materiya tabiatning mahsulidir, deydi. Feyerbax Xegel falsafasini tanqid qilar ekan, uning dialektikasini ko'ra olmadi. Lekin Feyerbax ta'limoti falsafaning keyingi taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Feyerbax falsafada antropologik yo'nalish tarafdori bo'lib, inson tabiatning bir qismi, uning gultoji, shuning uchun dunyodagi hamma narsa insonga xizmat qilmog'i lozimligi, falsafaning mavzusi inson va uning faoliyati bo'lmog'i, din insonga uning vafotidan keyingi dunyo haqida yo'l ko'rsatmog'i, falsafa unga shu dunyoda qanday yashashi kerakligini ko'rsatmog'i lozimligini ta'kidlagan.

Nemis mumtoz falsafasida K.Marks (1818-1883) va F.Engels (1820-1895) falsafasi uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Marks va Engels falsafiy qarashlari shakllanishida nemis mumtoz falsafasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, Marks mehnatkash xalqning ozodligi uchun kurashni nazariy jihatdan asoslab berishga qaratdi, falsafaga "kishilarni ma'naviy ozod qilish vositasi" deb qaradi. Marks jamiyatni aql bilan boshqarish kerakligini ta'kidladi va falsafani o'z davrining

ma'naviy kvintessentsiyasi (eng birinchi mohiyati) deb atadi. Agar Gegel tafakkur, g'oya taraqqiyoti to'g'risida gapirgan bo'lsa, Marks bu g'oyaning iqtisodiy sababi borligi, chunonchi, g'oyalar ijtimoiy munosabatlar asosida paydo bo'lishi, yangi dunyo amaliy faoliyat, inqilobiy harakat bilan amalga oshirilishi, inson yuksak qadriyat ekan, uni ozod qilish kerakligini ta'kidlaydi. Marks fikricha, inson davlatdan, bir-biridan begonalashar ekan, bu begonalashishning iqtisodiy sababi bor.

1. Ishchi moddiy ne'matlar yaratish uchun mehnat qilar ekan, natijasi unga tegmaydi, unga begona, huzurini boshqalar ko'radi.

2. Mehnat jarayoni ishchilar uchun og'ir va majburiy, undan zavqlanmaydi, charchaydi, toliqadi, chunki mehnat qilishga majbur, ishlash yoki ishlamaslikni tanlay olmaydi, u mehnat jarayonidan tashqarida ozod bo'lib, o'z erki bilan ish qiladi.

3. Mehnat sababli ishchi o'z tabiatidan ham uzoqlashadi. Tabiat bilan bevosita aloqada bo'lmaydi, faqat mehnat vositasi, predmeti orqali munosabatda bo'ladi.

4. Mehnat odamlarni bir-biridan uzoqlashtiradi. Ishchilarni bir-biriga begona qilib qo'yadi.

Mehnatdan begonalashuv ijtimoiy munosabatlarning ham asosidir, chunki bu jarayonida ishchilar nafaqat o'z mohiyatidan uzoqlashadi, balki begonalashadi ham. Inson mohiyati begonalashadi va u tovar ishlab chiqarishga qaratiladi. Marks fikricha, uning sababi xususiy mulkchilikda. Xususiy mulkchilik insonni mohiyatidan uzoqlashtirib, qashshoqlashtiradi, uning kuchini qo'shimcha qiymat sifatida oldi-sotdiga aylantiradi. Marks iqtisodiy munosabatlarni tekshirishda ham, tarixiy jarayonni o'rganishda ham dialektik metodni qo'lladi. Marks va Engles dialektikani jamiyat taraqqiyotiga tadbiquetdilar. Jamiyatni bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tuvchi tarixiy jarayon sifatida o'rgandilar. Ular ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya haqidagi ta'limotlarida jamiyatni besh bosqichga bo'ldilar. Marksizm ta'limoti, dunyoqarashi tobora rivojlanib, sho'rolar davri hukmron mafkurasiga aylantirildi. Xar qanday boshqa qarashlar unga qarama-qarshi quyilgan holda talqin qilindi.

Marks falsafasining ijobiy tomonlari, insoniyat falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan hissasini to'g'ri va haqqoniy baholash zarurki, Marks kapitalistik ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni har tomonlama tahlil qilib, iqtisodiy nazariyaning asoschisi sifatida tanildi. Marksning qo'shimcha nazariyasi ishlab chiqarish, fan-texnika taraqqiyotining ma'lum darajasi nuqtai nazaridan to'g'ri baholanganligi, bu nazariyaning butun jahon iqtisodchilari tomonidan tan olingani va bugun ham, undan unumli foydalanilayotgani haqiqatdir. Shunga qaramay, Marks ta'limotidagi ba'zi jihatlarni aytish lozim. XX asr falsafasidagi juda katta o'zgarishlar yuz berishi natijasida Marks, Engles dialektik materializmining mutlaqlashtirilishi totalitar mafkuraga xizmat qilishini ko'rsatdi. Marksning revolyutsion ta'limoti ham, jamiyat to'g'risidagi qarashlari ham bir yoqlama ekanligi ayon bo'ldi. Marksning dinga, xususiy mulkka bo'lgan munosabati ham o'ta salbiy ekanligi ma'lum.

XX asr falsafasi turli oqim va yo'nalishlar ko'rinishida rivojlandi. Hozirda pragmatizm, maxizm, ekzistentsializm, neopozitivizm, neotomizm, fizikalizm, germenevtika, sinergetika, fenomenologiya, tanqidiy ratsionalizm, falsafiy antropologiya kabi falsafiy oqimlar, postpozitivizm, neokantchilik, neogegelchilik singari davrga moslashuvchan yo'nalishlar faoliyat ko'rsatmoqda.

XX asrda keng tarqalgan oqimlardan biri pragmatizm (yunon. “pragmatos” – “ish”, “xatti-harakat”) bo‘lib, asoschisi amerikalik faylasuf Charlz Pirsdir. Pragmatizm falsafasining tub mohiyati foydali faoliyatga undovchi, foydaga erishish yo‘llari va usullarini targ‘ib etib, muloxaza yuritishga da‘vat etuvchi ta‘limotdan iborat bo‘lib, “foydali” pragmatizmida “tajriba”, “amaliyot” tushunchalari bilan aynanlashtiriladi. Pragmatizm amerikacha ijtimoiy-madaniy turmushning in‘ikosidan iborat bo‘lib, AQSh iqtisodiy, ma‘naviy ehtiyojlari uchun xizmat qiladi va ularning manfaatlarini ifodalaydi. Pragmatizm erkin bozor iqtisodiyoti falsafasidir. U har qanday biznesni, har qanday “foydali” faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda metodologiya bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa pragmatizmning amerikalik biznesmenlar, ishbilarimonlar, menedjerlar, sarmoyador va siyosatdonlar orasida keng tarqalishiga zamin bo‘lgan.

Ekzistentsializm (latin. “ekzistents” “mavjudlik”, “mavjud bo‘lmoq”) inson haqidagi falsafadir. Rossiyada paydo bo‘lib (Berdyayev, Shestov), birinchi jahon urushidan so‘ng Germaniyada keng tarqalgan (Xaydegger, Yaspers). Ekzistentsializm o‘z mohiyatiga ko‘ra, XX asr ma‘naviy ehtiyojlariga javob tarzida shakllangan, tushkunlik, parokandalik, ayni paytda ko‘tarilish va texnologik taraqqiyot oqibatlari ekzistentsializm falsafasida o‘z ifodasini topgan. Ekzistentsializm murakkab va ziddiyatli falsafa bo‘lib, turli falsafiy oqimlarga xos unsurlar mujassamlashgan.

Bu ta‘limot markazida “mavjudlik” kategoriyasi turadi. Kishining hayoti davomida hayot va o‘lim oralig‘ida boshdan kechiradigan ichki kechinmalari, ruhiy holatlari tadqiq etiladi. Falsafaning vazifasi “insonga borliqda mavjud bo‘lishi”ning mohiyatini tushuntirib berishdan iboratligi qayd etiladi. Ekzistentsializm voqelikka subektiv munosabatda bo‘lishdan iborat. Borliq ekzistentsialist fikricha, subektning o‘z mavjudligini his etishidir. Inson o‘z ekzistentsiyasi, ya‘ni mavjudligini chuqur ma‘naviy ziddiyat, ruhiy tushkunlik holatida anglay oladi. “O‘lim” mavjudlikning so‘nggi nuqtasidir. Inson o‘zining iroda kuchi, qat‘iy tartib-intizomi orqali ichidagi yovuzlikni engishi, ruhiy yuksalishi, hayotiy jo‘shqinlikka erishishi, ilohiy mohiyatni anglashi mumkin.

Neotomizm o‘tgan asrda paydo bo‘lgan, XX asrga kelib keng tarkalgan, XIII asr italyan faylasufi Foma Akvinskiyning diniy-falsafiy ta‘limotini tiklashga urinuvchi ta‘limotdir. Neotomizmning ma‘naviy homiysi Rim katolik cherkovidir. Rim papasi neotomizmni katolik cherkovining rasmiy mafkurasi deb ham e‘lon qilgan. Neotomizm Angliya, Italiya, Frantsiya, Ispaniya, Polsha, Skandinaviya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida keng tarqalgan. Neotomizmning asosiy vakillari Frantsiyada E. Jilson, Mariten, Italiyada U. Padovani, F. Oldjati, K. Fabro, Germaniyada A. Demar, I. Lots, M. Grabman, V. Brugger kabilardir.

Neotomizm ta‘limotiga ko‘ra, ilm va diniy e‘tiqod birlikda, hamjihatlikda bo‘lishi lozim. Diniy e‘tiqod va ilmiy bilimlar birlashsa bir-birlarini to‘ldiradi, din va fan aslida bir maqsadga yo‘naltirilgan ikki yo‘ldir. Maqsad deganda neotomistlar Yaratuvchini bilishni nazarda tutgan. Har qanday e‘tiqodning manbai Tangrining amridir. Inson aqliy bilishining manbai esa uning tafakkuridir. Butun borliqning, jumladan, insonning ham yaratuvchisi Tangri bo‘lgani bois, uning tafakkuri ham yaratuvchi tomonidan hadya etilgan. Demak, inson aql-zakovatining tub maqsadi – Tangrining irodasini, uning marhamatini anglash, uni bilishdir. Falsafa ham ana shu

maqsadga erishishga yordam beradi. Neotomistlar fikricha, “Falsafa – ilohiyotning xizmatkoridir”. Neotomistlar moddiy reallik bilan birga ruhiy reallik ham mavjudligi, ilmiy bilishning chegarasi, tabiatdagi narsa va hodisalar olami ekanligi, diniy aqidalar ilmiy bilish uchun qorong‘u narsaligi, diniy akidalar ilmiy bilishdan yuqori turishi, inson aql-zakovati Tangrini bilishga qodir emasligi, inson faqat Tangri yaratgan moddiy olamni bila olishini ta’kidlaydilar.

Neopozitivizm asoschisi avstriyalik mantiqshunos va fizik Morits Shlik (1892-1936) bo‘lib, XX asrning 20-yillarida shakllangan. Neopozitivistlar fikricha, bilishning chegarasi “tajriba” orqali ma’lum bo‘ladi, shuning uchun “empirizm” deyiladi. Ular Max, Pirson kabi mutafakkirlarning qarashlarini asos qilib olganliklari uchun “pozitivizm”, XX asr “mantiqiy tafakkur”da ro‘y bergan inqilobiy yangiliklarga e’tibor qaratganliklari bois “mantiqiy”, faqat ilmiy metodlar to‘g‘riligini tan olganliklari uchun “ilmiy” degan tushunchalardan asos sifatida foydalanishadi.

Neopozitivizm falsafasi “mantiqiy pozitivizm”, “lingvistik tahlil”, “konvetsionalizm va fizikalizm” nomlari bilan mashhurdir. Neopozitivizm ta’sirida kibernetika, genetika, semantika, avtomatika, telemexanika, kompyutersozlik kabi fan sohalari rivojlandi. Inson aqliy faoliyatini modellashtirish va formallashtirish muammolari gnoseologiya kun tartibiga qo‘yildi va ularni hal etish yo‘llarini ochib berishga ko‘maklashdi. Gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasida matematikalashuv, formallashuv kabi bilish usullaridan foydalanish singari ijobiy an‘analarga asos bo‘ldi. Ijtimoiy-siyosiy qarashlarida neopozitivistlar gumanizm, demokratiya g‘oyalarini yoqlab, avtoritar xokimiyat, totalitar davlatni tanqid qildilar. B.Rossel izchil ravishda tinchlik va demokratiya uchun kurashgan bo‘lsa, K.Popper totalitarizmga qarshi kurashib, sovet tuzumi davridagi “yopiq jamiyat”ni, qatag‘onni o‘z vaqtida keskin tankid qilgan edi.

Germenevtika (yunon. “izohlayman”, “tushuntiraman”) afsonaviy yunon xudosi Germes nomidan olingan, ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli paydo bo‘lgan muammolar taqozosidan kelib chiqqan falsafiy oqimdir. XX asrga kelib inson tafakkuri taraqqiyotida ulkan muvaffaqiyatlarga erishildi. Inson makrodunyo qonunlaridan mikrodunyo qonunlarini ochishga kirishdi. Voqelikni o‘rganishning yangicha me’yor va usullari ilmiy bilish sohasida keskin qo‘yildi. Kibernetikaning paydo bo‘lishi bir qancha lingvistik, mantiqiy, mexanik, psixologik, texnik muammolarni keltirib chiqardi.

Taraqqiyotning tadrijiy tamoyilini asos qilib olgan sinergetika – o‘z-o‘zini boshqarish, nochiqli hodisalarni o‘rganish, o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish nazariyasi, olamni yangicha izohlaydigan, murakkablikni o‘rganadigan, tabiiy va ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, evolyutsiyaga borliqning umumiy qonuni, inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlar ifodasi sifatida qaraydi, ya’ni inson bilan tabiat, inson bilan inson o‘rtasidagi munosabatlar asosida ziddiyat emas, balki o‘zaro mushtaraklik, uyg‘unlik va hamkorlik yotadi. Sinergetika “chiziqsiz” tafakkur usuli bo‘lib, unga ko‘ra, taraqqiyot oldindan belgilab qo‘yilgan yo‘ldan ketmay, har bir narsaning ichki xususiyati va tashqi aloqadorligi negizida har safar yangi va betakror yo‘ldan borishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, XX asr falsafasi mazmun mohiyati va shakliga ko'ra rang-barang bo'lib, o'ziga xos bir rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Unda asrning yutuqlari, muvaffaqiyatlari bilan birga, muammolari va ziddiyatlari ham aks etgan. Jahon taraqqiyotining yangi asr arafasidagi hozirgi burilish davri falsafa fani oldiga ham bir kator dolzarb muammolar echish zaruriyatini kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida qo'yimoqda. XX asr insoniyat tarixida alohida sahifa bo'ldi, jamiyat rivojida ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar borasida misli ko'rilmagan yutuqlarga erishildi. Kishilar tafakkur taraqqiyotida noan'anaviy usullar qo'llanilishi oqibatida ulkan dunyoqarash o'sishi ro'y berdi. Fanning ishlab chiqarish bilan bog'liqligi kuchayib, texnika va texnologiyaning keskin takomillashuviga olib keldi. Bir paytlar ertaklar va afsonalarda tasvirlangan buyumlar (oynai jahon, uchar gilam, tezyurar etik, po'lat qo'l) asr so'nggida kishilar turmush tarzining oddiy elementiga aylandi. Sun'iy moddalarni sintez qilish, genetika sohasidagi muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Bularning barchasi inson aqli, tafakkuri, imkoniyatlari cheksiz ekanligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda insonga mikroduyo hodisalari, hujayralar olami, koinot sirlari ayon, ularning ko'pchiligini jilovi inson qo'lida. Elektronika, kibernetika, texnologiya va avtomatika sohasidagi yangiliklar asrning mo'jizasi bo'lib qoldi.

Fanning keskin rivoji inson ongiga o'z navbatida bir kator falsafiy muammolarni ham qo'ydi. XX asr, ayniksa, ijtimoiy siyosiy hayotda ruy bergan hodisalar e'tiborga sazovorligini ta'kidlash bilan birga, ulkan tarixiy voqealar bashariyatning ma'naviy hayotida aks etgani, shu bilan birga ko'plab muammolar yuzaga kelib, ularning echimini topish inson zimmasiga tushishi, insonni chuqurroq o'ylashga, teranroq tafakkur qilishga undayotganini e'tirof etish joiz. XX asr falsafiy qarashlari rivoji ham ushbu chuqur o'zgarishlarni o'zida aks ettirib, davrma-davr o'z zamonini ruhini ifodalagan holda rivojlanib kelyapti. Masalan, marksistik falsafa hukmron mafkura bo'lganida barcha falsafiy ta'limotlar ana shu falsafa mezoni bilan o'lchanib, to'g'rilik, ilmiylik va izchillik darajalari belgilanadigan bo'ldi. Falsafa ham o'zining fanlik mohiyatini yo'qotib, mafkura quroli vazifasini bajardi. Ijtimoiy taraqqiyotdagi turg'unlik falsafada ham turg'unlik holatini, xilma-xil falsafiy qarashlar shakllanishining bo'g'ilishi holatini keltirib chiqardi.

XX asrning 80 yillarida ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotdagi vaziyat tubdan o'zgardi. O'zini oklamagan kommunistik mafkura tamoyillari, markscha-lenincha falsafa haqiqiy hayotdan yiroq, dogmatik qarashlardan iborat ta'limot ekanligi ochiq-oydin e'tirof etildi. Sobiq Ittifoq parchalanib ketdi, u bilan uning mafkurasi va falsafasi ham yo'qqa chiqdi.

O'zbek xalqi ham boshqa hamdo'stlik davlatlari kabi mustaqil taraqqiyot yo'lini tanladi. Mamlakatimizda tub yangilanish davri boshlandi. Binobarin, tarixiy taraqqiyot endi istiqbol ruhiga mos bo'lgan erkin zamon falsafasini, bir paytlar yo'l berilmagan milliy g'oya, milliy mafkura va qadriyatlar ustivor bo'lgan jahon falsafasining tarkibida o'zining munosib o'rni bo'lgan yangi falsafani shakllantirish zaruriyatini kun tartibiga qo'ydi.

Falsafa tarixi, Sharq falsafasi, "nomarkscha" G'arb falsafasini o'rganish, tahlil etish va tadqiq etish – bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoldi.

5-mavzu. OLAM VA ODAM: FALSAAFIY TALQIN

(2 soat)

Reja

- 1. Olam va fanning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi haqida hozirgi zamon falsafasi fikrlari.**
- 2. Olam va odamning mavjudligi va yashashi bilan bog'liq muammolar - falsafaning asosiy masalasi, olam to'g'risidagi monistik, dualistik va plyuralistik qarashlar hamda ularning bugungi kundagi ahamiyati. Olam tushunchasi. Olamning diniy, ilmiy va falsafiy manzarasi. Olamning namoyon bo'lish shakllari: moddiy, ma'naviy, tabiiy, ijtimoiy, individual va boshqalar.**
- 3. Olamni anglashda inson ongi va ruhiyatining o'rni. Ong – voqelikni anglashda oliy in'ikos sifatida.**
- 4. Tabiat tushunchasi, uning falsafiy mohiyati. Ekologik muammolar va ularning falsafiy talqini. Ekologik ong va mas'uliyat – yoshlar kamolotining tarkibiy qismi sifatida.**

Qo'llanadigan ta'lim texnologiyalari. Mavzu zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi. "Muloqot" trening, namoyish etish, "Aqliy hujum", "Muammoli vaziyat", bahs-munozara, dialog va savol-javob usulidan foydalanish.

Olam – insonni o'rab turgan dunyo haqidagi keng qamrovli tushuncha, voqelikning ifodasidir. Masalan, elementar zarrachalar olami tushunchasi insonga ma'lum bo'lgan va hali ma'lum bo'lmagan barcha elementar zarrachalarni qamrab oladi. Agar butun koinotni elementar zarrachalardan tashkil topgan deb hisoblansa, bu tushuncha butun koinotni ham aks ettirishi mumkin. Olam deganda barcha narsalar, voqea-hodisalar, jarayonlarni qamrab oluvchi umumiy tizim anglashilsa ham, nisbiydir. Masalan, o'simliklar olami tushunchasiga faqat nabobot olami kiradi, hayvonot olami va inson olami bundan mustasno. Shu nuqtai nazarga ko'ra, olam tushunchasi nisbiy mohiyatga ega.

Olamni ilmiy bilish olamga yangicha munosabat, yangicha qarashni taqozo etadi. U olamni diniy, badiiy, axloqiy, siyosiy bilishdan farqlanadi. Voqelikka ilmiy munosabatda bo'lish va har qanday voqea-hodisani ob'ektiv baholash olamni to'g'ri talqin qilishga yo'l ochadi. Falsafa ilm-fan yutuqlariga tayangan holda, olamning yangicha manzarasini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Qadimgi sharq jahon madaniyati va sivilizatsiyasining beshigi bo'lgani, dastlabki ilmiy bilimlar sharq mamlakatlarida vujudga kelgani, ilmiy bilimlarning vujudga kelishi kundalik hayotiy ehtiyoj, ijtimoiy munosabatlar, mehnat bilan bevosita bog'liq. Ilmiy bilimlarning shakllanishi va rivoji insonning olamga ongli munosabatini vujudga keltirdi. Mutafakkirlarning tabiat-inson-jamiyat birligi haqidagi falsafiy qarashlari hikmat, masal, hikoyat va rivoyatlar, afsonalarda aks etgan. Qadimgi yunon mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi sharq mutafakkirlari

faoliyatida yangi bosqichga ko'tarilib, yangi bilimlar vujudga kelishiga zamin yaratdi. Sharqda ilmiy bilimlar diniy aqidalarni inkor etmagan holda, aksincha, diniy bilimlardan ozuqa olgan holda inson kamoloti, borliqni aql va tafakkur kuchi bilan bilishga asoslangan bo'lib, ilmiy bilishning yangi usullaridan foydalanilgan.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy qarashlari Ovro'pa ilm-fan rivoji va taraqqiyoti uchun ahamiyat katta kasb etgan. Shu o'rinda Ma'mun akademiyasi faoliyati, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Marvaziy, al-Forobiy, al-javhariy, Jurjoni, al-Xammor, Abu Rayhon Beruniy, as-Saolibi, Abu Ali ibn Sino, ar-Roziy kabi sharq allomalarining ilmiy merosini eslash o'rinli.

Tabiatshunoslik fanlaridagi kashfiyotlar (evolyutsion nazariya, hujayra nazariyasi, energiya saqlanish va bir turdan boshqa turga aylanishi qonuni), optika, termodinamika, elektr, magnetizmning o'rganilishi, Mendeleev davriy sistemasining kashf etilishi, analitik geometriya va matematik analiz fanlarining vujudga kelishi olamga munosabatni o'zgartirdi. Ayniqsa, I.Nyuton kashfiyotlari tabiat va jamiyatning mexanistik manzarasini yaratishga, Ch.Darvinning turlarning kelib chiqishi haqidagi qarashlari olam evolyutsiyasi, olamning yaxlit birligi, organik va noorganik tabiat hamda jamiyatning o'zaro bog'liqligi haqidagi falsafiy qarashlarning shakllanishiga olib keldi. R.Dekart tomondan ilmiy bilish usullari orqali fanning buyuk o'zgartiruvchilik va yaratuvchilik qudratining falsafiy asoslanishi keyingi davr fan metodologiyasi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Jadidlarning ilm-fan va ma'rifatni rivojlantirish haqidagi g'oyalari va harakat dasturlari, Turkiston o'lkasida islohot ishlarini olib borish va aholini fan-texnika yutuqlaridan bahramand qilish kabi yuksak orzu-niyatlari o'sha davrda progressiv ahamiyat kasb etgan.

Mustabid tuzum davrida ilm-fan va zamonaviy texnika rivojlangan bo'lsa ham, sho'ro mafkurasi tazyiqi bilan ajdodlar an'analari, ular yaratgan ma'naviy merosdan bahramand bo'lish imkoniyati bo'lmadi va bu keyinchalik xalq ma'naviyati va axloqida tanazzulga, e'tiqodsizlik va kishilar ongida mafkuraviy bo'shliqning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Mustaqillik tufayli jahon ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo'lish, ajdodlar merosini o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun mamlakat ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon andozalari talablari darajasida mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ydi.

Hozirgi zamon fani o'zining o'rganish sohalarini kengaytirib, mikroolam, makroolam muammolarini o'rganishga kirishdi. Fan taraqqiyoti milliy doiradan chiqib, fan yutuqlari insoniyat mulki sifatida anglashildi, olamdagi narsa va hodisalarning ma'lum qonun va tartib asosida ro'y berishi haqidagi qarashlardan farqli, rivojlanish tartib va tartibsizlik birligidan iborat ekani e'tirof etildi. Fanning insonparvarlik, taraqqiyparvarlik va tinchlikparvarlik mohiyati namoyon bo'ldi. Fan taraqqiyotida an'anaviylik va yangilanish tamoyili ilgari surildi. Qadriyat va qadr-qimmat mezonlari keng targ'ib etildi. Fan umumbashariy va umuminsoniy muammolar echimini hal etishning oqilona yo'llarini taklif etdi. Fanlarning differentsiatsiyalashuvi va integratsiyalashuvi jarayoni kuchaydi, yangi fan sohalarini vujudga keldi, insoniyat istiqboli uchun ahamiyatli bo'lgan kashfiyotlar uchun zamin yaratildi. Shuningdek, fan inson hayotidagi muammolar echimini topish bilan birga,

uning hayotiga jiddiy xavf soladigan muammolarni ham keltirib chiqardi. Insoniyat hayotiga rahna soladigan ilmiy izlanishlar, inson ustida tajriba o'tkazishni ta'qiqlash va nazorat qilish hozirgi zamon fanining muhim muammolaridan bo'lib qoldi.

Tabiat benihoya xilma-xil shakl va ko'rinishlari bilan insonni qurshab turgan moddiy olam, butun mavjudotdan iboratdir. Tabiat tushunchasi borliq tushunchasidan farqli bo'lib, muayyan bir chegarada, ya'ni inson va insoniyat mavjudligining tabiiy sharoitlari yig'indisi sifatida ishlatiladi. Insonning tabiatga munosabati uning faoliyatida namoyon bo'ladi, shunga ko'ra, tabiatga munosabatning o'zgarishi, o'z o'rnida, insoniy faoliyatning xarakteri, yo'nalishi va ko'lamining o'zgarishiga olib keladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrga kelib, tabiatga vahshiylarcha munosabatning kuchayishi unga juda katta zarar etkazdi va tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keldi. Natijada jamiyatning tabiatga bo'lgan oqilona munosabatini ta'minlash g'oyasi o'rtaga tashlandi. V.I.Vernadskiyning tabiatga bo'lgan yangicha qarashlar tizimini o'z ichiga olgan noosfera (yunon. aql-zakovat) nazariyasi yaratilib, tabiatni himoya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari ishlab chiqildi.

V.I.Vernadskiy noosferani biosferaga o'xshash moddiy tuzilma, deb hisoblaydi. Ilmiy tafakkur va inson mehnati bilan biosfera yangi holatga - noosferaga o'tadi. Vernadskiy uchun noosfera er yuzida aqlli mavjudotning kelib chiqishi va inson ta'siri ostida vujudga kelgan kurrai zaminning moddiy qobig'idir. Noosfera biosfera rivojlanishining yanada yuqori bosqichi bo'lib, unga insoniyat jamiyati va u yaratgan barcha narsalar kiradi. Bu tushuncha jamiyat-tabiatning yaxlit tizimiga insonning yangicha yondashuvi bilan bog'liq.

Tabiat va jamiyatning o'zaro munosabati tarixi bir-biri bilan o'zaro bog'liq ikki yo'nalishga ega. Birinchisi, uzoq o'tmishdan boshlab, insonning tabiat ustidan hukmronligining me'yor va darajasi tobora kengayib borgan, ishlab chiqarish sohasida, mehnat unumdorligining sarf qiladigan moddalar va energiya tarkibi o'sa borish sur'atlari tezlashib borgan, hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti insonning global mas'shtabda tabiat ustidan mutlaq hukmronligini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar ochmokda; ikkinchidan, yuqoridagi jarayon bilan bir vaqtda inson bilan tabiat o'rtasida nomuvofiqlik to'xtovsiz o'sib bormokda, uning sifat jihatidan har bir bosqichi tabiatga yakson qiluvchi ta'sir ko'rsatib, inson mavjudligining zaminini emirmokda. Ana shuning oqibatida atrof-muhit bilan insonlarning o'zaro munosabati haqidagi fan – ekologiya paydo buldi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni asrash, ulardan oqilona foydalanish – bugunning oliyjanob va murakkab vazifasidir. Zero, atrof-muhitni muhofaza qilmasdan, xalqimizning moddiy farovonligi, turmush darajasini yaxshilash haqida gap bo'lishi mumkin emas. Inson o'zini o'rab turgan dunyo bilan to'la uyg'unlikda yashamog'i lozim. Tabiatni mag'lub qilmay, aksincha, unda ana shu uyg'unlikni topmog'i, uning qudratiga qudrat qo'shishi zarur. Tabiatdagi har bir o'zgarish, har bir yangilik inson farzandi qalbi, shuuri, ongiga ta'sir qilmasdan iloji yo'q. Azaldan inson tabiatning eng go'zal tomonlarini o'zlashtirishga, uning ulug'vorligidan ta'lim olishga intilgan. Inson mukammallik, uyg'unlik, go'zallikning oliy andozasini tabiatdan oladi.

Olam eng avvalo, tor ma'noda inson yashaydigan maskan, joy, vatandir.

Olam haqidagi diniy-kosmogonik qarashlarda olam Yaratuvchi qudrati bilan vujudga kelgan deb talqin etiladi. Bu olamning vaqtli boshlanishi borligiga va uning chekli ekanligi, nihoyasi ham borligiga ishoradir. Islom dinida inson yashayotgan olamdan tashqarida, uning ongi va tafakkuri darajasi bilan idrok etish imkoni bo'lmagan, faqat ayrim komil va majzub insonlarga namoyon bo'ladigan o'n sakkiz ming olam haqida so'z boradi.

Hozirgi zamon olam haqidagi qarashlarga ko'ra, olam o'tkinchi va tabiiy ravishda paydo bo'lgan, olamning paydo bo'lishidan oldingi holati "hech nima" va "yo'qlik" tushunchalari bilan izohlanadi. Olimlar vaqtning faqat kelajakka yo'nalgan oqimini ifodalovchi modeli vositasida asoslaydilar, ya'ni shimoliy qutb nuqtasidan turib qaraganda, hamma nuqtalar faqat janubga olib boradigan holatni eslatadi. Bunday holat olamning boshlang'ich holatidir. Vaqtning kelajakka olib boruvchi yo'nalishigina mavjud bo'lgan holati olamning boshlanishidir. Bu holatda o'tmish yo'q, faqat kelajak mavjud.

Olam haqidagi diniy tasavvurlar uning kelajagi, yaratilishi yoki o'tmishiga oid murakkab masalalarni ilohiy qudrat hosilasi sifatida talqin etadi. Dinda olamni "bu dunyo – o'tkinchi, foniy", "u dunyo" – abadiy, boqiy deb tushuntiriladi. Shunga ko'ra, yaxshi ishlar qilgan va komil axloqqa intilgan kishilar jannatga, diniy qonun shartlarini bajarmagan va axloqsizlik qilgan kishilar do'zah o'tida azoblanishi haqidagi qarashlar ilgari surilgan.

Fan olam to'g'risida o'ziga xos fikr yuritadi, ya'ni olamga oid murakkab masalalar amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga harakat qilinadi. Mavjud ilmiy mantiq doirasidan chiquvchi hodisalar izohlanmaydi.

Falsafa olamni izohlashda fanning, dinning, san'at, adabiyot, xullas, barcha bilimlarga tayanib, umumlashgan xulosa chiqaradi. Falsafadagi olam tushunchasi kosmologiyadgi, dindagi va boshqa fan sohalaridagi olam tushunchalariga nisbatan boyroq, sermazmun va kengroqdir.

Olamning namoyon bo'lish shakllari quyidagichadir:

Moddiy (fizik) olam – moddiy jismlarni qamrab olgan jismoniy olam.

Ma'naviy olam – insonning ma'naviy dunyosini qamrab oluvchi olam.

Ruhiy olam – insonning bilimi, tajriba va xayolotini o'z ichiga olgan keng qamrovli olam.

Dolzarb (aktual) olam – inson bilan birga birgalikda mavjud bo'lgan olam.

Potentsial olam – kelajakda mavjud bo'lish imkoniyati bor va bo'lishi mumkin bo'lgan olam.

Real (ko'rinib turgan) olam – insonning kundalik hayotidagi barchaga ma'lum bo'lgan olami, tan olingan hayoti.

Virtual (ehtimoliy) olam – kelajakda mavjud bo'lish ehtimoli bo'lgan olam.

Konkret (aniq) olam – aniq ma'lum bo'lgan olam.

Abstrakt (mavhum, tasavvurdagi) olam – xayol, tasavvur, idealdagi olam.

Individual (alohida shaxsga tegishli) olam – har bir insonning shaxsiy olami, kechinmalari, tuyg'ulari.

Ijtimoiy olam – jamiyat olami.

Qadimdan inson o'zining ongi, uning mohiyati va tabiati, ongning qanday paydo bo'lib, mukammallashgani, bevosita borliq bilan munosabatini anglashga

intilgan. Islom dinida ong Alloh tomonidan insonga in'om etilgan ne'mat deb ta'riflanadi. Abu Nasr Forobiy fikricha, inson o'lgach, uning ruhi o'lmaydi, jismdan ajralgan ruh yangi ruhlar bilan qo'shilib, yashashda davom etadi.

Ilmiy falsafa nuqtai nazarida ong yuksak darajada tashkil topgan materiya, ya'ni inson miyasining xossasi, ong yordamida voqelikni aks ettirilishi ta'kidlanadi. Ong inson miyasining xossasi va uning mohiyati voqelikni in'ikos ettirishdan iborat.

Ong faqat inson miyasiga xos bo'lgan in'ikos ettirish jarayoni bo'lib, inson miyasi ongning moddiy asosi hisoblanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, inson miyasi 14-15 mlrd.ga yaqin asab tolalaridan iborat ekan. Ularning har biri muayyan vazifani bajaradi. Olimlarning taxminicha, agar inson miyasidagi neyronlar – asab tolalari bajaradigan funktsiyalar modellashtirilganda, undan Moskva davlat universitetining binosiga teng bo'lgan kibernetik qurilma yasash mumkin bo'lardi. Inson miyasida voqelikni aks etishi jarayoni murakkab jarayon bo'lib, uning fiziologik asoslari I.Pavlov, Sochenov ta'limotlarida asoslab berilgan. Inson miyasi va asab tizimi sezgi a'zolari yordamida voqelikni aks ettirish xususiyatiga egadir.

Ma'lumki, ta'sirlanish, sezgilar voqelikdan tirik tabiatga, xususan, hayvonlarga ham xos bo'lib, insonning sezgi a'zolari ta'sirlanishdan hosil bo'ladigan in'ikosi hayvonlardan tubdan farq qiladi. Masalan, burgut insonga nisbatan ancha uzoqni ko'radi, biroq inson buyumlarda burgutga nisbatan, shubhasiz, ko'p narsani ko'radi, ularni bir-biridan ajratadi va bir butun holda ko'radi. Hayvonlarda ham ruhiyat mavjud. Fan inson bilan hayvonot dunyosi o'rtasida biologik-fiziologik ma'noda chegara yo'qligini e'tirof etsa ham, hayvonlardagi ruhiyat instinktlardan iboratligini ta'kidlash joiz. Instinkt – hayvonlardagi hayotiy tajribalar yig'indisidir. Ular mutlaqo o'zgarmas narsa emas, balki yangi instinktlar bilan almashinib turadi. Instinktda g'ayritabiiy sir yo'q, balki ular murakkab shartli bog'lanish (refleks)lardan iborat.

Hayvon ruhiyati bilan inson ongi va tafakkuri o'rtasida sifat jihatdan juda katta tafovut bo'lib, inson ongi vujudga kelishi va rivojlanishida mehnat hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Mehnat tufayli oddiy mehnat qurollarini yaratish va yasash zaruriyati bu evolyutsion jarayonda hal etuvchi rol o'ynagan. Inson mehnati uning ijtimoiy hayotini o'zgartira olishi va hattoki, qayta qurishiga qodir vosita ekanligi anglashildi. Mehnat insonning o'zini ham o'zgartirib bordi. Oqibatda, inson mavjudot sifatida ijtimoiy mohiyat kasb etib borgan sari mehnatsiz mavjud bo'la olmasligi ayon bo'ldi. Mehnat insonning kundalik zaruriy ehtiyojiga aylanib, ayni paytda insonning bebaho boyligi, uning yashashi va hayotining asosiy zamini, sharti bo'ldi. Kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy manbalarni yaratish jarayonida insonning ongi, tushuncha, tasavvurlari ham boyib, kengayib boradi. Inson o'z bilim va tajribasini kengaytirib, o'zidan keyingi avlodga etkazadi. Ong shu tariqa mehnat bilan tafakkurning birligi sifatida namoyon bo'ladi. Abu Rayhon Beruniy ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanishi, inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi, deb ta'kidlagan.

Mehnat inson ongini paydo qilgan, shakllantirgan va kamolga etkazgan asosiy omil, kishilarning mehnat faoliyati ularning ongli mavjudot sifatida rivojlanishining eng asosiy belgisidir.

Ongning shakllanishida ijtimoiy muhit omilining o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, har bir kishi muayyan ijtimoiy muhitda tug'ilib o'sadi va voyaga etadi.

Oila, mahalla, qarindosh-urug‘lar, o‘zaro fikr almashuv omillari kishilar ongi qaror topishida juda muhim bo‘lib, barchasi ongning ijtimoiy tabiatini shakllantiradi.

Muayyan ijtimoiy muhit ong paydo bo‘lishida zaruriy shartdir. Kishilar o‘zaro hamkorlikda umr kechirib, bir-birlari bilan doimiy muloqotda bo‘ladilar, fikr almashadilar. Bu esa kishilarning ongi, tushunchalari va dunyoqarashlarini shakllanishi va rivojlanishida katta o‘rin egallaydi. Agar muayyan davr mobaynida ijtimoiy muhit omili bo‘lmasa, ong paydo bo‘lishi mumkin emasligi ham aniq. Masalan, yoshligida taqdir taqozosi bilan hayvonot dunyosi muhitiga tushib qolishi natijasida ongi shakllanmay qolgan bolalarning topilganligi to‘g‘risidagi manbalar, badiiy asarlar ushbu fikrni tasdiqlaydi (Oqiljon Husanovning “Tog‘da o‘sgan bola” asari bunga yaqqol misol bo‘la oladi). Ong ob‘ektiv voqelikning inson miyasidagi sub‘ektiv in‘ikosi bo‘lib, unda tafakkurning ahamiyati beqiyosdir. Tafakkur miya yordamida ob‘ektiv olamni tushuncha, muhokama, nazariyalarda in‘ikos etishning faol jarayonidir. Tafakkur voqelikning inson miyasida mavhumlashgan, umumlashgan aks etishidir.

Tafakkur ijtimoiy taraqqiyot mahsuli bo‘lib, kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida paydo bo‘ladi va voqelikning mohiyatini mavhumlashtirish, tahlil qilish, umumlashtirish kabi usul va yo‘llar orqali tushuncha, g‘oya, nazariya kabilarda aks ettiradi.

Ong taraqqiyotida til va nutq muhim ahamiyatga ega bo‘lib, til fikrning ifodalash vositasi sifatida mehnat yordamida paydo bo‘lgan, ya‘ni mehnat jarayonida esa kishilar hamisha bir-biriga nimanidir aytish ehtiyoji, o‘zaro mehnat qilish zaruriyatini sezaдилar.

Til tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. Insonda nutq, til bo‘lmasa, fikrlash ham bo‘lmaydi. Nutq fikrlash qurolidir. Tafakkursiz til, til va nutqsiz tafakkur ham bo‘lmaydi. Til va tafakkur aynan bir xil narsalar emas. Tafakkur ob‘ektiv borliqning in‘ikosi bo‘lsa, til fikrning ifoda etish quroli, uning boshqalarga etkazib berish, bildirish, muloqot o‘rnatish vositasidir.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan til ham rivojlanib boradi. Kishilar fikr almashish imkoniyatidan mahrum bo‘lganda edi, o‘zlari uchun zarur moddiy boyliklarini ham ishlab chiqara olmagan, tabiat kuchlariga qarshi kurashda ham ojizlik qilgan bo‘lardilar. Shuning uchun til tafakkurning borliq shakli, tafakkur esa tilning mazmuni hisoblanadi. Tafakkur va ong inson miyasi mahsuli bo‘lib, ongni ham, miyani ham tafakkurdan ajratib bo‘lmaydi. Biroq, bunday ongni miya bilan bir deyish, ongni moddiylashtirish, materiyaning bir shakli va ko‘rinishi deb o‘ylash mutlaqo noto‘g‘ridir. Vulgar materialistlar (Moleshott, Byuxner, Fogt va bosh.) “jigar o‘z-o‘zidan safro (zardob) ayirgani singari miya ham ongni, fikr va tafakkurni ishlab chiqaradi” deb, ongni materiya bilan tenglashtirib, fikrni borliqning bir ko‘rinishi, deb hisoblaydilar.

Kibernetika fani taraqqiyoti natijasida turli boshqaruv tuzilmalari, boshqaruv jarayonlarini o‘rganuvchi kibernetik qurilma va mashinalar yaratildi. Ular yordamida inson miyasi bajaradigan funktsiyalar modellashtirilib, murakkab jarayonlarni boshqarishda keng qo‘llanilmoqda. Murakkab ishlab chiqarish jarayonlari, zamonaviy texnika va transport vositalari, xalq xo‘jaligining ko‘plab sohalari faoliyatini kibernetik mashinalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi: murakkab matematik

hisob-kitoblarni mohirlik bilan bajarayapti, turli tipdagi matnlarni boshqa tilga tarjima qilmoqda, shaxmat o'ynayapti. Bundan tashqari, ulardan turli ma'lumotlar olish va "esda saqlab kolish" da, kerakli ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida "xotira"sidan topishda foydalanilmoqda.

Kibernetika asosida inson tafakkuri imkoniyatlarini modellashtirish masalasini chuqur falsafiy tahlil qilish orqali ong bilan materiya o'rtasidagi munosabatlardagi ilmiy aloqadorlik mushiarakligini ko'rish mumkin. Kibernetik mashinalarning imkoniyatlari bilish imkoniyatlari cheksizligi nuqtai nazaridan chegarasi yo'q. Lekin kibernetik mashinalarning insondan "aqliroq" ekanligi muammosi munozaralidir.

Kibernetika faniga asos solgan amerikalik matematik olim N.Vinerning mashinalarning fahm-farosatga o'xshash xislati bo'lishi kerakligi to'g'risidagi fikrni aytgan edi. Akademik A.Kolmagarov ham ularning murakkab sistemalarda, masalan, tirik organizmlar va hatto inson miyasidek barcha asosiy xossalarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. Shuning uchun, uning fikricha, bu avtomatlarni shartli ravishda bo'lsa ham "tirik mavjudotlar" deb atash mumkin. Biroq fanda kibernetikaga nisbatan boshqacha fikr ham mavjud. Masalan, ruhshunos olim Pol Kossa fikricha, inson yaratgan "aqli" mashinalar inson ishtirokisiz hech narsa qila olmaydi. Mashina inson xohlagan holatda, ya'ni ajoyib qurol holatida qolaveradi. Mashinada fikrlash qobiliyati yo'q, u o'z ijodchisining fikrini aks ettiradi, u ong, anglash xususiyatidan butunlay mahrum.

Akademik A.Berg kibernetika sanoatida ham, fanda ham ijtimoiy hayotda ham inson o'rnini bosa olmaydi, hech qachon mashina jamiyatda mavjud bo'la olmaydi, deb ta'kidlaydi. Inson xotirasi murakkabligi, samaradorligi jihatdan mashina xotirasidan ancha ustun turadi. Kibernetik mashinaning "elektron miyasi" issiq, sovuq, namlik, silkinish, tebranish kabi ta'sirlarga chidamsiz bo'lgani holda, inson miyasi ularga nihoyatda tez moslashadi. Inson miyasi tejamli ishlash bilan birga, juda puxta sistemadir. Kibernetik mashinaning biron mexanizmi nosoz bo'lsa, butun mashina ishlash faoliyatini yo'qotadi.

Kibernetik mashinaga xos barcha ma'lumotlar uning ongini tasdiqlash uchun etarli emas. Aksincha, fan va texnikaning har qanday taraqqiyoti singari kibernetik mashinalar ham inson amaliy faoliyatining natijasi bo'lib, ular ob'ektiv borliq qonuniyatlariga bo'ysunadi. Fikr, sezgi, ong, ruhiy faoliyatga daxldor boshqa barcha narsalar inson miyasining xossasidir.

Kibernetik qurilma bilan inson miyasi o'rtasida katta tafovut bor. Inson miyasi kimyoviy, fizik, biologik, ijtimoiy qonunlarga bo'ysunadi. Inson jamiyatdan ajralgan holda yashay olmaydi. Inson ongi ijtimoiy munosabatlar doirasida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bularning barchasi kibernetik qurilmaning "aqli", "xotirasi" mazmuniga xos emas.

Demak, inson kibernetik qurilmani yaratdi, uni takomillashtirish ustida izlanmoqda. Ta'kidlash lozimki, inson yaratgan mashinalar inson ongining o'rnini bosa olmaydi, undan ustun ham bo'la olmaydi, chunki insonning o'zi bunday aqli mashinalarni yaratgani holda uni boshqaradi ham. "Aqli" mashinalar insonsiz dunyoga kelishi mumkin emas, inson boshqaruvisiz ular temir-tersak – "o'lik bir narsa"dir. Inson ongi faol ijodiy xususiyatga ega bo'lib, ma'lum bir maqsadga tomon yo'naltirilgan jarayondan iboratdir. Inson ongida voqelik aks etib qolmasdan, inson

amaliy faoliyati yordamida o'zgartiriladi, voqelikning rivojlanish qonunlarini bilishga harakat qilinadi. Inson o'z ongida borliqning sub'ektiv in'ikosini hosil qilar ekan, o'z-o'zini ham, o'zining maqsad va mafaatlari, ideallari, o'z ma'naviy qiyofasini ham anglab, o'zining borliqqa munosabatini bildiradi.

O'z-o'zini anglash ong bilan birga, insonning moddiy va ma'naviy faoliyati asosida, uning turmush tarzi davomida shakllanadi. O'z-o'zini anglash kishilarning barcha xatti-harakatlari uchun hisob berish, o'z faoliyatlarini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlash, ularni ma'qullash, tasdiqlash yoki rad etish kabilarda ifodalanadi. O'z-o'zini anglash yordamida insonda o'z-o'ziga ishonch paydo bo'ladi, uning xarakteri shakllanadi.

Insonning o'zini sub'ekt sifatida o'z bilishini o'ziga qaratishi o'z talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib ish yuritishi, faoliyat va sa'y-harakatlarini o'zi nazorat qila olishi va boshqarishi o'z-o'ziga o'zining barcha xatti-harakatlari, faoliyati, amalga oshirgan va rejalashtirayotgan ishlari haqida hisob berishi o'z-o'zini anglash deyiladi. Demak, falsafada o'z-o'zini anglash insonning o'zi bilishning ham sub'ekti, ham ob'ekti bo'lishi jarayonidir. O'z-o'zini anglash ham ijtimoiy-tarixiy jarayon bo'lib, turli shakllarda rivojlanib boradi. O'z-o'zini anglash dastlab o'z-o'zini his qilish shaklida kechadi. Keyin insonning jamiyatda o'z o'rnini, ijtimoiy mavjudot ekanligi, jamiyatning bir a'zosi, jamiyatning konkret bir rivojlanish bosqichi davri muayyan madaniyat, ijtimoiy guruhiga mansub ekanligini tushunishi jarayoni yuz beradi.

O'z-o'zini anglashning yuqori shakli har bir kishining jamiyat fuqarosi sifatida o'z xatti-harakatlarining mohiyat va mazmunini tushungan holda, jamiyat oldidagi javobgarlik burchi va majburiyatlarini to'liq anglab etish faoliyati va mas'uliyat hissi, o'z faoliyati ustidan o'z nazoratini o'rnatish, o'z faoliyatiga o'zi holis baho bera oladigan o'z-o'ziga hisob bera oluvchi shaxs ekanligini tushunishdir.

O'z-o'zini anglashning eng muhim ko'rinishi millatning o'z-o'zini anglashidir. Milliy o'z-o'zini anglash milliy g'oya va milliy mafkuraning asosini tashkil qiladi. Milliy o'z-o'zini anglash millat madaniyati, merosi, qadriyatlarini bilish, undan faxrlanish, avaylab-asrash, boshqa millatlar madaniy-ma'naviy merosidan farq etish, uni jahon madaniyatining tarkibiy qismi ekanligini fahmlash, uni doimiy boyitish va rivojlantirishga ma'sul bir millat vakili ekanini his etish kabilarni o'z ichiga oladi. Milliy o'zlikni anglash millat taraqqiyotining ustivor tamoyilidir. Milliy madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish va egallash, ularni qayta idrok etish va yaratish rivojlanishning asosiy shart-sharoitlaridir.

Milliy o'z-o'zini anglash, shovinizm va millatchilik milliy o'z-o'zini anglashning buzilgan ko'rinishi bo'lib, milliy o'z-o'zini anglashning bir tomonlama, uni burtirib yuborishning oqibatidir.

Shovinizm va millatchilik millatni bir-biridan ustun qo'yish, boshqalarni mensimaslik munosabatida bo'lish tufayli milliy nizolarni keltirib chiqaradi. Milliy o'z-o'zini anglash esa har bir millat madaniyati, ma'naviyati milliy qadriyatlari shu millatning o'zligini anglab etish yo'lida xizmat qiladi. Bu esa jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga zamin bo'ladi.

6-mavzu. BORLIQ FALSAFASI

(2 soat)

Reja

- 1. Borliq tushunchasining mohiyati va ma'nosi. Ontologiya - borliq falsafasi. Borliq, yo'qlik, mavjudlik, moddiylik va ruhiylik tushunchalari. Ularning dunyoviy, diniy va falsafaiy talqinlari. Borliq haqidagi tarixiy kontseptsiyalar. Yo'qlik mavjudmi, voqelikmi yoki ideal kategoriyami? Uni moddiyunchilik tafakkuri bilan tavsiflab bo'ladimi? Yo'qlik teologiyaning kategoriyasi sifatida.**
- 2. Ob'ektiv va sub'ektiv borliq tushunchalari. Borliqning anorganik, organik va ijtimoiy shakllari. Mikrodunyo, makrodunyo, megadunyo va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari. Borliq va vujudga kelish. Abadiylik, azaliylik, mangulik, o'tkinchilik, tug'ilish va o'lim, "bu dunyo" va "u dunyo" to'g'risidagi mushohadalar.**
- 3. Voqelik (reallik) tushunchasi. Materiya kategoriyasi. Uning xususiyatlari va namoyon bo'lish shakllari haqida zamonaviy qarashlar. Materiyaning butunlik tamoyili va uning qismlarga bo'linganligi. Materiyaning ko'rinishi.**
- 4. Harakat tushunchasi. Harakatning asosiy shakllari va ular o'rtdagi o'zaro bog'liqlik. Harakatning abadiyligi, uzluksizligi va tinchlikning nisbiyligi tamoyili.**
- 5. Borliqning fazo va vaqtda mavjud bo'lish tamoyili. Makon va zamon tushunchalari va o'zaro bog'liqligi. Fazo-vaqt o'lchamlari, uning cheksizligi muammosi. Makon va zamonning abadiyligi va uzluksizligi tamoyili.**
- 6. Borliq va uning mavjudlik usullarini falsafiy o'rganishning yoshlar ma'naviy kamolotidagi ahamiyati.**

Borliq – o'zida ob'ektiv va sub'ektiv reallikni, mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladigan olamlarni, moddiylik va ma'naviylik, o'tmish va kelajak, o'lim va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir. Olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyat asrlar osha muammo bo'lib kelgan. Kishilarning olam to'g'risidagi ilmiy-falsafiy dunyoqarashini tarkib toptirishda ularning borliq haqidagi qarashlari alohida o'rin tutadi. Bu abadiy muammo bo'lib, uning mazmuni nihoyatda chuqurdir.

Ontologiya – borliq falsafasi, falsafaning borliq haqidagi fundamental tamoyillarini o'rganuvchi sohasidir. Ontologiya borliq, haqiqiy bilim (Parmenid), g'oyalar (Aflotun), Xudo (O'rta asr Sharq mutafakkirlari), borliq va narsalar metafizika (X.Volf), mazmunsiz metafizika (I.Kant), absolyut ruh mohiyatining abstrakt ta'rifi haqidagi ta'limot (F.Gegel) deb turlicha talqin etilgan. Ilk ontologiyada butun olam insonga nisbatan talqin qilishda dunyoni inson uchun yaratilgan, unga moslashtirilgan, degan qarash ilgari surilgan bo'lsa, zamonaviy ontologiyada voqelik va olam keng ma'noda ishlatilib, moddiy borliq, ma'naviy

borliq, ruhiyat, yo‘qlik kabi tushunchalar ontologiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Borliq to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar qadimgi dostonlar, ertaklar, diniy madhiyalar, afsona va rivoyatlarda uchraydi. Jumladan, ko‘hna Hindistonda yaratilgan qadimgi diniy madhiyalarda, xususan, “Maxabharata”, “Rigveda”, “Ramayana”, “Upanishad”larda insonning yaratilishi xususida gap borganda, “borliq” va “yo‘qlik” haqida ma’lumotlar beriladi. “Rigveda”da yozilishicha, olamning paydo bo‘lishida “asat”deb ataluvchi ibtido muhim ahamiyat kasb etgan. “Asat” imkoniy borliq, ya’ni “yo‘qlik” asta-sekin “sat” mavjudlikka aylangan.

Qadimgi Xitoy faylasufi Lao-tszining fikricha, “borliq” asosida “dao” yotadi. U “tsi” elementi bilan birgalikda hayot negizini tashkil etadi. Qadimgi yunon falsafasida, ayniqsa Geraklit qarashlarida bu masala muhim o‘rin tutgan. Uning fikricha, ayni bir jism ayni vaqtda ham “mavjud”, ham “mavjud emas”. Parmenid borliq tushunchasini yaxlitlik, haqiqiylik, ezgulik va go‘zallik kabi xususiyatlar orqali ifodalaydi. Aflotun borliq deganda moddiy jismlarni e’tiborga olib, narsalar borlig‘ini g‘oyalar dunyosi borlig‘idan farqlagan holda borliqni “chin” va “chin bo‘lmagan” borliqqa bo‘ladi. G‘oyalar dunyosi “chin”, narsalar dunyosi esa “chin bo‘lmagan” borliqdir. Aflotun olamni narsalar borlig‘iga bo‘lib yuborish bilan birga, ayni vaqtda “g‘oyalar” dunyosi mavjudligini narsalar borlig‘i bilan qo‘shishga urinadi. Bulardan ko‘rinadiki, borliqqa oid dastlabki tasavvurlarda borliq haqidagi masala olamning paydo bo‘lishi muammosi bilan uzviy bog‘lanib ketadi.

Borliq haqidagi ta’limotni rivojlantirgan buyuk faylasuflardan biri Arastu ustози Aflotunning g‘oyalar dunyosi to‘g‘risidagi fikrlarini tanqid qilgan holda, borliqning doimiy turg‘un ekanligi to‘g‘risidagi Aflotun qarashlariga qo‘shiladi. Arastu fikricha borliq jins va tur shaklida mavjud bo‘ladi. Pifagor maktabi vakillari borliq mohiyatini sonlar yordamida tushuntirib, sonlarni bir butunlik, borliqning asosi (monada)ni tashkil etadi, borliqning asosi birlik bo‘lib, ko‘plikdan ustun turadi, qaerda birlik (yakka) bo‘lsa, o‘sha erda bilish imkoniyati mavjud, deb ko‘rsatganlar. Qadimgi yunon faylasufi Demokrit borliq to‘g‘risida yangi tezisni ishlab chiqqan. Demokrit fikricha, “borliq” “yo‘qlik” bo‘lishini talab etadi. Borliq “qattqlik” yoki moddiylikdir. “Yo‘qlik” esa “bo‘shliq”dan iborat, ammo har ikkalasi ham mavjuddir. Borliq cheksiz, bo‘linmas atomdan iborat. Dunyo atom va bo‘shliqdan iborat, atom borliq, bo‘shliq esa yo‘qlikdir. Atom borliq ekan, uni bilish mumkin. Atom haqiqatdir, uni aql bilan bilish mumkin, sezgilar esa narsalarning tashqi tomoni haqida bilim bergani uchun sezgi orqali bilish mumkin emas.

Substantsiya o‘ta murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, dunyoning dastlabki moddiy asosini tashkil etuvchi, narsa va hodisalarning xossalari uchun omil yoki tirgak bo‘lib xizmat qiluvchi, narsalarning o‘zgarmas barqaror mohiyatini ochib beruvchi tushuncha sifatida ishlatilgan. Dastlab substantsiya hamma narsani tashkil etadigan modda deb tushunilgan. Qadimgi yunon faylasuflari, o‘rta asrlar Sharq mutafakkirlari substantsiya tushunchasini moddiy asos, mohiyat sifatida talqin etganlar. Forobiyning fikricha, “O‘z zotida mavjud bo‘lgan substantsiya”dir, masalan olma va shunga o‘xshash barcha jismlar. “O‘z zoti bilan mavjud bo‘lmagan aktsidentsiya”dir, masalan, olmaning qizilligi kabi belgilar. Demak, barcha vujudga keltirilgan narsalar yoki substantsiya, yoki aktsidentsiyadan iborat bo‘ladi.

Dekart fikricha, uch xil substantsiya – materiya va ruh parallel mavjud bo‘lib, har ikkalasi xudoga buysunadi. Spinoza fikricha, substantsiya o‘z o‘ziga sababchi, tabiat yagona substantsiya, ko‘lam va tafakkur substantsiyaning atributlaridir. Kantning fikricha, substantsiya shunday bir doimiy narsaki, faqat unga nisbatangina hamma vaqtli hodisalarni aniqlash mumkin. Metafizika tarafdorlari fikricha, narsalar paydo bo‘lishi, yo‘qolishi, turli o‘zgarishlarga duchor bo‘lib, bir-biriga aylanib turishi mumkin, substantsiya tub negizi jihatidan o‘zgarmasdir, uning tashqi shakllari o‘zgarishi mumkin. Shunday qilib, yunon faylasuflarining borliq haqidagi qarashlari quyidagicha:

1. Borliq – mavjud, yo‘qlik – mavjud emas.
2. Borliq bir butun, bo‘linmasdir.
3. Borliqni bilib bo‘ladi, yo‘qlikni bilib bo‘lmaydi, yo‘qlik mavjud emas, aql uchun u yo‘q, demak, u yashamaydi.

Islom ta’limotiga ko‘ra borliq Alloh yaratgan mavjudlikdir. Abu Nasr Forobiy ilk borliqni “Allohning o‘zi” deydi. Tasavvufning borliq to‘g‘risidagi ta’limoti panteistik (tabiat bilan Xudoni birlashtirib yuboruvchi ta’limot) ruhda bo‘lib, sufiylar fikricha, olam, undagi turli-tuman narsalarni Xudo nurining ifodalanishidir. Xudo va U yaratgan narsalar bir-birlari bilan bog‘langan, o‘zaro aks etuvchi birlikni tashkil etadi. Abdurahmon Jomiy fikricha, “Tangrini olamdan ajralgan deb hisoblash kerakmas, zero, barcha olam Tangridadir, Tangri esa olamda”. O‘rta asrlarda borliq diniy nuqtai nazardan o‘rganilgan: “haqiqiy borliq Xudodir, olam mustaqil emas, yo‘qlikdan yaralgan, agar Xudo g‘amxo‘rlik qilmasa, olam nom-nishonsiz yo‘qolib ketadi”.

Uyg‘onish davri falsafasi borliqni tabiat sifatida talqin etdi: bir tomondan borliq mustaqil, ikkinchi tomondan u yaratuvchiga muhtojdir. Berkli borliqni “sezgilarimiz majmui” deb talqin etgan bo‘lsa, Gegel borliqni “mutlaq ruhning namoyon bo‘lishi” deb ta’rifladi. Sho‘rolar mafkurasi borliq tushunchasini moddiylik bilan aynanlashtirib, “ong” tushunchasiga qarama-qarshi qo‘ydi.

Yangi zamon falsafasida borliqning tabiiy, ijtimoiy, ma’naviy, inson borlig‘i kabi shakllari turlicha talqin etildi, ya’ni borliq olam, odam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g‘oyalar va barchasini o‘z ichiga qamrab oladi. Tabiat borlig‘ini tabiatdagi barcha narsa, jarayonlar, holatlar borlig‘i sifatida tushunilsa, inson borlig‘i insonning narsalar olamidagi mavjudligi va odamning o‘ziga xos bo‘lgan insoniy borlig‘idir.

Jamiyat borlig‘i ayrim shaxslarning tarixiy jarayondagi o‘rni va jamiyatdagi faoliyati bo‘lsa, ma’naviy borliq o‘ziga xos va uyg‘un ma’naviyat bilan bog‘liqdir. Demak, borliq mavjud barcha narsalar, ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan narsalar, ya’ni moddiy narsalar, jarayonlar (fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy, ruhiy, ma’naviy va h.k.), ularning xossalari, aloqalari va munosabatlaridir.

Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan borliq tushunchasi sermazmun, ko‘pqirrali bo‘lib, insonga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgan ob’ektiv olamni ifodalash, aks ettirish uchun ishlatiladi. Borliq tushunchasi orqali inson o‘z ongida dunyoning mavjudligi, cheksizligi, abadiyligi, yaxlit va bir butunligi haqida umumiy tasavvurga ega bo‘ladi. Hayotning murakkabligi, tabiiy va ijtimoiy hodisalarning o‘zgarishi an’anaviy fikrlash tarzini o‘zgartirishni talab etadi. Planetamizda insonning yashashi xavf ostida qolgan hozirgi kunda insoniyatning bus-butun saqlanib qolishi masalasi

borliq to'g'risidagi masalani yanada muhim qilib qo'yadi. Olam borlig'i vaqt ichida abadiymi, o'tkinchimi? Fazoda-chi? Makonda cheklanganmi yoki cheklanmaganmi? Hayot va mamot masalasi-chi? Bu kabi savollar borliq kategoriyasini ilmiy o'rganishni talab etadi. Yaxlit olam borlig'i bilan inson borlig'ini qiyoslansa, inson hayoti kapalak umriga qiyos ezigulik. Hayot shu qadar tez o'tadiki, konkret odamning hayoti juda qisqa ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Inson o'tkinchi umr bilan doimiy olam borlig'ini solishtirib, odam aql-farosatga ega bo'lsa-yu, umri o'lchovli bo'lsa, nahotki, u hayotga qayta kelmaydi. Odam borlig'i va olam borlig'i o'rtasida nahot shunday "adolatsizlik" bo'lsa? Inson qadimdan olam borlig'i, o'z borlig'i, o'zgalar borlig'i ustida bosh qotirgan. Olam azaldan bormi? Yoki yaratilganmi? Odamlar-chi? O'lim nima? U borliqmi yoki yo'qlikmi? Odam tug'iladi, yashaydi, voyaga etadi, bir kun kelib olamdan ko'z yumadi, u bor edi, bo'lgan edi, endi yo'q, lomakon bag'riga singib ketadi, yo'qlik sari yo'l oladi. Tug'ilish bor ekan, o'lim haq. Bu hayot qonuni. "To'rt faslni o'tkazmoqlik tabiatga bir qonun bo'lsa, tug'ilmoq va o'lmoq bu hayotga bir qonundir".

Borliqning antitezisi yo'qlik bo'lib, borliq va yo'qlik biri-birisiz mavjud emas, agar ularning bir-biriga o'tishini yo'q qilinsa, hamma narsa o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Nega? Chunki harakat to'xtashi mumkin: mavjudlik o'zining muhim, asosiy va ajralmas belgilaridan mahrum bo'ladi. Eng qattiq kristallar, yulduzlarning ulkan to'planishi, u yoki bu o'simliklar, hayvonlar, insonlar go'yo Yo'qlikdan kelib chiqqandek bo'ladi (ular xuddi shunday tarzda hech qachon bo'lmagan), borliqqa aylanadi. Narsalarning borlig'i qanchalik uzoq vaqt davom etmasin, oxirga etadi va mazkur konkret sifat tarzida, shaxsan shu inson tarzida Yo'qlikka ketadi. Borliqning muhim jihatlari quyidagilardir:

Borliq bir butun yaxlit olamning doimiyliigi va alohida narsalar, organizmlar, odamlar, ularning hayot faoliyatining o'tkinchi xarakteri, olam nisbiy turg'unlik, o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik birligidan iborat. Olam o'z borlig'i va mavjudligiga ko'ra rang-barang va bir jinsli emasdir.

Borliqning ikkinchi jihati olam borlig'ining birligi va xilma-xilligida namoyon bo'ladi. Olamning mavjudligi uning birligining zaruriy shart-sharoitidir. Olam odamning irodasi va ongidan tashqarida mustaqil yashaydi. Ammo odam o'z aqli, bilimi, mehnati bilan barhayot tabiat va uning o'tkinchi jismlarini bir-biri bilan bog'lab turadi. Shu bilan birga jism va ruh, tabiat va jamiyat o'rtasida, odam bilan o'zga odam o'rtasida muhim tafovutlar mavjud. Bular olam jismlarining xilma-xilligidan nishonadir. Shu bilan birga xilma-xillikda uyg'unlik va birlik mavjud. Masalan, olamda tana va ruh, tabiiylik va ijtimoiylik qo'shib, ajralmas birlikni tashkil etadi. Demak, xilma-xil narsalar, tabiat, odam, jamiyat – barcha xilma-xillik o'zaro birlashib, cheksiz olamning yaxlit birligini tashkil etadi.

Borliq obektiv va subektiv reallikning o'zaro birligidan iborat, tabiat, olam, inson, jamiyat mavjud edi va mavjud bo'ladi. Ular – real voqelik. Olam obektiv reallikni ifodalasa, inson ongi subektiv reallikdir. Shunday qilib, borliq bir butun olam, undagi moddiy va ma'naviy mavjudotlar realligi, ular o'rtasidagi eng muhim aloqalar, xilma-xillikdagi yaxlit bir butunlik, narsalarga barqarorlik beradigan sifat va belgilarning yig'indisidir. Borliq tor ma'noda materiya: tabiat, moddiy narsalar majmui, keng ma'noda ham moddiy, ham ma'naviy reallikdir.

Borliqning falsafiy ma'nosi uning konkret shakllarida ko'rinadi. Tabiiy borliqning birinchi ko'rinishi insonga qadar, insondan va uning ongidan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan narsa-hodisalar, jarayon va holatlarni o'z ichiga olgan tabiat bo'lib, uni "birlamchi tabiat" deyiladi. Tabiiy borliqning bu shakli inson faoliyatining dastlabki sharti sifatida mavjud bo'lgan tabiiy narsa-hodisalar va jarayonlardir. Inson paydo bo'lgach, ularga ta'sir etib, inson qo'li bilan yaratilgan narsa-hodisalar va jarayonlar yuzaga keladi. Bularni oldingilardan farqlash maqsadida "ikkinchi tabiat" deb ataladi. "Birlamchi tabiat" borliqning alohida maxsus shakli bo'lib, yaxlit tabiat borlig'i fazo va vaqt doirasida cheksizdir, u doimo va hamma joyda mavjud bo'lgan, mavjuddir va mavjud bo'ladi. Lekin tabiatga xos bu asl xislat uning alohida hodisalari, jarayonlari, holatlariga bir butunicha daxldor emas. Ular inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'lish, o'zgarish, rivojlanish, so'nish jarayonlarini boshidan kechiradi. Tabiat bir butun, o'tkinchi emas deyilganda, uning yaxlit o'zini emas, balki tabiatning ayrim konkret hodisalariga xos xususiyat tushuniladi, demak, tabiat emas, uning alohida hodisalari o'tkinchi. Shu ma'noda tabiat o'tkinchimas va o'tkinchilikning uzviy birligidan iborat. Inson aqli va mehnati bilan yaratilgan "ikkilamchi tabiat" "birlamchi tabiat"dan inson qo'li bilan yaratilganligi, unga inson mehnati va bilimi sarflanganligi bilan deb farqlanadi. "Ikkilamchi tabiat"da inson mehnati va bilimlari "predmetlashib", "ijtimoiy ruh" tusini oladi. "Ikkilamchi tabiat" mahsulotlari muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi. Masalan, dastgoh mato to'qiydi, inson maqsadlarini obektivlashtiradi. "Ikkilamchi tabiat" jismlari "birlamchi tabiat"dan material oladi va o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi: bular ilgari tabiatda mavjud bo'lmagan realliklar majmuasi bo'lib, tabiiy-ma'naviy reallikni ifodalaydigan sivilizatsiyalashgan borliqdir (telemarkazlar, muzeylar, teatr, kiyim-bosh, kompyuter va h.k).

Borliqning har ikki ko'rinishi o'zaro ayniyat va tafovutda bo'ladi. Birlamchi tabiat cheksiz, chegarasiz, o'tkinchi bo'lmagan borliq, lekin uning ayrim hodisalari, masalan, odam o'tkinchidir. "Ikkinchi tabiat" da tabiat qonunlari emas, balki insonning qayta yaratuvchilik qonunlari amal qiladi. Ular biri-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lsa ham, to'qnashuv darajasiga etib boradigan munosabatlar ham bor (ekologik, energetik muammolar). Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida bu haqda "tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik halokatlarga olib keladi" deb to'g'ri e'tirof etgan.

Inson borlig'i insonning biologik zot sifatidagi borlig'i hamda insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi borlig'ini qamrab oladi. Alohida shaxs borlig'i va insoniyat borlig'i o'ziga xos hodisa bo'lib, uning tabiatga tegishli bo'lgan jismi o'tkinchi. Inson umrini uzaytirishga urinilmasin, u tabiat jismi bo'lib qolaveradi. Biologik jihatdan odam tanasi oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa moddiy ne'matlarga ehtiyoj sezadi. Inson borlig'i tana va jon birligidan iborat, tana yashamasa, odam yashamasligini isbot qilish shart emas. Ayni vaqtda insonning fikrlashi uchun unga, tanasiga zarur moddiy oziq lozim. Bundan har bir individ o'zining shaxsiy hayotini saqlab qolish huquqi kelib chiqadi. Bu huquqning boshlang'ich nuqtasi hayotni, individ hayotini ta'minlash va nihoyat insoniyat yashab

qolishiga erishishdan iborat. Insonning tabiiy-biologik “o‘lchovi” bo‘lib, inson organizmiga xos ekologik balans nisbati buzilsa, falokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Inson ijtimoiy munosabatlarni o‘zida gavdalantirgani uchun uni “narsa” yoki “ob‘ekt” tushunchalari bilan belgilash mantiqan noto‘g‘ri. Chunonchi, sobiq sho‘rolar zamonida inson ishlab chiqarishning oddiy murvatiga aylantirilgan bo‘lsa, mustaqillik tufayli insonning haqiqiy mohiyati, milliy qiyofasi, tarixiy o‘rni, qadr-qimmatini tiklandi.

Inson, uning tabiiy ehtiyoji va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjud bo‘lib inson borlig‘ining o‘ziga xos xususiyatlari uch muhim o‘lchov-meyorga ega. Birinchidan, alohida shaxs – fikrlovchi va his etuvchi mavjudot ekanligi, ikkinchidan, aqlli mohiyat ekanligi, uchinchidan, ijtimoiy-tarixiy harakatlantiruvchi kuch ekanligidir. Demak, inson tabiiylik, jismlilik, ma‘naviylik, individuallik, shaxsiylik va ijtimoiylikning yig‘indisidan iboratdir.

Ma‘naviy hayot inson borlig‘ining tarkibiy bo‘lagi bo‘lib, ma‘naviyat inson bilimlari, axloqiy, huquqiy qarashlari tizimi, badiiy ijodiyotning me‘yor va mezonlari majmuidan iborat. Ma‘naviy borliq ong va ongsizlik jarayonlari, tabiiy va sun‘iy tillarning moddiylashgan shakllarida gavdalangan bilimlardan iborat. Ma‘naviy borliqni uning mavjudlik shakllariga qarab turib ikkiga bo‘lish mumkin: individ ongi va ruhiyati bilan bog‘langan ma‘naviy borliq (individuallashtirilgan ma‘naviy borliq) hamda individ ongidan tashqarida bo‘lgan obektivlashgan ma‘naviy borliq.

Ijtimoiy borliq individual, yakka shaxs va jamiyat borlig‘ining birligini bildiradi. Kishilarning moddiy hayoti ularning xohish-irodalariga bog‘liq bo‘lmagan holda ishlab chiqarish munosabatlaridan (uni o‘zida jamlovchi iqtisodiy hayot)dan iborat bo‘lib, ijtimoiy borliq jamiyatning yaxlit moddiy hayotini, moddiy ne‘matlar yaratish va ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiradigan munosabatlardan tashkil topadi.

O‘zbekiston buyuk kelajak sari intilmoqda. Bu esa ham moddiy, ham ma‘naviy jihatdan kamolotga erishishni taqozo etadi. Yurtimizda ma‘naviyatni tiklash, ma‘naviy inqirozni to‘xtatish, poklanish va ma‘naviy kamolga erishish yo‘lidan dadil borilmoqda. Inson ma‘naviyatining emirilishi yadro fojiasidan ham qo‘rqinchli, bugungi ma‘naviy poklanish kelajak avlodning barkamolligi zamini, bugungi kun ma‘naviyatini yaxshilamasdan turib, kelajakda sog‘lom avlodni shakllantirish mushkul. Insoniyat ma‘naviy poklanmasa, dunyo tanazzulga yuz tutadi. Uchinchi yo‘l yo‘q. Bundan qutulish uchun har bir tafakkur egasi insoniyat va o‘zi yashab turgan dunyo to‘g‘risida, uning taqdiri haqida yuksak mas‘uliyat his etishi kerak, ya‘ni inson moddiy farovonlikka intili bilan birga, ma‘naviy kamolot sari intilishi, o‘z bilimlarini boyitib, ma‘naviy yuksalishi kerak. Inson tabiatni boylik manbai deb, o‘rgandi, o‘ziga buysundirmoqchi bo‘ldi, oqibatda tabiiy mutanosiblik buzilib, ekologik inqiroz vujudga keldi. Inson ilm-fan cho‘qqilarini egallab, ilmiy texnika inqilobini amalga oshirdi, atom stantsiyalarini qurdi, yadro qurollarini yaratdi, bu bilan birga insoniyat hayotini xavf ostida qoldirdi. Bularning barchasi insonning o‘z mohiyatini yaxshi bilmasligi, ma‘naviyatning moddiylikdan orqada qolganligi, hissiyot va aql, onglilik va ongsizlik munosabatlari noto‘g‘ri talqin qilinganligi oqibatidir.

“Borliq” tushunchasi “materiya” tushunchasida konkretlashtiriladi. “Materiya” kategoriyasi ob’ektiv reallikni ifodalaydi. “Ob’ektiv reallik” inson ongidan tashqarida va unga bog’liq bo’lmagan narsalar, materiya – bilib olinadigan ob’ektiv reallikdir. “Materiya” tushunchasi qadimgi yunon faylasufi Aflotun asarlarida tilga olingan. Uningcha, materiya hamma hodisalarning asosidir. Uning bilish extiyoji yo‘q. Chunki hodisalar ko‘zga tashlanib turadi. Ular paydo bo‘ladi, rivojlanai. Aflotun materiyanı voqelik emas, balki imkoniyatdir deb, geometrik figura sifatida fazo bilan aynanlashtiradi. Arastu ham materiyanı imkoniyat sifatida ko‘rib, imkoniyat voqelikka aylanishi uchun ma‘lum shaklga kirishi kerakligini ta‘kidlagan. Masalan, loy, qum hali g‘isht emasligi, uni g‘isht qilish uchun ma‘lum qolip asosida shaklga kiritish kerak. Demak, shakl yaratuvchi faol (aktiv) narsa, materiya moddiy narsa bo‘lsa, jon uning shaklidir. Shakl yaratuvchi ekan, shakllarning shakli xudodir. Barcha hodisalarning umumiy substantsiya negizi bo‘lgan materiya haqida xulosa qilinsa, uni yaratib ham, yo‘q qilib ham bo‘lmasligi, materiyaning zamonda abadiy mavjudligi va makonda nihoyasizligi, ob’ektivligi, ongga bog‘liq emasligi, materiya bilan harakatning ajralmasligi anglashiladi. Hozirgi ilmiy falsafada materiya tushunchasi ob’ektiv reallikni ifodalaydigan falsafiy kategoriya bo‘lib, bu ob’ektiv reallikni inson o‘z sezgilari bilan idrok qiladi, ob’ektiv reallik inson sezgilariga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir, sezgilar undan nusxa oladi va uni aks ettiradi.

Materiya fazoda cheksiz, vaqtda abadiydir. Vaqtning cheksizligi dunyoning cheksizligini ko‘rsatadi. Tabiat va jamiyat xossalari hamma vaqt ketma-ket sodir bo‘ladi va harakat qiladi. Materiya fazo va vaqtda harakat qiladi, demak materiya, harakat, fazo va vaqt dialektik bog‘langan. Ularning dialektik birligi umumiy aniq fanlar uchun amaliy jihatdan metodologik asos hisoblanadi. Borliq haqidagi falsafiy ta‘limotga ko‘ra, uning mohiyatini anglashda borliqni tashkil etuvchi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqalar, ularning o‘zgarishi va rivojlanish jarayonlarini bilish muhimdir. Olamning bir butun, yaxlit ilmiy manzarasini hosil qilish va nazariy xulosa chiqarish uchun borliqning konkret holati, mohiyati, manbai, sababi, rivojlanishi, harakatga keltiruvchi kuchi hamda taraqqiyot yo‘nalishlari farqlanadi. Harakat har qanday o‘zgarishdir, harakat bo‘lmaganda borliq ham bo‘lmas edi. Har qanday harakatning manbai har qanday jismning mavjudligini, eng avvalo, uning ichki aloqadorliklarini ta‘minlaydi. Harakat tufayli narsa va hodisalar o‘zining muayyan tartibi va birligini saqlaydi, o‘sish, ulg‘ayish, rivojlanish, taraqqiyot bo‘ladi.

Rivojlanish – o‘zgarishning shakli bo‘lib, muayyan fazo, vaqtdagi yaxlitlik, ilgarilanma yo‘nalishga ega bo‘lgan, miqdoriy va sifatiy o‘zgarishlardir. Harakatning mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik, ijtimoiy shakllari bo‘lib, ular o‘zgarishlarning xilma-xil ko‘rinishlarida mavjud bo‘ladi. Harakat shakli qanchalik murakkab bo‘lsa, u bilan bog‘liq o‘zgarishlar ham murakkab bo‘ladi. Harakat shakllarining tasnifi quyidagicha:

Notirik tabiatda – elementar zarralar va maydon harakati.

Tirik tabiatda – hayotning namoyon bo‘lishi.

Jamiyatda – inson faoliyati.

Ijtimoiy harakat – insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarining faoliyati, o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy fikrda namoyon bo‘ladi. Tabiat

va jamiyatda hamma narsa harakatda, o'zgarishda, o'zaro ta'sir va o'rin almashishdadir. Hech bir mutlak tinch turgan, harakatsiz narsa yo'q, olamdagi narsalar doimiy harakatda bo'lib, bir-biriga aylanadi, biri ikkinchisini yo'qotadi, biri ikkinchisidan paydo bo'ladi. Butun tabiat, eng kichik zarradan eng katta jismlargacha, qum donasidan Quyoshgacha, hujayradan tortib odamzodgacha, barchasida beto'xtov harakat va o'zgarish jarayoni yuz beradi. Materiya barcha o'zgarishlarning substantsiyaviy negizi, undan ajralgan harakat sof harakat mavjud emas. XIX asrning ikkinchi yarmida nemis fizigi V.Ostvald energetizm nazariyasini ilgari surib, materiya va harakat bog'liqligini inkor etdi. V.Ostvald materiyadan ajralgan qandaydir nomoddiy narsaga aylantirilgan sof energiyani barcha o'zgarishlarning birdan bir negizi deb hisobladi. Vaholanki, energiya materiyadan ayrim holda mavjud bo'lmaydi va hamisha moddiy jismlarning boshqa xossalari bilan birgalikda yuzaga keladi. Harakatning falsafiy ma'nosi shundaki, u materiyaning borliq shakli va materiya harakati qanday shaklda bo'lmasin, harakat materiyadan ajralmagan holda sodir bo'ladi. Harakat ham materiya kabi ob'ektiv-realdir. Materiya o'ziga xos ichki qarama-qarshiliklarga ko'ra harakat qiladi, rivojlanadi. Materiya harakati hech qanday tashqi turtki, g'ayritabiiy kuchga muhtoj emas. Materiya harakati va taraqqiyotining manbai ichki qarama-qarshiliklardir.

Harakatning falsafiy mazmunini materiya harakati shakllari to'g'risidagi tabiiy, ilmiy tasavvurlar bilan almashtirmaslik zarur. Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan harakat materiyaning eng muhim atributi – mavjudlik usulidir. U tabiat va jamiyatda yuz beradigan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Harakat umuman o'zgarishdan, moddiy narsalarning har qanday o'zaro ta'siridan iborat. Harakatsiz materiya, materiyasiz harakat bo'lishi mumkin emasligini hozirgi tabiat va ijtimoiy fanlar ham isbotlaydi.

Borliqning yashash shakllari fazo va vaqt bo'lib, fazo narsalarninig ko'lami, hajmi, o'zaro joylashish tartibi, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi. Borliqda cheksiz sodir bo'lib turadigan harakat o'sish, o'zgarish va taraqqiyot hamisha fazo bilan vaqtda yuz beradi. Fazo va vaqt materiya mavjudligining tub ob'ektiv shakli bo'lib, fazo va vaqtni materiyadan ajratib bo'lmaydi. Harakat fazo va vaqtning mohiyati, ya'ni fazo va vaqtning birligidir. Fazo va vaqt o'z tabiatining mavjudligini materiya harakatida namoyon etadi. Fazo tushunchasi moddiy ob'ektlarning birgalikda mavjudligi, bir biridan uzoqligi va ko'laminig bir-biriga nisbatan joylashish tartibini ifodalaydi. Tabiatdagi barcha jismlar, jumladan, insonning o'zi ham ob'ektiv olamda sodir bo'ladigan hamma moddiy jarayonlar fazoda o'rin tutadilar, muayyan masofaga ega bo'ladilar. Olamda mavjud bo'lgan narsalar bir-biridan nafaqat sifat jihatidan, balki uzunligi, kengligi, hajmi, baland-pastligi, katta-kichikligi, o'rni bilan farqlanadi. Vaqt materiyaning mavjudlik shakli sifatida moddiy jarayonlarning keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarning turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, davomiyligi, rivojlanishini bildiradi. Har bir narsa o'z o'tmishi, buguni va istiqboliga ega. Narsa-hodisalardagi jarayonlar ketma-ketlikda yuz beradi. Fazo va vaqt ham materiya kabi ob'ektiv xususiyatga ega bo'lib, ular o'rtasida umumiy va o'xshash jihat hamda ayrim farqlar mavjud:

1. Fazo bilan vaqtning ob'ektivligi, inson ongi irodasi va g'oyalariga bog'liq emasligini, ular o'rtasidagi umumiylikning muhim tomonlaridan birini tashkil etadi.

2. Fazo bilan vaqt abadiy, azaliydir. Fazo bilan vaqt abadiyligi materiyaning abdiyligidan kelib chiqadi. Materialistik ta'limotda abadiylik moddiy olamning atributi (belgisi) hisoblansa, idealistik ta'limotda u ideallikning belgisi, atributidir. Masalan, islomda abadiylik Ollohning sifatidir.

Fazo bilan vaqt cheksiz, chegarasiz va bepoyondir. Fazo va vaqtga ichki ziddiyat xos bo'lib, fazo va vaqt o'z tabiatiga ko'ra, ham mutlaq, ham nisbiydir. Fazo va vaqt materiya mavjudligining umumiy ob'ektiv shakllari kabi mutlaqdir, chunki bu shakllardan tashqari hech qanday moddiy jismlarning bo'lishi mumkin emas. Fazo va vaqtning nisbiyligi ularning aniq xossalari o'zgaruvchan materiyaning xossalriga bog'liqligida. Ziddiyat shundaki, fazo va vaqt nihoyasizlik bilan nihoyalilik birligini tashkil etadi, fazoning nihoyasizligi moddiy ob'ektlarning nihoyali ko'lamlaridan tarkib topadi, vaqtning nihoyasizligi esa ayrim moddiy jarayonlarning nihoyali uzlukliklaridan tarkib topadi. Insonning fazo va vaqt haqidagi tushuncha va tasavvurlari nisbiy o'zgaruvchan, rivojlanib boruvchi xususiyatga egadir. Materiyaning fazoda cheksizligi, vaqtda abadiyligi – fazoning hech qanday chegarasi, markazi, tomoni, sodir bo'ladigan joyi, oxirgi nuqtasi yo'qligi, cheksiz, chegarasiz, bepoyonligida anglashiladi. Er koinotda yakkayu-yagona emas, balki cheksiz yulduzlar tizimining biridir.

N.Lobachevskiy fazoning materiya bilan chambarchas bog'liqligini isbotlab, mutlaq chegara va sistema bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlab, Evklid geometriyasiga nisbatan fazoning geometrik xususiyatlari o'zgarishini tushuntirgan. (Evklid geometriyasida fazo materiya dan ajralgan holda abadiy va hamma erda bir xil xususiyatga ega shaklda, fazo haqidagi metafizik asosda deb tushuntirilgan).

Ma'lumki, moddiy narsalarning harakati bir vaqtda, bir joyda ro'y bermaydi. Materiyaning harakati fazoning istalgan nuqtasida, turli vaqtda bo'lishi mumkin. Moddiy narsalarning turli o'rin, turli masofa orasida joylashishi, doimiy, sekin yoki tez harakatda bo'lishini nisbiylik nazariyasida ham asoslanadi. Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan, materiya hech qachon va hech qaerda chegaralanmagan.

Vaqtning cheksizligi dunyoning bepoyonligini bildiradi, bu esa fazoning ham chegarasi yo'qligini ko'rsatadi. Shunday qilib, fazo va vaqt harakatdagi materiyaning yashash usuli, materiya ga xos xususiyatlar fazo va vaqtga ham xosdir. Fazo o'z xususiyatiga ko'ra, uch o'lchovlidir: uzunligi, eni va balandligi. Vaqtning o'lchovi esa bitta: o'tmishdan bugungi kun orqali kelajakka tomon yo'nalish. Vaqt qaytarilmas va takrorlanmasdir. Materiyaning tuzilishi va xossalari haqidagi bilimlarimizning o'sishi kabi, fazo va vaqt to'g'risidagi bilimlarimiz ham cheksiz ortib boradi. Vaqtning takrorlanmasligi, orqaga qaytmasligi inson dunyoda bir martagina yashashini ko'rsatadi, unga ko'ra, inson o'z hayotini to'g'ri tashkil etishi, dunyodagi barcha narsalarga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lishi – inson hayotining ma'no-mazmunini tashkil etadi. Borliq va uning mavjudlik usullarini falsafiy o'rganishning ahamiyati shundaki, borliqqa xos bo'lgan yaxlitlik, haqiqiylik, ezgulik va go'zallik kabi xususiyatlarni anglash va idrok etish orqali tabiat-jamiyat-inson-koinotning yaxlit bir butunlik ekani, ularning bir-birini taqozo etishi va bir-birisiz mavjud bo'la olmasligi teran mushohada etiladi.

7-mavzu. FALSAFIY QONUN VA KATEGORIYALAR

(2 soat)

Reja

1. Taraqqiyot jarayonida takrorlanish tamoyili. Qonun va qonuniyat tushunchalari. Qonunlarning ob'ektivligi. Tabiat va jamiyat qonunlari. Falsafiy qonunlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyat dialektikasi. Ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik va ziddiyat tushunchalari. Ular o'rtasidagi aloqadorlik. Ayniyat va ziddiyat dialektikasining tabiat va jamiyat uchun ahamiyati.
3. Olamning mavjudligi - miqdor va sifat voqeligi tarzida. Miqdor va sifat tushunchalari. Me'yorning buzilishi va yangi sifatga o'tishi. Taraqqiyotning tadrijiy o'zgarish usuli va uning hozirgi O'zbekistonda namoyon bo'lish xususiyatlari.
4. O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili. Inkor tushunchasi. Inkorni inkor dialektikasi. Vorislik – eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida. Olam mavjudligi va o'zaro aloqadorligining alohida, xususiy va umumiy jihatlari. Butun va bo'lak, sistema, struktura va element - olam tuzilishining namoyon bo'lish shakllari sifatida. Ayrimlik, xususiylik va umumiylik, butun va qism kategoriyalari.
5. Mohiyat va hodisa voqelikdagi o'zaro bog'liqlikning ko'rinishlari sifatida. Mohiyat va hodisa kategoriyalari. Ularning tabiat va jamiyatda namoyon bo'lishi. Mazmun va shakl kategoriyalari, ularning tabiat va inson hayotida namoyon bo'lish xususiyatlari. Sabab va oqibat kategoriyalari.
6. Voqelikdagi zaruriy va tasodifiy jarayonlar. Zaruriyat va tasodif kategoriyalari, ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etish tamoyili. Zaruriyat va tasodifning namoyon bo'lish xususiyatlari. Imkoniyat va voqelik kategoriyalari, ularning mohiyati va mazmuni.

Qo'llanadigan ta'lim texnologiyalari. Mavzu zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi. Namoyish etish, "Bumerang" texnologiyasi, "Muammoli vaziyat", "Insert" usullaridan foydalanish.

Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi, rivojlanishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sir masalalari qadimdan bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Bu muammolar tahlili falsafada dialektika tushunchasi orqali ifodalangan. Dialektika fan yutuqlarini umumlashirish natijasida paydo bo'lgan, eng mukammal, chuqur va bir yoqlamalikdan xoli bo'lgan taraqqiyot, tabiat, jamiyat, insoniyat va tafakkurning harakati va taraqqiyoti umumiy qonunlari haqidagi ta'limotdir. Hodisalarning aloqadorligi, o'zaro bog'liqligi va

o‘zaro ta’siri rivojlanish tushunchasi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, olamdagi har bir sistema ular tarkibidagi elementlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasidir. Eng kichik zarradan Koinotga qadar barcha narsalar harakat va o‘zgarish va rivojlanishdadir. Ular o‘rtasida abadiy o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro ta’sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o‘z-o‘zidan, tasodifan ro‘y beradigan voqea, hodisa, harakat, o‘zgarish bo‘lmaydi. Harakat olamdagi har qanday o‘zgarish, butun mavjudotning yashash usuli bo‘lsa, rivojlanish quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi, to‘g‘ri chiziqli yoki spiralsimon shakldagi harakatdir.

O‘zgarish va taraqqiyot jarayonida voqea va hodisalar takrorlansa ham, bir-biridan farqlanadi. Mashoyixlar “hech qachon bir xil tong otmaydi” deydilar. Kechagi kun bugungisidan, bugungi kun ertangi kundan boshqacha, takrorlanmas. Bir kunning ichida sayyoramizda turli jarayonlar sodir bo‘ladi, minglab farzandlar tug‘iladi, qancha inson dunyodan ko‘z yumadi, dunyo bo‘ylab qanchadan-qancha axborotlar tarqatiladi va hakazo. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, olamning namoyon bo‘lishi turli darajada bo‘lgani uchun o‘zgarishlar ham turlichadir.

Olamdagi barcha narsa – tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma’lum qonunlar asosida amalga oshadi. Qonun – moddiy olamdagi turli narsa va hodisalar, jarayonlar va voqealarning muhim, zaruriy, umumiy, takrorlanib turuvchi bog‘lanishlari, o‘zaro aloqalari va munosabatlarning namoyon bo‘lishidir. Qonunning muhim belgisi narsa va hodisalardagi umumiy munosabatlarni ifodalashdir. Qonun muayyan hodisalarning ichki tabiati, uning mohiyatidan kelib chiqadigan moddiy dunyo, narsa va hodisalarning aloqalarini ham ifodalaydi. Qonunning nisbiy barqarorligi shundaki, u bir xil sharoitlarda muhim xususiyatlari sifatida tabiatdagi narsa va hodisalarda ham, ijtimoiy hayotdagi voqealarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Qonun ko‘p qirrali aloqalar va munosabatlar yig‘indisi bo‘lib, tabiat va jamiyatdagi xar qanday qonun voqealarning rivojlanish xususiyati va yo‘nalishini belgilab beradi, voqealarning oqimi qat’iy, aniq yo‘nalishda bo‘lishini taqozo etadi. Ma’lum bir sharoitda bo‘lishiga qaramay, bir o‘rinda bir xil, ikkinchi o‘rinda boshqa xil tarzda sodir bo‘ladigan jarayon va voqealarni qonuniy deb bo‘lmaydi.

Qonun muayyan bir sharoitda namoyon bo‘ladi, moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mavjudligi va rivojlanishi uchun ma’lum sharoit qonunning ko‘rinishi, harakati uchun ham majburiydir. Sharoit deganda voqelikdagi narsa va hodisaning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan obektiv omillar yig‘indisi tushuniladi. Qonun va sharoit bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir, ayni bir vaqtda ularni bir-biriga qorishtirib yoxud aynanlashtirib yubormaslik kerak. Sharoit o‘zgarishi bir qonunning boshqasi bilan almashinishi, harakat doirasining toraytirilishi yoki kengaytirilishiga olib keladi.

Har qanday qonun o‘zining uch jihati bilan tavsiflanadi:

- a) qonun ob’ektiv asosga ega bo‘lib, muhim zaruriy, umumiy va barqaror munosabatlarni ifodalaydi;
- b) qonuning harakati o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, voqealar rivoji qat’iy muayyan yo‘nalish natijasida tug‘iladi;
- v) qonun ma’lum bir shart-sharoitlarda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib qonun ilmiy nazariy va amaliy faoliyatda ob’ektiv o‘zaro aloqalarning barcha shakllarini sinchkovlik bilan hisobga olishni taqozo etadi. Bu

ularning ichida muhim, zaruriy, umumiy, barqaror aloqalarni belgilashga yordam beradi, ayni zamonda ob'ektiv qonunlarni tushunishga imkon beradi.

Tabiat va jamiyat qonunlari ob'ektiv jarayonlarni aks ettirishda farqlanadi. Tabiat qonunlari, er yuzidagi barcha qonunlar, jamiyat qonunlari kishilarning ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Jamiyat qonunlariga nisbatan tabiat qonunlari asta-sekinlik bilan o'zgarib boradi. Jamiyat qonunlari esa ma'lum bir davr mobaynida amal qilib, so'ngra, o'z o'rnini yangi qonunlarga bo'shatib beradi, ba'zilar o'z kuchini yo'qotadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi, kuldorlik, feodalizm va kapitalistik tuzumga xos qonunlar, o'zgarishlar bunga misol bo'lishi mumkin.

Harakat qilish doirasiga ko'ra qonunlar eng umumiy, umumiy va xususiy qonunlarga bo'linadi. Eng umumiy qonunlar turkumiga dialektika qonunlari kiradi. Bular miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, inkorni inkor qonunidir. Moddaning saqlanishi va bir turdan ikkinchi turga aylanishi qonuni, energiyaning bir turdan ikkinchi turga o'tishi qonuni umumiy qonunlardir. Pifagorning ko'paytirish jadvali, N'yutonning butun olam tortishish qonuni, ximiyadagi Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi kabilar xususiy qonunlardir.

Borliqdagi narsa va hodisalar qarama-qarshi tomonlarning birligidan iborat bo'lib, har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini o'zaro inkor etuvchi tomonlar, xususiyatlar va tamoyillarga ega. Masalan, elektr manfiy va musbat, tabiatda esa o'zaro tortilish va itarilish, tirik organizmda assimilyatsiya va dissimilyatsiya kabilardir.

Qarama-qarshiliklar va ularning o'zaro munosabati ayniyat, ziddiyat va ularning birligi jamiyat, ijtimoiy hodisalar, inson, uning faoliyati, hatto uning bilish jarayoniga ham xosdir. Narsa va hodisalardagi o'zaro o'xshash tomonlar birligi ayniyat deyiladi. Ayniylik narsa va hodisalarning tomonlari va xususiyatlarining birga mavjudligini ifodalaydi. Har bir narsa yoki hodisada ayniylik bilan birga tafovut ham mavjud bo'ladi. Tafovut narsa va hodisalarning farq qiluvchi jihatlarini ifodalaydi. Tafovutning rivoji ziddiyatning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Narsa va hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va o'zaro bir-birini inkor qiluvchi tomonlar o'rtasidagi munosabat ziddiyat deyiladi. Ziddiyat qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi kurash va rivojlanishning sababi, manbaidir. To'qnashuv narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlari keskinlashib, ularning eski chegaradan birgalikda yashashi mumkin bo'lmay qolgan holatini belgilaydi. Ziddiyatlar alohida sharoitlarda to'qnashuv bilan tugashi mumkin. Rivojlanishning har bir bosqichi o'ziga xos ziddiyat va turli qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal bo'lishidan iborat.

Ziddiyatning ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'lmagan, antagonistik va noantagonistik, umumiy va xususiy, zaruriy va tasodifiy, imkoniylik va qaqiqiylik shakllari mavjud.

Narsa va hodisalarning harakat mohiyatidan kelib chiqadigan ziddiyatlar ichki ziddiyat deyiladi. Turli narsa va hodisalar o'rtasidagi qarama – qarshiliklar tashqi ziddiyat deyiladi.

Hodisaning mavjudligi va rivojlanishi, vujudga kelishi va yo'q bo'lishi yoki yangi sifatning tug'ilishini o'z ichiga oladigan eng chuqur mohiyatini ifodalaydigan

ziddiyat asosiy ziddiyatlar deyiladi. Bosh ziddiyatlar deb rivojlanishning u yoki bu bosqichining mohiyatini belgilab beradigan ziddiyatlardir.

Antagonistik ziddiyatlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sinf, tabaqalar (jamiyat va alohida shaxslar o'rtasida, turli davlatlar, ijtimoiy-siyosiy sistemalar, siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlar) o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi.

Noantagonistik ziddiyatlar tub manfaatlar va maqsadlari umumiy bo'lgan 'tabaqalar, ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi munosabatlar, shahar bilan qishloq, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtasidagi mavjud bo'lgan tafovutlardir. Ziddiyatlar o'z vaqtida bartaraf etilmasa ularning keskinlashib borishi kutilmagan oqibatni keltirib chiqarishi mumkin.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunida ziddiyat markaziy o'rinni egallaydi. Bu qonunga muvofiq har bir narsa va hodisa bir-biri bilan uzviy aloqada va biri ikkinchisini istisno etuvchi qarama-qarshi tomon, kuchlarga ega. Bu ikki qarama-qarshi tomon va kuchlar o'rtasidagi kurash taraqqiyotning manbaini ifodalab, eskining yo'qolishi va yangining paydo bo'lishiga olib keladi. Narsa va hodisalardagi tafovut qarama-qarshiliklar asosini tashkil etadi. Masalan, magnitdagi shimoliy va janubiy qutblar, elektrning manfiy va musbat zaryadlari, atomdagi tortilish va itarilish, ijtimoiy hayotdagi yovuzlik va ezgulik o'zaro bir-birini inkor etadi, ayni vaqtda biri ikkinchisini taqozo etadi.

Hamma narsa va hodisalar ichki ziddiyatlarga va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tomonlarga ega. Hayotning o'zi ham qarama-qarshi jarayondirki, bunday xususiyatga ega bo'lishi bilan birga ular o'rtasidagi kurash mutlaqdir. Organizm yashab turgan vaqtda uning xujayralari to'xtovsiz o'lib, uning o'rniga yangilari paydo bo'ladi. Bu jarayon to'xtashi bilan organizm halok bo'ladi. Jamiyatda ham o'ziga xos ziddiyatlar mavjud. Ishlab chiqarish bilan iste'molchi, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy borliq bilan ijtimoiy ong o'rtasidagi ziddiyatlar ijtimoiy ziddiyatlardir. Bilish jarayoni ham bir-biriga qarama-qarshi va uzviy bog'liq bo'lgan hissiy va aqliy bilishdan iboratdir. Hissiy bilish orqali inson narsa va hodisaning faqat tashqi tomoni va xususiyati to'g'risida ma'lumot oladi, tafakkur orqali ularning ichki munosabatlarini belgilovchi qonuniyatlarni biladi. Bu erda hissiy va aqliy bilish bir jarayonning ikki ajralmas, ammo bir-biridan farq qiluvchi muhim tomonidir. Qarama-qarshi tomonlarning birligi nisbiy, o'tkinchi xususiyatga ega bo'lib, ular o'rtasidagi kurash mutlaqdir. Davr o'tishi bilan kurashning ba'zi shakllari yo'qolsa ham, qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi kurash davom etadi. Narsa va hodisalarni o'rganish jarayonida ularning bir-birlaridan o'zlarining turli xususiyat va sifatlari bilan farqlanishini ko'rish mumkin.

Sifat – narsa va hodisalarga nisbiy barqarorlik bag'ishlaydigan, ularning ichki muayyanligini ta'minlaydigan, bir narsa va hodisani ikkinchisidan farq qildiradigan barcha muhim belgi va xususiyatlar birligidir. Narsa va hodisalarning sifati ularning belgi, xossa, xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Sifat narsa va hodisaning umumiy tavsifini berib uning mohiyatini ifodalasa, belgi, xossa va xususiyat sifatning ifodasidir. Narsa va hodisaning muhim va nomuhim xususiyati o'zgarishi bilan uning sifati ham o'zgaradi.

Narsa va hodisalar bir-biridan nafaqat sifati, balki miqdori bilan ham farqlanadi. Narsa va hodisalardagi son, hajm, o'lchov, daraja kabi tomonlarining

muayyanligi miqdor deyiladi. Miqdor ham sifat kabi narsa va hodisalarning eng muhim tomonini ifodalaydi.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish masalasini hal etishda qadimgi yunon faylasuflari "yaltiroq bosh" va "g'aram" misollaridan foydalanganlar. "Agar boshdan bir dona soch tolasi yulib olinsa, bosh yaltirab qoladimi, agar g'aramdan bir dona urug' olinsa, u g'aramlik holatini yo'qotadimi? Yo'q! Bu holat bosh yaltiramagunicha, g'aram esa yo'q bo'lmagunicha davom etadi".

Narsa va hodisalar o'z mavjudligining ma'lum davrida sifat va miqdor birligini, ya'ni oldingi sifatlarini saqlaydilar. Bu davrda muhim bo'lmagan miqdor o'zgarishlari sodir bo'ladi. Bu vaqtinchalik jarayondir. Taraqqiyotning ma'lum bosqichida miqdor o'zgarishlari shunday darajaga etadiki, zaruran sifat o'zgarishlariga o'tadi. Masalan, misning harorati 600 gradus yoki 1000 gradusga etkazilganida ham, uning agregat holati o'zgarmaydi, harorat 1083 gradusga etganda mis eriy boshlaydi va yangi sifatiga o'tadi. Bunda narsaning eski sifat chegarasining buzilishi natijasida, uning oldingi me'yori ham o'zgaradi, ya'ni yangi sifat va miqdorga ega bo'lgan yangi me'yordagi narsa vujudga keladi.

Har bir narsa va hodisa muayyan miqdor va sifat birligidan iborat me'yorga ham ega bo'ladi. Me'yor narsa va hodisalarning miqdor va sifat birligini qamrab olgan chegara, sifat bilan miqdorning birligidir. Olam doimiy harakatda, o'zgarish va rivojlanishda ekan, narsalarning miqdoriy va sifatiy muayyanligi, ularning xossalari ham o'zgarish va rivojlanishdadir. Miqdor va sifat o'zgarishlarning aniq holatini bilish fan va ijtimoiy amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlariga ham egadir. Jumladan, miqdor o'zgarishlari doimiy yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi. Miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100 gradusgacha suyuqlik holatini yo'qotmaydi. Atmosfera bosimining ortishi va kamayishi suvning holati o'zgarishiga olib keladi. Miqdor o'zgarishlari jarayoni asta-sekinlik bilan o'tadi va ko'p hollarda (muayyan davrgacha) sezilmaydi. Sifat o'zgarishlari ancha tez, ayrim holatlarda to'satdan sodir bo'ladi. Sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga nisbatan tub o'zgarish hisoblanadi.

Demak, miqdor va sifat o'zgarishlarning bir-biriga o'tishini bilish faqat ilmiy bilish uchungina emas, balki amaliy faoliyat uchun ham katta ahamiyati bor. Rivojlanish jarayonidagi bir-biridan farq qiluvchi sifat va miqdor o'zgarishlari uzluksizlik va uzilishning birligi sifatida namoyon bo'ladi. Uzluksizlik – narsa va hodisalarning rivojlanishidagi miqdor o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Uzilish – o'zgarish va rivojlanish jarayonida narsa yoki hodisaning bir sifat muayyanligidan ikkinchi sifat muayyanligiga o'tishi demakdir. Uzluksizlikning uzilishi tufayli bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tish jarayoni falsafada sakrash deb yuritiladi. Sakrash narsa va hodisalarning butun uzliksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzliksiz rivojlanish jarayoni tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Miqdor va sifat o'zgarish jarayonida ruy beradigan o'zgarishlarni inqilobiy, portlash yo'li bilan bo'ladigan (revolyutsion) va asta-sekin tadrijiy (evolyutsion) yo'l bilan bo'ladigan sakrashlarga ajratishi mumkin. Sakrash jarayonida narsa va hodisalar

o'rtasida ziddiyatlar hal qilinadi, shuningdek, eski sifat bilan uning asosida harakat qiladigan qarama-qarshiliklar birligi tugab, qarama-qarshiliklar birligiga zid bo'lgan yangi sifat vujudga kelishi sodir bo'ladi. Demak, sakrash – eski sifatning inkor etilishi va yangi sifatning qaror topishidir. Har qanday narsa va hodisa yangilik bunyod bo'ladigan, eskilik barham topadigan elementlarni o'z ichiga olib, ikki qarama-qarshi tomonlarga bo'linadi. Sakrash ilg'or tomonning g'alabasi va konservativ (mutaassib) tomonning halokati, tugatilishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlari va ularning rivojlanish sharoitiga bog'liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o'tish turli shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa va hodisa o'zining aniq inkor qilish usuli va aniq sakrash shakliga egadir. Masalan, kimyoviy elementlarni biriktirish jarayonida tub sifat o'zgarishlar shiddat bilan, juda tez sodir bo'ladi. Ammo hayvonot va o'simlik dunyosi rivojlanish jarayonida eski sifatdan yangi sifatga o'tish asta sekin sodir bo'ladi.

Ijtimoiy hayotda tez sakrashga eski ijtimoiy tuzumni tugatib, yangi tuzumni o'rnatadigan inqiloblar misol bo'la oladi. Asta-sekin miqdor o'zgarishlari yo'li bilan sodir bo'ladigan sakrashlar eskini bir yo'la tugatish bilan emas, balki uzok vaqt davomida eski sifatni yangi sifatga aylantirish bilan tavsiflanadi. Bunday sakrashga hayotning, insonning paydo bo'lishi misol bo'la oladi.

Prezidentimiz I.Karimov rahnamoligida keng xalq ommasining ijobiy faoliyati, ijtimoiy-siyosiy faolligi natijasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotdagi jarayonlar o'z mohiyatiga ko'ra tub sifat o'zgarishlarga kiradi. Bu tub o'zgarishlar mavjud muammolarni asta-sekin bartaraf etish asosida kechadi. Shuning uchun ham ayrim paytlarda jamiyat taraqqiyoti sekinlashishi mumkin. Pirovard natijada dialektika qonunlariga binoan uning yangi sifatga o'tishi muqarrardir.

Inkorni inkor qonuni ob'ektiv olamning va bilishning turli sohalarda ko'plab uchraygan keng ta'sir doirasiga ega bo'lgan qonundir.

Agar erga bug'doy ekilsa, u issiqlik va namlik ta'sirida ko'karadi va undan o'simlik paydo bo'ladi. Endilikda bug'doy (don) o'zini (o'zi) inkor etadi. O'simlik o'sadi, gullaydi, changlanadi va nihoyat yangidan bug'doy (don) etishadi, tafakkur orqali ularning ichki munosabatlarini belgilovchi qonuniyatlarni bilinadi. Har bir jarayon inkor qilish jihatiga ega. Ichki ziddiyatlar tufayli taraqqiyot jarayoni ertami-kechmi eski narsaning emirilishiga va yangi narsaning vujudga kelishiga olib keladi. Vujudga kelgan bu yangi narsa eskining inkor qilinishidir. Taraqqiyot ham bir-birini almashtirib turadigan bosqichlardan iborat bo'lib, bir bosqich ikkinchi bosqich tomonidan, ikkinchisi esa uchinchi tomonidan inkor etiladi. Eskining emirilib, yangining paydo bo'lishi taraqqiyot jarayonida dialektik inkorning muhim va ajralmas jihatidir. Inkorning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha tavsiflanadi: birinchidan, eskining yangi tomonidan inkor etilishi – kishilarning ongi va irodasiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv jarayondir. Inkor sub'ektiv, tashqaridan kiritilgan fikr emas, balki ob'ektiv jarayon taraqqiyotining bosqichidir; ikkinchidan, dialektik inkor tashqaridan kiritilgan kuch yoki holat emas, balki narsa va hodisaning ichki rivojlanishi natijasi, o'zini-o'zi inkor qilishidir. Dialektik inkor narsani butunlay yo'q qilib yuboriladigan faoliyat bilan o'xshash emas, balki uning natijasida rivojlanish davom etishiga, yangi inkor sodir bo'lishiga imkon yaratiladi; uchinchi, dialektika

har bir narsa va hodisa uchun inkorning aniq turi mavjud deb hisoblaydi; to'rtinchidan, dialektik inkor to'liq inkor bo'lmasdan, balki eskini yangi bilan bog'lab turuvchi jarayondir. Dialektik inkor yangi bilan eski o'rtasidagi vorislikni tavsiflaydi; beshinchidan, dialektik inkor taraqqiyotning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga borishini tavsiflaydi, bir sifatdan boshqa sifatga o'tiladi.

Inkorni inkor jarayonida oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga qarab, ilgari lab boruvchi rivojlanish sodir bo'ladi. Shuning uchun inkorni inkor jarayonining xarakterli xususiyatlaridan biri uni orqaga qaytarib bo'lmasligidir. Yangi bilan eski o'rtasida o'zaro dialektik bog'lanish bo'lib, yangi qancha ilg'or bo'lmasin, u yo'q joydan paydo bo'lmaydi, balki eskining qobig'ida asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun eskidan yangiga o'tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari va rivojlanish davom ettiriladi. Yangi bilan eski o'rtasida vorislik mavjuddir. Inkor eskini emiribgina qolmay, oldingi rivojlanishdagi butun ijobiy tomonlarni umumlashtiradi, sintez qiladi, ya'ni o'tmishning ayrim elementlari olib tashlanadi, butunlay o'zgartirilib, yangi elementlar bilan yuqori bosqichda birlashtiriladi. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik (ilgari lab borish, an'anaviylik) va qaytariluvchanlik (davriylik, eskiga kaytish) birligini tavsiflaydi. Natijada taraqqiyot to'g'ri chiziqli emas, balki "burama" (spiralsimon) shaklda amalga oshadi.

Taraqqiyotning spiralsimon shakli birinchidan, inkorni inkorda, narsa va hodisalar abadiy o'zgarmasdan qola olmasligi, davrning o'tishi bilan har bir narsa va hodisa o'zgarishi, o'tmishda esa yangi sifat faqat emirilayotgan narsa zaminida paydo bo'lishini ochib beradi. Bu destruksiya deyiladi. Ikkinchidan, u emirilayotgan (inkor etilayotgan) narsa bilan paydo bo'layotgan yangi narsa o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ularning bir-biriga bo'lgan munosabatini ochib beradi. Bu kumulyatsiya deyiladi. Uchinchidan, inkor etilayotgan narsa oldin erishgan yutuqlar, uning rivojlanishga qodir bo'lgan ba'zi belgi va xususiyatlarni saqlab qolish, ulardan foydalanish asosida yuz beradi. Bu jarayonlarning birligi O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. Eskirgan ijtimoiy munosabatlarni dialektik izchillik va ziyraklik bilan o'z vaqtida bartaraf etish, bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi paydo bo'layotgan munosabatlarni o'z vaqtida payqash va ularni izchil rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti uchun imkoniyat yaratadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan va xalqimiz keng qo'llab-quvvatlayotgan bozor munosabatlari jamiyatimizda ildiz otgan xo'jasizlik, shahar va qishloqda mexnatni tashkil qilishning eski, samarasiz usullari, boshqarishning buyruqbozlik usullari, jamiyatga zarar etkazuvchi ekologik va ma'naviy buzilishlarning tugatilishiga olib keladi.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ruy berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o'zgartirishlar hamma narsani yangidan barpo etishni bildirmaydi. Aksincha, jamiyatimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yutuqlarni saqlab qolish, ularni yanada boyitib rivojlantirishdan iboratdir. Bu mazkur qonunning talabidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biridir.

Falsafa kategoriyalari. Kategoriya tushunchasi va uning turlari: fan kategoriyalari, xususiy ilmiy kategoriyalar, falsafa kategoriyalari. Falsafa kategoriyalarining tasnifi. Sistema, element, struktura. Sistemaning o'ziga xos xususiyatlari. Ayrimlik, yakkalik, xususiylik, umumiylik. Butun va qism. Yaxlitlik tiplari. Mazmun va shakl. Mohiyat va hodisa. Sabab va oqibat. Zaruriyat va tasodif. Imkoniyat va voqelik. Imkoniyatlarning turlari. O'zgarish, harakat, taraqqiyot va o'zaro aloqadorlik tushunchalari. Taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari, tabiiy, ijtimoiy va ilmiy taraqqiyot. I. Karimov O'zbekistonda istiqlol davri falsafasi haqida.

Qo'llanadigan ta'lim texnologiyalari: Mavzu zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi. O'rganishning hamkorlik modeli, namoyish etish, "Aqliy hujum", "baliq skeleti", B/B/B jadvali, bahs-munozara, "T - sxema" usullaridan foydalanish.

Dialektika – borliq xilma-xilliklari o'rtasidagi umumiy bog'lanish, aloqadorlik, harakat, o'sish, o'zgarish va rivojlanish to'g'risidagi ta'limotdir. Rivojlanish va taraqqiyot, o'zaro aloqadorliklar esa tabiat, jamiyat va inson tafakkuriga xos bo'lib, dialektika asosida borliq rivojlanishini o'rganish insonga uning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini berish bilan birga dunyoni o'zgartirish yo'llarini ham ko'rsatadi. Tabiatda ham, kishilik jamiyatida ham, inson tafakkurida ham hech bir hodisa yoki voqea o'zgarish yoki jarayon boshqa hodisa yoki voqealardan o'zgarish yoki jarayonlardan ajralgan alohida, ularga bog'liq bo'lmagan holda, ular bilan hech bir aloqadorliksiz mavjud bo'lmaydi. Aksincha, ularning barchasi doimo o'zaro bog'liqlikda bo'ladi, bir-birini taqozo qilib turadi.

Dialektik aloqadorlik va bog'lanishlar bir butun borliqni tashkil etgan narsa va hodisalar, shuningdek, ularga tegishli bo'lgan barcha belgi xossa yoki xususiyatlar o'rtasida ham mavjuddir. Aloqadorlik va bog'lanishlar borliqning turli sohalarida turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, makrodunyodagi bog'lanishlar sayyoralararo bog'lanishlar, organik olamdagi bog'lanishlar, kishilik jamiyatidagi bog'liqliklar va h.k. Dialektika o'rganadigan borliqning eng umumiy aloqadorliklari va bog'lanishlari falsafada quyidagi kategoriyalar orqali ifodalanadi: yakkalik, xususiylik, umumiylik, butun va qism, mohiyat va hodisa, sistema, struktura, element, mazmun va shakl, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik. Bu kategoriyalar mohiyatini birma-bir tahlil qilish orqali dialektikaning nechog'li serqirra ta'limot ekanli anglashiladi. Borliqdagi barcha narsa va hodisalarni o'rganish jarayonida ularning turli qismlar va bo'laklardan ham iborat ekanligi anglashiladi. Bu qism va bo'laklar o'zaro ma'lum qonuniyatlar asosida birikib, ma'lum tuzilishdagi narsalar, hodisalar yoki jarayonlar butunligini tashkil qiladi. Narsa va hodisalarning ma'lum bir guruhining o'zaro birikishi sistemani hosil qiladi. Sistema muayyan strukturaga ega bo'lib, elementlardan iborat bo'ladi. Butun, qism, sistema, struktura o'zaro dialektik bog'lanish va aloqadorlikda bo'ladi.

Butun – o‘zaro dialektik aloqadorlikda bo‘lgan qismlar, bo‘laklar, tomonlar, elementlar, komponentlarning uzviy birligidan iborat bo‘lgan narsa, hodisa yoki jarayondir. Masalan, olam bir butundir.

Qism – butun tashkil etgan uning tarkibidagi bo‘lak, element, komponentlardir. Masalan, bir butun olamning bir qismi tabiatdir.

Butunni qismdan ajratib bo‘lmaganidek, qism ham butun bilan birga bo‘ladi. Butunga xos xususiyatlar qismning xususiyatlar asosida tarkib topadi, va aksincha, butunning xususiyatlari qismning xususiyatlarini belgilaydi. Butunni tashkil etgan qismlar o‘zaro bir-biri bilan ta’sir va aks ta’sir holatida bo‘ladi. Butun va qism kategoriyalarini bilish olamning birligi muammosi va pirovard oqibatda butun borliqning mohiyatini to‘g‘ri anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Borliq mohiyatining o‘ziga xosligi undagi narsa va hodisalar sistema, struktura va element aloqadorligiga ega bo‘lishdir. Sistema – borliqdagi narsa va hodisalarning o‘zaro tartibli, izchil holda bog‘liq bo‘lib, bir-biriga ta’sir va aks ta’sir oqibatidagi qonuniy birligidir. Struktura – sistemani tashkil etuvchi narsa, hodisa yoki jarayonlarning tartibli tuzilishi, ketma-ketligi, tarkibi, joylashishi va ifodalanishidir. Struktura sistemaning tub xususiyati bo‘lib, muayyan elementlardan tashkil topadi. Element – sistema strukturasini tashkil etgan, nisbiy mustahkamlikka ega bo‘lgan tuzilmadir. Har bir sistema o‘z strukturasiga mos keladigan va o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir qancha elementlardan iborat bo‘ladi. Borliqning bir butunlik mohiyati sistemalilik bilan ham bog‘liq. Chunki, sistemalar birligi borliq butunligining asosini tashkil etadi. Sistemaning qaror topishida uning strukturasini muhim o‘rin tutadi, ya’ni sistema strukturasiz bo‘lmaydi. Struktura narsa va hodisaning bir xil yoki har xil jinsliliigi, uni muayyan elementlarga bo‘linishi, narsa va hodisalar tashkil etgan elementlarning o‘zaro bog‘liqligi, ta’sir va aks ta’sir etib turishi, ularning yaxlitligi va bir butunliliigi, elementlarning o‘zaro bog‘liqligi, ular o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lishini ifodalaydi. Keyingi yillarda ilmiy-tadqiqot ishlarida bilish ob’ektiga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil etish usuli keng qo‘llanilishi tadqiqot ob’ektini chuqurroq o‘rganishga imkon bermoqda.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqadorlikni ifodalab, ularning mavjud bo‘lish shaklini tashkil etadi. Yakkalik – alohida narsa yoki hodisagagina xos bo‘lgan, uni boshqasidan ajratuvchi alohida belgi va xususiyatlar birligidir. Yakkalik narsa va hodisaning betakror tomon, jihat, belgi, xossa va xususiyatlarini aks ettiradi. Yakkalik barcha narsa va hodisalarga tegishlidir. Ko‘pchilik narsa va hodisalarga xos bo‘lgan o‘zaro o‘xshash, bir xil takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar umumiylik deb ataladi.

Yakkalik va umumiylik bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bir birini taqozo qilib turadi, ya’ni yakkalik bor joyda umumiylik mavjud bo‘ladi va aksincha. Yakkaliksiz umumiylik bo‘lmaganidek, yakkalik mavjud bo‘lishi uchun umumiylik bo‘lishi shart. Narsa va hodisalarga xos alohida maxsus xususiyatlar xususiylik deyiladi. Xususiylik kategoriyasi yakkalik va umumiylik o‘rtasidagi o‘ziga xoslikning mavjud bo‘lishini anglatadi. Masalan, “Mustaqil O‘zbekiston”, “O‘zbekistonda mustaqil taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘li”, “Demokratik, huquqiy jamiyat qurayotgan davlat” tushunchalarida, yakkalik, xususiylik, umumiylikning birligini ko‘rish mumkin (Yoki soddaroq tushuntirsak, “Olimov Nodir”, “1u-08

guruhi talabasi Olimov Nodir”, “Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti talabasi”).

Har qanday yangilik dastlab yakkalik sifatida vujudga kelib, so‘ng esa xususiylik va keyinchalik umumiylik xarakterini kasb etadi. Yakkalik, xususiylik va umumiylik dialektikasini to‘g‘ri bilish muhim gneseologik ahamiyatga ega bo‘lib, har qanday bilish yakkalik va xususiylikdan umumiylikni bilishga tomon boradi, bilish jarayonida bu tushunchalar yangi dalil va ma’lumotlar yordamida boyib, chuqurlashib boradi, borliqning mohiyati yanada teranroq tafakkur qilinadi.

Mohiyat – narsa va hodisaning ichki eng muhim o‘zaro bog‘lanishlari va ularning qonuniy aloqadorligini ifodalaydi, hodisa narsa va hodisalarning tashkil etuvchi tomonlar xususiyatlar va bog‘lanishlarning namoyon bo‘lish shakli, mohiyatining ifodalanishidir. Masalan, inson hayotining mohiyati uni sermazmun o‘tkazish, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi tomon intilishidan iborat bo‘lsa, hodisa ana shu maqsadga erishish uchun tanlangan yo‘l, turli sa’y-harakatlardir. Mohiyat va hodisa umumiy va xususiy jihatlariga ega bo‘lib, mohiyat ichki aloqalarni, hodisa esa tashqi aloqalarni ifodalaydi. Mohiyat va hodisa doimo o‘zaro birlikda, ayni paytda bir-biriga qarama-qarshi hamdir. Mohiyat hodisada yashirin bo‘ladi. Hodisada mohiyat namoyon bo‘lsa ham, ba’zan unga to‘liq mos kelmaydi. Bunday qarama-qarshilik narsalarning tabiatidan kelib chiqadi va bilish jarayonida hech qanday mantiqiy zidlikni keltirib chiqarmaydi. Mohiyat hodisaga nisbatan doimiy va barqarorqdir. Mohiyatning doimiyligi va barqarorligi hodisaning o‘zgaruvchanligi kabi mutlaq emas, nisbiydir. Mohiyat ham, hodisa ham o‘zgaradi, faqat mohiyat hodisaga nisbatan sekinroq o‘zgaradi.

Mohiyat va hodisa umumiy tomonlarga ham ega bo‘lib, har qanday mohiyat hodisada namoyon bo‘ladi. Hodisa esa hamisha mohiyatning u yoki bu holdagi ko‘rinishidir. Mohiyat ham, hodisa ham ob’ektiv xarakterga ega, ya’ni ularning mavjud bo‘lishi inson ongiga bog‘liq emas. Mohiyat ham, hodisa ham doimo dialektik o‘zgarish va rivojlanishda bo‘ladi. Mohiyat va hodisa kategoriyalarini bilish fan va amaliyotda muhim ahamiyatga egadir.

Mazmun – narsa va hodisalarga aynanlik bag‘ishlovchi o‘ziga xos jihatlar, jarayonlar, muhim elementlar va o‘zgarishlarning yig‘indisini aks ettiruvchi tushunchadir. Shakl – mazmunning tashqi ko‘rinishi, uning mavjud bo‘lish usuli, mazmun strukturasi, ya’ni tuzilishini ifodalovchi narsa va hodisalarning ichki va tashqi tomonlarining birligidan iborat. Har bir narsa va hodisa mazmun va shaklga ega bo‘ladi. Mazmun va shakl dialektik bog‘langan bo‘lib, mazmunsiz shakl va shaklsiz mazmun bo‘lmaydi. Mazmun va shakl muayyan narsa va hodisaning uzviy aloqador bo‘lgan ikki tomoni bo‘lib, mazmun va shaklning o‘zaro birligida mazmun shaklni belgilaydi, borliqdan ajralgan sof mazmun ham, sof shakl ham bo‘lmaydi.

Bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa sabab deyiladi. Sababning ta’siri natijasida yuz bergan hodisa oqibat deyiladi. Voqelikdagi hech bir hodisa sababsiz ro‘y bermaydi, ayni paytda, bir hodisa boshqa hodisaning yuz berishi uchun sabab ham bo‘lishi mumkin. Sabab va oqibatning o‘zaro ichki bog‘liqligi, bir hodisa ketidan albatta ikkinchisi kelishi va ular sabab-oqibatli bog‘lanishi sababiyat deb ataladi. Sababiyat borliqda umumiy xarakterga ega bo‘lib, sababsiz oqibat bo‘lmaydi, hamma narsaning o‘z sababi bor, sababi noma’lum hodisalarning borligi

ularning sababi yo'qligini anglatmaydi, balki hozircha fan va amaliyotda uning sababini aniqlash imkoni bo'lmaganligini bildiradi. Ijtimoiy amaliyot jarayonida bunday hodisalarni keltirib chiqargan sabab keyinchalik albatta aniqlanadi. Sabab va oqibat vaqt jihatidan doimo ketma-ket ro'y beradi. Sabab oqibatdan oldin, oqibat esa sababdan keyin keladi, ya'ni sabab hamisha oqibatni keltirib chiqaradi. Narsa va hodisalarni ilmiy bilishda sababni bahonadan farqlash lozim. Bahona odatda oqibatdan oldin ro'y beradigan biron hodisa bo'lsa ham, uning sababi bo'la olmaydi. Bahona oqibatning sodir bo'lishi uchun turtki bo'lishi mumkin, biroq, uning sababi ancha chuqurroqda bo'ladi. Bahona esa shu ma'noda juda yuzaki hodisadir. Masalan, darsda talaba tomonidan olingan yomon bahoning sababi, chiroq o'chib qolib dars qilmaslik, kitobning yo'qligi kabi bahonalarda emas, balki talabaning dangasaligi, darslarga mas'uliyatsizligidir. Tabiatda barcha narsa va hodisalar o'zining ob'ektiv sabablari asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Jamiyat rivoji tabiat rivojidan farqlanadi. Jamiyat rivoji ob'ektivlik bilan sub'ektivlikning birligidan iborat. Insonning orzu-maqсадlariga erishuvi tashqi ob'ektiv sabablar bilan birga ichki sub'ektiv sabablar, ya'ni bu yo'lda tinmay intilish, kuch-g'ayrat va bilimlarni sarflash kabilar ongli faoliyati birligi natijasida ruy beradi. Dialektikaning sabab va oqibat kategoriyasini to'g'ri anglash chuqur nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Muayyan sharoitda qat'iy ravishda kelib chiqadigan, o'z ichki bog'lanishlariga ko'ra kelib chiqishi muqarrar bo'lgan voqea yoki hodisa zaruriyat deyiladi. Tasodif narsa va hodisalarning mohiyati bilan bog'liq bo'lmagan tashqi nomuhim omillar bilan bog'liqligi tufayli ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo'lgan voqea yoki hodisalardir. Zaruriyat va tasodif o'zaro bog'liq bo'lib, borliqdagi narsa va hodisalar rivojlanishining ikki tomonidir. Zaruriyat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, zaruriyatning sababi o'zida, uning ichki mohiyatidan kelib chiqadigan, narsa va hodisalardagi muhim va takrorlanib turuvchi ichki aloqadorlik natijasi, avvalgi rivojlanishning davomi, albatta ro'y berishi kerak bo'lgan umumiy xarakterga ega va doimo qonuniydir. Tasodif zaruriyatdan farqli o'laroq, muayyan sharoitda ro'y berishi ham, ro'y bermasligi ham mumkin, tasodif narsa yoki hodisaning mohiyatidan kelib chiqmaydi, u beqaror va vaqtinchadir. Tasodifning sababi tashqi shart-sharoitidadir. Tasodif juz'iy, xususiy xarakterga ega, rivojlanishga belgilovchi ta'sir ko'rsata olmaydi, shuning uchun qonuniy emas. Zaruriyat va tasodif borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikning bir shakli bo'lib, ob'ektivdir, ya'ni ularning sodir bo'lishi inson xohishiga bog'liq emas. Zaruriyat va tasodif dialektik bog'liq bo'lib, ular bir-birisiz, alohida bo'lmaydi. Bugungi kunda fanning vazifasi aloqadorlik va bog'lanishlar orasidan ichki zaruriy aloqadorliklar bilan birga bu tizimdagi tashqi tasodiflarni ham aniqlashdan iboradir.

Voqelik – real mavjud bo'lgan, yashab faoliyat kechirayotgan narsa va hodisadir. Biroq, hech bir hodisa rivojlanishi davomida birdaniga paydo bo'lmaydi, balki dastlab imkoniyat davrini boshdan kechiradi. Har bir voqelik paydo bo'lishidan oldin imkoniyat holatida mavjud bo'ladi.

Imkoniyat – voqelikning kurtak holatdagi ko'rinishi, hali yuzaga kelmagan voqelikdir. Imkoniyat va voqelik dialektikasi ongdan tashqari ob'ektiv olamdagi bog'lanishlar shaklidir. Imkoniyatlar doimo real va mavhum bo'ladi. Real imkoniyatlar muayyan shart-sharoitlarda doimo voqelikka aylanadi. Mavhum

imkoniyatlar kurtakligicha qolib, voqelikka aylanmaydi. Imkoniyatlar yangi, endi vujudga kelayotgan, rivojlanayotgan hamda eski umri tugab borayotgan real kuchlar sifatida progressiv va konservativ ham bo'lishi mumkin. Imkoniyatlar voqelikka birdaniga aylanmaydi, balki eski voqelik bag'rida kurtak ortadi va rivojlanib, muayyan sharoitda voqelika aylanadi. Ijtimoiy taraqqiyotda imkoniyatlarning voqelikka aylanishi va uni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jamiyat imkoniyatlarining ruyobga chiqishida sub'ektiv omil (kishilarning ongli aktiv amaliy faoliyati)ning ahamiyati kattadir. Sub'ektiv omil muayyan shart-sharoitga tayanadi va usiz hech narsa qila olmaydi, chunki shart-sharoit imkoniyatning voqelikka aylanishida sub'ektiv omilga nisbatan birlamchi va belgilovchidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasining mohiyati, ularning o'zaro aloqadorlik, munosabatini o'rganish va bilish fan va amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni farqlamasdan aralashtirib yuborish yo'q narsani bor deyishga, yoki yangining eski ustidan g'alabasini tushunmaslikka olib boradi.

Bilishning umumiy qonunlarini to'liq anglamasdan dialektika kategoriyalarining mazmun-mohiyatini tushunish mumkin emas. Kategoriyalar voqelikka xos umumiy xususiyatlar, aloqadorlik, o'zaro munosabatlarni ifodalashi bilan birga olamning yashash va taraqqiyot dialektikasini ifodalaydi hamda dunyoni ilmiy bilishda nazariy va uslubiy ahamiyatini ko'rsatadi.

8-mavzu. BILISH FALSAFASI

(2 soat)

Reja

- 1. Bilim va bilish falsafiy tahlil mavzusi sifatida. Bilish - gnoseologiyaning asosiy kategoriyasi. Bilim - bilishning maqsadi hamda asosiy natijasi. Bilish ob'ekti va sub'ekti.**
- 2. Inson bilishining asosiy bosqichlari: hissiy va aqliy bilish. Sezgi, idroq, tasavvur, tushuncha, hukm va xulosa. Oldindan ko'rish, intuitiv bilish, g'oyibona bilish, taxmin, faraz va ilmiy bashorat. Mantiqiy bilish va uning o'ziga xos jihatlari.**
- 3. Ilmiy bilishning mohiyati va uslublari. Usul (metod), nazariya va uslub (metodologiya). Umumiy va maxsus ilmiy uslublar. Bilishda empirizm va ratsionalizm. Amaliy va nazariy tadqiqotning uslub va vositalari.**
- 4. Haqiqat tushunchasi. Haqiqatga erishish - bilishning asosiy maqsadi. Haqiqatning turli shakllari: mutlaq, nisbiy va sarob haqiqatlar. Haqiqatning aniq-ravshan (konkretiligi) haqiqat mezon.**

Hozirgi davrda bilish va haqiqat muammosi, uni o'rganish zarurati.

Gnoseologiya – bilish falsafasi. Bilish nazariyasining predmeti va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Gnoseologiyaning mazmuni va mohiyati. Bilim va bilish falsafiy tahlil mavzusi sifatida. Bilish tushunchasi. Gnoseologiyaning asosiy kategoriyasi. Bilim – bilishning maqsadi hamda asosiy natijasi. Bilish ob’ekti va sub’ekti. Sub’ektning faolligi va bilimning ob’ektivligi. Inson bilishining asosiy bosqichlari: hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish. Hissiy darajadagi bilim va uning shakllari: sezgi, idrok, tasavvur. empirik bilish shakllari: kuzatish, eksperiment, ilmiy dalil. Nazariy bilish shakllari: ilmiy muammo, muammo va masala. Muammoli vaziyatning bilish jarayonidagi roli, gipoteza, tamoyillar, kategoriyalar, paradigmlar. Tafakkur va uning mohiyati, shakllari. Tushuncha, hukm va xulosa. Intuitsiya va ijod. Intuitsiyaning bilish jarayonidagi roli. Oldindan ko‘rish, intuitiv bilish, g‘oyibona bilish, tahmin, gipoteza va bashorat qilish. Ilmiy bilishning mohiyati va usullari. Haqiqat tushunchasi. Haqiqatga erishish – bilishning asosiy maqsadi. Haqiqatning turli shakllari: ob’ektiv, mutloq, nisbiy va konkret haqiqatlar. Hozirgi davrda bilish va haqiqat muammosi, uni o‘rganish zarurati. Amaliyot-bilish mezon, sinov toshi.

Bilish metodologiyasi. Metod, nazariya va metodologiya. Umumiy va maxsus ilmiy usullar. Metodlarning tasnifi. Fan metodlari: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash. Falsafa metodlari: dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika. Amaliy va nazariy tadqiqotning usullari va vositalari. Sinergetika tushunchasi. Sinergetika va uning asosiy tamoyillari: bifurkatsiya, fluktatsiya, dissipativ tizim, attraktor. Sinergetikaning tabiiy va ijtimoiy jarayonlardagi namoyon bo‘lish xususiyatlari. Xozirgi zamon metodologiyasi: kumatoid, keys stadi, abduksiya. Axborotlashuvning falsafiy asoslari. Axborot, axborotlashgan jamiyat, axborot texnologiyalari tushunchasi. Informatsiyaning boshqaruv jarayon bilan aloqasi. Ijtimoiy axborot. Ilmiy axborot. Ilmiy axborot yangi bilim qabul qilish shakli. Informatika va axborot texnologiyalari. Nanotexnologiyalar. Axborot inqilobi. Jamiyatning axborotlashuvi kontseptsiyasi.

Qo‘llanadigan ta’lim texnologiyalari: Mavzu zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o‘tkaziladi. O‘rganishning hamkorlik modeli, namoyish etish, "Aqliy hujum", "Muammoli vaziyat", "Blits-so‘rov", bahs-munozara, dialog va savol-javob usulidan foydalanish.

Insonning o‘zini qurshab turgan dunyoga bo‘lgan munosabatidan biri bilishdir. Gnoseologiya bilishning falsafiy muammolari bilan shug‘ullanadi. Inson hayoti davomida tashqi dunyo, ya’ni tabiat va jamiyatni bilib qolmasdan, balki o‘zini, o‘zining ruhiy-ma’naviy dunyosini ham bilib boradi.

Falsafa paydo bo‘lganidan boshlab, inson bilishning tabiati va mohiyati nimada, uning eng umumiy qonuniyati va xususiyati nimadan iborat, degan savollarga javob izlagan. Shu sababli, falsafada inson bilishining falsafiy muammolari bilan shug‘ullanmagan falsafiy oqim, faylasuf yo‘q. Aksincha, hamma falsafiy oqim va yo‘nalishlar bilishga oid qarashlar tizimini ishlab chiqqanlar.

Natijada falsafada inson bilishining tabiati va mohiyati haqida turli ta'limot va qarashlar kelib chiqdi.

Bir guruh faylasuflar inson va uning ongidan tashqari dunyo mavjud emas, dunyo faqat bizning ongimizda, sezgi va idroklarimiz yig'indisidan iborat, biz o'z sezgi va idroklarimiznigina bilamiz xolos, deydilar.

Ikkinchi guruh faylasuflar insoning dunyoni va o'zini bilishiga shubha bilan qarab, inson dunyoni to'liq bila olmaydi, inson bilimi cheklangan, deb dunyoni bilish mumkinligini butunlay inkor qiladilar.

Dunyoni bilishni qisman yoki butunlay inkor qiluvchi falsafiy ta'limot agnostitsizm deb ataladi. Angliyalik faylasuf David Yum va nemis mumtoz faylasufi Immanuel Kant agnostitsizmning yorqin namoyandalaridir.

David Yum fikricha, bilish ob'ekti bilimlarimizning manbai ob'ektiv borliq emas, balki sub'ektiv sezgi va idroklarimizdir. Inson o'z hissiyoti bilan ish ko'rgani uchun tashqi olamni bila olmaydi. Ishonchli bilimga ega bo'lish predmeti – matematik ob'ektlardir. Tadqiqodning boshqa hamma predmetlari mantiqiy jihatdan isbotlab bo'lmaydigan faktlarga taaluqlidir, ular faqat tajribadan xulosa qilib chiqariladi. Olingan bilimlarning asosiy vazifasi olamni turli manzarasini payqab olishdan iboratgina emas, balki o'sha ma'lumotlarni amaliyotga qo'llay bilishdagi ahamiyati bilan belgilanadi.

Nemis faylasufi I.Kant fikricha, inson olamdagi turli voqea-hodisalar mohiyatini faqat o'z hissiyoti doirasida mavjud bo'lgan va unga to'g'ri keladigan narsalarni bilib oladi. Kant ob'ektiv borliqning inson va uning ongidan tashqarida mavjudligini e'tirof etib, narsa va hodisalarni “narsalar biz uchun” va “narsalar o'zida”ga ajratadi.

Kant fikricha, inson “narsalar biz uchun”ni bilishga qodir, “narsalar o'zida”ni bilishga qodir emas. “Narsalar biz uchun” – insonni qurshab turgan narsa va hodisalaridir. “Narsalar o'zida” – Yaratuvchi, erkinlik, hayot, o'lim, yo'qlik kabilardir. Ularni inson hech qachon mukammal bilmaydi.

Kant o'z bilish nazariyasida e'tiqodga alohida o'rin berib, uni mustahkamlash uchun aqlni tanqid qiladi va uning imkoniyatini cheklaydi. Kant inson aqlini nazariy va amaliy aqlga bo'ladi. Uning fikricha, amaliy aql cheklangan, inson tajriba va amaliyot bilan har qanday narsa va hodisalarni bilishga ega bo'lmaydi. Inson bilishida insonning tajribasigacha unda aprior (apriori – tajribadan oldin) bilimlar bo'ladi. Ular tug'ma bilimlardir. Inson aqli bu bilimlarga tajribagacha ega bo'ladi, falsafiy bilimlar aynan aprior bilimlardan iboratdir. Olam, uning rivojlanish qonunlari, mohiyatini bilish insonga ato qilinmagan.

Ilm-fan yutuqlariga asoslangan faylasuflar insonning dunyoni va o'z-o'zini bilishini e'tirof etganlar. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Bakr Roziy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy o'z asarlarida insonning dunyoni va o'zini bilish masalasi haqida to'xtalib, inson tabiat va jamiyat hamda o'zini bilishga qodirligi, inson bilishi sezgi va idrokdan boshlanib, tafakkurga tomon rivojlanib borishi, inson aqli bilishning asosiy quroli ekanligi, aqlning faolligi, inson bilishining ma'lum narsalardan noma'lum narsalar tomon rivojlanib borishini ta'kidlaganlar. Ular aqlni

sezgiga, aqliy ob'ektlarni hissiy ob'ektlarga nisbat berib tahlil etadilar. Aql va sezgi haqiqatga olib boruvchi yo'l deyilar.

Ibn Sino ichki kuchlarning o'rni inson miyasida, ular besh sezgidan iborat, deydi. Bu avvalo umumiy sezgi kuchi (idrok) bo'lib, miyaning oldingi qorinchasida joylashgan. Eslash kuchi oldingi miya qorinchasining orqa tomonida joylashgan. Tasavvur kuchi oldingi miya qorinchasida, fahmlash kuchi o'rtacha miya qorinchasining oxirida, xotira kuchi miyaning orqa qorinchasida joylashgan. Ichki kuchlar, ya'ni aqliy bilishning shakllari barcha ma'lumotlarni moddiy olamdagi narsa va hodisalarning bevosita inson sezgi a'zolariga ta'siri natijasida paydo bo'lgan hissiy bilishning turli shakllaridan oladi.

Ibn Sino hissiy bilish jarayoni inson qalbida yashiringan ichki bilimni bilish uchun etarli emasligini e'tirof etib, aqliy bilimlarni qalbdagi ichki bilimlarga bog'laydi. Uning fikricha, aqliy bilimlar ikkiga bo'linadi. Aqliy bilimning quyi shakli tana ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa, uning oliy shakli inson qalbidagi ichki bilim bilan bog'liqdir.

Aqliy bilishning bunday shakli faol aql bo'lib, u jonning faoliyatidir va individual aqldan keskin farq qiladi, chunki faol aql orqali inson ruhi olamiy ruhga bog'lanadi, inson joni esa olamiy jon visoliga etishadi. Demak, faol aql aks ettirish emas, balki iroda kuchidir.

Ibn Sino faol aql timsolini "Hayy ibn Yaqzon" asarida kengroq ochib bergan: "Shaytonning ikki shoxi bo'lib, uning bir uchi yuqoriga ko'tarilgan, ikkinchisi erga qaratilgan. Bu shoxlarning o'rtasida esa quyosh porlab turibdi. Shaytonning erga qaratilgan shoxi insonning hissiy bilishidir. Osmonga ko'tarilgan shoxi esa insonning aqliy, mantiqiy bilishidir".

O'z-o'zidan shaytonning o'zi nima, degan savol tug'iladi. Ibn Sino fikricha, shayton "inson tabiatida yashiringan psixik kuch", ya'ni u ong osti hissiy va aqliy bilishni boshqaradi. Shoxlar o'rtasidagi quyosh esa insonning ilohiy ongi, qalbiy bilishdir. Demak, ichki bilim inson qalbida yashiringan ilohiy bilim bo'lib, inson bu bilimga aql orqali erisholmaydi, faqat doimiy zikr holatida ilohiy eshitish va ilohiy ko'rish orqali erishish mumkin, ya'ni ichki bilim inson ruhining intilishi, hayotiy jo'shqinligi natijasida yuzaga chiqadi va inson aqlining rivoji, asrlar davomida yuzaga kelgan ilmiy bilimlardan tubdan farq qilsa-da, ularni inkor etmaydi.

Bilish jarayonida ratsional va irratsional bilimlar tana va ruh singari ajralmas, bir-birini to'ldiradi.

Tasavvuf ahli fikricha, "bilimlar bilishning natijasi va bilish odamning o'zini bilishdan boshlanib, Allohni bilish bilan tugaydigan jarayondir". Bilishning asosiy tayanchi Qur'on bo'lib, olam aql va qalb bilan bilinadi.

Aql ongdagi bilim bo'lsa, qalb ilohiy ilm mazhari, aql va qalb bir-birini to'ldiradi. Inson dunyoni va o'zini bilishi uchun ma'naviy kamolotga erishmog'i lozim. Kamolotga erishmagan inson olamni bilishi mumkin emasligini e'tirof etib, "Alloh yaratgan olam qonuniyatlari, asroru hikmati, haqiqatlarini inson aqligina butkul qamrab ololmasligi", shunga qaramay, inson butun borliqni birlashtiruvchi ilohiy kuchni o'z qalbida kashf etishi, o'z maslak, e'tiqodi orqali haqiqatga erishishi, olamni bilishga inson aqli qodir emasligi, mantiqiy mulohaza orqali olam sirlarini bilib bo'lmasligi, ammo buyuk Yaratuvchining mavjudligini inson o'z qalbi orqali

atrofdagi hodisalar, tabiat mo'jizalarini mushohada qilish, kuzatish, o'rganish orqali anglashi va idrok etishini ta'kidlaganlar.

Demak, inson olamni komil axloq, ezgu fazilatlarini, ma'naviy pokligi va ilmu hikmati bilan anglashi mumkin.

XVII-XVIII asr ma'rifatparvarlarining insonning dunyoni va o'zini bilishi haqidagi qarashlari ham diqqatga sazovor. Ingliz faylasufi F.Bekon inson bilishi sezgilaridan boshlanishi, tajriba bilishning manbai ekanligi, sezgilar orqali olingan dalillar inson tafakkuri yordamida qayta ishlanishi, inson bilishi jarayoni fan va amaliyot bilan bog'liq ekanligini e'tirof etgan. Fransuz faylasufi R.Dekart fikricha, insonning dunyoni va o'zini bilishining birdan-bir to'g'ri yo'li tafakkurdir.

Didro, Golbax, Gelvetsiy, Volter, Lametriy insonning bilishi haqida to'xtalib, sezgilar inson bilishining quyi va boshlang'ich bosqichi hamda tafakkurning asosi ekanligi, tafakkur esa bilishning eng yuqori va murakkab bosqichi ekanligini ta'kidlaganlar.

Nemis mumtoz falsafasi asoschisi F.Gegel inson bilishini "mutlaq ruhning inson qiyofasida o'z-o'zini anglashi" deb hisoblaydi. Nemis mumtoz falsafasining so'nggi vakili L.Feyerbax insonning dunyoni bilishini e'tirof etib, dunyo insondan va uning ongidan tashqarida mavjud, inson bilishi tabiatning uning sezgilari va tafakkuridagi to'g'ri in'ikosi ekanligini aytadi. "Insonda dunyoni bilish uchun qancha sezgi a'zosi kerak bo'lsa, shuncha sezgi a'zolari bor. Sezgilar bilish jarayonining boshlang'ich bosqichi bo'lib, sezgi a'zolari insonni tashqi dunyo bilan bog'laydi. Sezgi a'zolari insonni tabiat bilan tanishtiradi, lekin uni izohlamaydi".

Yangi falsafiy nazariyalar talqiniga ko'ra, insonning dunyoni va o'zini bilish imkoniyati va darajasi ijtimoiy sharoit, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ularning ehtiyojlari, ishlab chiqarish munosabatlarining darajasi bilan bog'liqdir. Turli ijtimoiy-iqtisodiy davrlardagi kishilarning bilish darajasi fan taraqqiyoti, texnika rivojining darajasi va ko'lami, jamiyat ishlab chiqarish uslubi qo'ygan vazifalari bilan belgilanadi. Inson dunyoni va o'zini bilish bilan cheklanmaydi, balki bu bilish natijasida hosil qilgan bilimlari orqali u tabiat va jamiyatni, dastavval, o'zini, o'z ongini, o'z ma'naviy dunyosini o'zlashtiradi va o'zgartiradi.

Bilish – "insonning olam, tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyati"dir. Insonning bilish qobiliyati, bilish imkoniyatlari, cheklanmagan balki insonning bilish imkoniyatlari fan va amaliyotning rivojlanishi bilan ortib boradi.

Insonning bilishi faqat konkret avlod hayoti uchun cheklangan bo'lsa ham, butun insoniyat hayoti uchun cheksizdir, inson cheksiz dunyoni cheksiz bilib boradi. Dunyoda inson bilib olgan va hali bilib ulgurmagan narsa va hodisalarning tomonlari, xususiyatlari bor, lekin bundan inson ularni bilishi mumkin emas, degan ma'no kelib chiqmaydi. Ma'lum davr, ma'lum vaqtda inson bilmagan narsa va hodisalarni bilishi mumkin.

Bilish nazariyasi "in'ikos" nazariyasidir. Falsafa inson bilishi tabiatini in'ikos bilan bog'lab tushuntiradi. Bilishning falsafiy nazariyasiga ko'ra, bilish moddiy va ma'naviy borliqning inson miyasidagi muayyan maqsadga qaratilgan faol aks etishidir. Inson bilishining manbai moddiy va ma'naviy borliq, ularni tashkil qilgan

narsa, hodisa va jarayon bo‘lib, ular moddiy va ma‘naviy borliqning inson miyasidagi sub‘ektiv obrazi, ramzi va belgilari sifatida inson miyasida aks etadi.

Inson bilishning sub‘ekti, insonni qurshab turgan borliq bilishning ob‘ektidir. Bilish predmeti bilish ob‘ektining sub‘ekt bilishiga qaratilgan, sub‘ektning bilish faoliyati doirasiga kirgan tomonlari, xususiyatlari va munosabatlaridir.

Inson bilishini unda borliq qanday in‘ikos etganligiga qarab, kundalik (oddiy) va nazariy (ilmiy) bilishga ajratish mumkin.

Oddiy bilish – kishilarning odatdagi o‘z kundalik hayotlarida borliqdagi narsa va hodisalarni bevosita o‘z sezgi a‘zosi va tafakkuri orqali bilishi bo‘lib, kishilarning kundalik hayotiy tajribalari, malakalari va amaliy ishlari orqali hosil bo‘lib, “sog‘lom fikrlar”da o‘z ifodasini topadi. Oddiy bilish har bir insonga xos bilishdir.

Ilmiy bilish – borliqdagi narsa va hodisalarning qonuniyatlari, ularning mohiyatini bilishdir. Ilmiy bilish ilmiy tadqiqot va izlanishlar asosida amalga oshirilgani uchun uzoq davom etadigan, muayyan falsafiy usul va vositalar bilan amalga oshiriladigan murakkab ziddiyatli bilish usulidir.

Dunyoviy bilimlar va shariat ilmi – zohiriy ilm (ekzoterik) deyilsa, inson qalbi, ko‘ngilda kechadigan va g‘ayb olamidan hol martabasida qabul qilingan bilimlar botiniy (ezoterik) bilim deb ataladi.

Moddiy va ma‘naviy borliq o‘z tabiatiga ko‘ra bir-biri bilan uzviy bog‘liq dialektik jarayondir, uning in‘ikosi bo‘lgan inson bilishini ham dialektik jarayon, deb aytish mumkin, ya‘ni inson bilishi bilmaslikdan bilishga, aniq bo‘lmagan bilishdan aniqroq bilishga, to‘liq bo‘lmagan, qisman bilishdan to‘liqroq bilishga, oddiy bilishdan murakkab ilmiy bilishga tomon borishdan iboratdir.

Demak, insonning bilish jarayoni hissiy bilishdan aqliy bilishga, jonli mushohadalardan abstrakt tafakkurga tomon va aksincha borishdan iborat dialektik jarayondir.

Bilishning quyi darajasi hissiy (empirik) bilish insonning sezgi a‘zolari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta‘m bilish, teri sezgisi) vositasida amalga oshadi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol orqali muayyan bilimlar hosil qilinadi.

Sezgi – hissiy bilishning dastlabki shakli sifatida insonning borliqni bilishining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, borliqdagi narsa va hodisalarning inson sezgi a‘zolariga bevosita yoki bilvosita ta‘siri natijasida yuzaga keladigan hissiy obrazlaridir.

Idrok – borliqdagi narsa va hodisalar bir butun yaxlit hissiy obrazi hosil qilinadigan, narsa va hodisalarni yaxlit, bir butun ko‘rinishda, ularning hamma asosiy tashqi belgi va xususiyatlarini umumlashtirgan holda in‘ikos ettiruvchi hissiy bilishning nisbatan yuqoriroq shaklidir.

Tasavvur – ilgari idrok etilgan, ammo ayni vaqtda bevosita idrok etilmayotgan narsa va hodisalarning inson miyasida qayta ishlanib, tiklangan hissiy obrazi, hissiy bilishning yangi shaklidir.

Insonning hissiy bilishi ma‘lum darajada cheklangan, bir tomonlama, to‘liq bo‘lmagan bilishdir. Hissiy bilish, uning shakllari sezish, hissiy qabul qilish, idrok va qisman tasavvur hayvonlarda ham xos. Oliy darajada taraqqiy etgan hayvonlar it, ot, fil, maymun kabi hayvonlarning sezgi organlari inson seza olmaydigan narsalarni ham ilg‘aydi. Hayvon sezgisidan farqli o‘laroq, inson ko‘rgan, bilgan narsa-

hodisalarga aqli-idrok bilan munosabatda bo‘ladi, mohiyatni tahlil qiladi, vaziyatni boshqaradi. Inson borliqdagi narsa va hodisalarning ichki tomonlari, ularning o‘zgarish va rivojlanish qonunlarini, bir so‘z bilan aytganda, ularning mohiyatini faqat mantiqiy bilish orqali biladi.

Bilishning yuqori darajasi insonga xos bo‘lgan aqliy (mantiqiy) bilish bo‘lib, bunda tafakkur orqali narsa va hodisalarning ichki mohiyati anglashiladi.

Mohiyat hamisha yashirindir, u hodisa sifatida namoyon bo‘lib, har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomoni ko‘rinadi. Shuning uchun sezgilar orqali olingan bilimlar mohiyatni to‘la ochib bera olmaydi. Aynan tushunchada insonning hissiy bilish jarayonida orttirgan bilimlar mujassamlashadi va mohiyat anglashiladi. Uning to‘g‘ri yoki xatoligi mantiqiy qiyos va tahlil, umumlashmalar orqali bilinadi va xulosa orqali yangi bilimlar hosil qilinadi. Bu o‘rinda konkretlik, tajriba, kuzatish bilan birga umumiylikning (abstraktsiya) ahamiyati katta. Aynan abstraktsiya narsa-hodisalar mohiyatini ilg‘ash, uni g‘oya, fikr tarzida tasavvur qilishga ko‘maqlashadi. Insonning ilm-fan orqali dunyoni bilishi shu usulda hosil bo‘ladi.

Inson tafakkurining borliqdagi narsa va hodisalarning izchil bog‘lanishi va aloqadorligi, ularning harakat, o‘zgarish va rivojlanish qonunlarini hukm, tushuncha va xulosa chiqarish kabi tafakkurning mantiqiy shakllari aks ettiradi.

Tushuncha – narsa va hodisalar, ularning muhim va zaruriy belgi va xususiyatlarining umumlashtirilgan, mavhumlashtirilgan va aniqlashtirilgan fikriy obrazidir. Narsa va hodisalarning mohiyati so‘z va tushunchalarda mujassamlashadi. Ularni o‘zlashtirish jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Hukmda borliqdagi muayyan narsa va hodisalar, ular o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqadorliklar haqida tasdiq yoki inkor fikr ifodalanadi. Hukmlar tushunchalar vositasida shakllanadi. Inson aqlli mavjudotdir, degan hukmda insonga xos asosiy belgi aqlning mavjudligi tasdiqlanmoqda. Inson vayronkor mavjudot, degan hukmda esa inson aqlining qirg‘inbarot urushlar, ekologik inqirozlar sababchisi ekanligi ko‘rsatilgan.

Xulosa chiqarish orqali unda bir yoki bir necha hukmlar asosida yangi hukm hosil qilinadi. Yangi bilimlarga ayrim olingan narsani bilishdan umumiy xulosalar chiqarish, umumiy bilimlardan alohidalikka borish, o‘xshatish orqali erishiladi. Bilishning oliy darajasi g‘oyibona, qalban (intuitiv) bilish bo‘lib, ruhning ilohiy quvvat bilan mulohaza va tafakkursiz g‘aybiy ma’nolarni anglashidir. Aql-zakovat o‘zlashtira oladigan eng oliy bilim ma’rifat va hikmat, inson qalbini yorituvchi ilohiy nurdir. Intuitsiya (botin ilmi) ruhiy hayotning holati bo‘lgan hayotiy jo‘shqinlik natijasida paydo bo‘ladi, ya’ni inson intuitsiya orqali o‘z ichki olamiga kirib, o‘z ichki olamida tasavvurlar, obrazlar orqali ichki bilimlarga ega bo‘ladi. Bu obrazlarni u botiniy nigoh bilan ko‘radi.

Ilmiy nuqtai nazarga ko‘ra, intuitiv bilish jarayoni tajriba, eksperiment, mantiqiy mulohaza (xulosa) orqali amalga oshadi. Tarixdan ma’lumki, ko‘plab olimlar o‘z kashfiyotlarini intuitsiya orqali amalga oshirganlar, ya’ni fanning ma’lum sohasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot olib borgan olimning butun vujudini qamrab olganligi uchun g‘oyibona bilish darchalari ochilgan va sa’y-harakati natijasi tush orqali namoyon bo‘lgan. Aynan inson ruhiyatidagi ijodkorlik kuchi kuliy bilimning negizi bo‘lib, barcha sohalaridagi kashfiyotlar, yangilik yaratish kuliy bilimning juz’iy

bilimga bergan turtkisi natijasidir. Bu holat qalbning botiniy (intuitiv) nurlanishidir. “Bilim nurdir”, ya’ni intuitiv nurlanish natijasida inson qalbidagi nurning kuchi bilan juz’iy aql ravshanlashib, kashf hosil bo’ladi. Bashorat (kashf) inson miyasining borliq voqea va hodisalarini oldindan aks ettirish qobiliyati bilan bog’liq jarayon bo’lib, kelgusida tabiat va jamiyatda sodir bo’ladigan voqea va hodisalar haqida bashorat qilinadi. Ilmiy bashorat tadqiqotchining tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyoti qonunlariga asoslangan holda kelgusida biror fan sohasi, tabiat yoki jamiyatda yuz beradigan hodisa, voqea yoki jarayonni oldindan aytishidir.

Ilmiy tadqiqot va ilmiy faoliyatda ilmiy bashoratning ahamiyati beqiyos. Bashorat dunyoni ilmiy bilishning o’ziga xos shakli bo’lib, karomat, folbinlik, yulduzlar va sayyoralar harakatiga qarab kishilar taqdirini aytishdan farqlanadi. Ilmiy bashorat ilm-fan yutuqlari, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonunlari bilan ilmiy asoslangan bo’ladi.

Ilmiy bilish usuli (metod) tadqiqotchining tadqiqot ob’ektini bilish uchun qo’llagan nazariy va amaliy faoliyat uslubi bo’lib, o’rganilayotgan narsa yoki hodisa, uning tabiati va mohiyati, uni ifodalaydigan qonun va qonuniyatlarni ochishni hamda tadqiqotning muvaffaqiyatli bo’lishini ta’minlaydi.

Uslub (metodologiya) ilmiy bilish usuli haqidagi falsafiy ta’limot sifatida o’zida kishilar dunyoqarashi printsiplarini ularning bir butun amaliy va nazariy faoliyatlariga tatbiq etishni o’rganadi. Ilmiy tadqiqotlarda qo’llaniladigan usullar o’z tabiati, xarakteri, qo’llanish sohasi, qo’llanish ko’lami, darajalariga ko’ra farqlanadi. Bilish usullari eng umumiy ilmiy usullar, umumiy ilmiy usullar, xususiy ilmiy usullarga bo’linadi. Ilmiy bilishning eng umumiy ilmiy usuli barcha fanlar uchun uslub bo’lib, unga analiz, sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash induksiya, deduktsiya, qiyoslash, taqqoslash, modellashtirish, mantiqiylik, tarixiylik, kuzatish, eksperiment kabilar kiradi.

Ilmiy bilishning umumiy ilmiy usuli ko’pchilik yoki bir guruh fan sohalarida qo’llaniladigan, ilmiy bilishning empirik bosqichiga oid bo’lgan usullardir.

Xususiy ilmiy usullar har bir fanning o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ilmiy bilishda to’g’ri usulni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Muammoni qanday o’rganish kerakligi masalasi ilmiy bilish usulini to’g’ri belgilashga yordam beradi. Hozirgi zamon fanlarida ilmiy bilishning quyidagi usullari qo’llanilmoqda: kuzatish, eksperiment, analiz, sintez, umumlashtirish, deduktsiya, induksiya, abstraktlashtirish, konkretlashtirish, mantiqiylik, tarixiylik, modelashtirish va shu kabilar.

Kuzatish – harakat, o’zgarish va rivojlanishdagi ma’lum ob’ektni tabiiy sharoitda u qanday bo’lsa, shunday diqqat bilan, belgilangan vaqt ichida, ma’lum maqsad asosida ko’zdan kechirishdir. Bu usul qadimdan asosiy tadqiqot vositasi bo’lib kelgan.

Eksperiment – tajribada sinab ko’rish orqali, fanda hodisalarni bilish faoliyatida tadqiq qilish, o’rganish usuli bo’lib, eksperimentda o’rganilayotgan narsa o’z hoida, lekin sun’iy yaratilgan sharoitda ko’zdan kechiriladi va o’rganish ob’ektiga aktiv ta’sir qilinib, kuzatishning borishida, kuzatilayotgan jarayonni o’zi xohlagan yo’nalishga o’zgartirish mumkin bo’ladi. Eksperiment kuzatish bilan bevosita bog’liq bo’lib, ular bir-birini to’ldiradi. Kuzatish va eksperiment usullari

asosida to'plangan fakt va ma'lumotlar ilmiy bilishning empirik darajasini hosil qiladi.

Analiz – o'rganilayotgan narsa va hodisalarni fikran mayda bo'lak, qism, tomon va elementlarga bo'lish usuli bo'lib, analiz orqali narsa va hodisalarning strukturasi, tuzilishi, ular o'rtasidagi bog'lanish, o'zaro munosabat va ta'sir o'rganiladi.

Sintez – analiz natijalariga suyanib narsa va hodisalarning bir butun sifati o'rganadi, ya'ni sintez narsa va hodisalarning tahlil qilingan bo'lak, tomon, qism, elementlari o'zaro birlashtirilib, bir butun holatga keltirish usuli bo'lib, sintez orqali butunning bo'laklari, qismlari, tomonlari, elementlari o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlar aniqlanadi. Analiz va sintez bilish jarayonidagi bir moddiy yoki mantiqiy amalning ikki tomoni, ularni bir-biridan ajratib, ilmiy natijaga erishib bo'lmaydi.

Umumlashtirish – narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi va xususiyatlari, bog'lanishlarini fikran muayyan tushunchaga birlashtirish jarayoni va uning natijasi. Umumlashtirish orqali ayrimlikdan umumiylikka o'tiladi va umumiy tushuncha, hukm va nazariya hosil qilinadi.

Abstraksiyalash – narsalarning bir qancha xossalari va ular o'rtasidagi munosabatlarni fikran nazardan o'tkazish va narsalarning muayyan munosabatdagi muhim xossalarni bilish usulidir.

Konkretlashtirish – umumlashtirish va abstraktlashtirish jarayonida ajratib olingan, oldin e'tibordan soqit qilingan butun belgi va xususiyatlarni yana narsa yoki hodisalar bilan bog'lab, narsa yoki hodisa haqida aniq bir fikr hosil qilishdir. Umumlashtirish, abstraktlashtirish va konkretlashtirish usullari ilmiy bilishning nazariy darajasiga xos bo'lib, tafakkur jarayonida keng qo'llaniladi.

Induktsiya – bir necha yakka va ayrim hukmlardan umumiy hukmga o'tish yoki ayrim voqea va hodisalarni o'rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratish jarayoni. Ilmiy bilishda induktiv usul bilan hosil qilingan bilimlar deduktiv usul yordamida tekshiriladi.

Deduktsiya – bilish jarayonida fikrda umumiy bilimlardan juz'iy, alohida bilimlarga yo'nalish jarayonidir. Deduktiv usul vositasida bir sinf, bir jins, bir guruh narsa yoki hodisa to'g'risida alohida bilimlar hosil qilinadi. Deduktsiya vositali xulosa chiqarishning alohida shakli bo'lib, xulosa umumiydan yakkaga qarab boradi.

Qiyoslash – narsa va hodisalarni umumiy o'xshash va farqli belgilarini o'zaro solishtirish orqali narsa va hodisalarni muayyan belgi va xususiyatlarini turkumlashtirish va bir tizimga solish usuli.

Madaniy-tarixiy voqealar va ulardagi umumiy mushtarak, o'xshash va farqli sifat va xususiyatlarni o'zaro solishtirish yo'li bilan ilmiy tadqiq etish va tushuntirish qiyosiy-tarixiy usul orqali amalga oshiriladi.

Taqqoslash – insonning ijtimoiy faoliyatida, bilimlarning o'zlashtirilishida, voqelikning to'laroq aks ettirishida bir-biriga o'xshash jihatlar tafovuti va farqli tomonlar o'rtasidagi o'xshashlikni topishdan iborat bilish usuli bo'lib, inson olayotgan keng ko'lamdagi axborotlar farqini fikran taqqoslash yordamida anglaydi.

Tarixiylik – narsa va hodisalarning paydo bo'lish, rivojlanish va emirilish jarayonlari birligi, tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariy bilishga oid usul bo'lib, tadqiq etilayotgan narsa yoki hodisaning konkret

sharoitda paydo bo'lishi, yashashi, rivojlanishi va emirilishi yoki yo'q bo'lishdan iborat jarayoni fikran tafakkur qilinadi.

Mantiqiylik – umumlashtirilgan, abstraktlashtirilgan, konkretlashtirilgan, qisqargan, tasodiflardan tozalangan tarixiylik jarayonining abstrakt-konkretlik shaklida ifodalangan usuli bo'lib, ilmiy bilishda tarixiylik usuli birlamchi, mantiqiylik usuli ikkilamchidir.

Keyingi vaqtda kompyuter va ilg'or axborot texnologiyalarining yaratilishi va ishlab chiqarishga keng joriy etilishi, matematik usullarning konkret fanlar sohalarida samarali qo'llanilishi modellashtirish va formallashtirish kabi yangi bilish usulining paydo bo'lishiga olib keldi.

Formallashtirish – tekshirilayotgan narsa va hodisalarning ma'lum konkret tomonlari, xossa va xususiyatlarining mazmunini mavhumlashtirib, uni ma'lum abstrakt ifoda, formula yoki sxemalar bilan ifodalash usuli bo'lib, tadqiq etilayotgan ob'ektlar o'rtasidagi aloqadorlik va munosabatlar shakl-belgilarda belgilanadi.

Modellashtirish – borliqni bilvosita o'rganishga asoslangan ilmiy usul bo'lib, dastlab matematika fanlarida yuzaga kelgan. Hozirda fanning boshqa sohalarida olib boriladigan tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Ilmiy bilish shakllari ilmiy g'oya, muammo, gipoteza, nazariyadir.

G'oya – ilmiy bilishning birinchi shakli bo'lib, inson tafakkurida vujudga keladigan ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga ta'sir o'tkazib, jamiyat va shaxsni harakatga chorlaydigan, aniq maqsad sari etaklaydigan kuchli, teran fikr, inson ongining mahsuli. Har qanday g'oyaning asosida bilim yotadi. Ilmiy bilishda g'oya muhim o'rin tutadi.

Muammo – javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va echish usuli noma'lum masala bo'lib, muammoning hal qilinishi mavjud bilimlar doirasidan chiqishni, yangicha echish usullarini izlab topishni taqozo etadi. Muammoni oldingi hosil qilingan bilimlar doirasida turib hal qilib bo'lmaydi. Yangi fakt, ma'lumotlar to'plash, ularni yangicha izohlash, shu paytgacha mavjud bo'lgan eski bilim doirasidan chiqish talab qilinadi. Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur sharti muammoni to'g'ri qo'yish va aniq bayon etishdan iboratdir. Muammoni echish uchun quyidagi jarayonlar tahlil qilinadi: mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalar aniqlanadi; muammoni hal etish g'oyalari va usullarini tahlil qilinib, baholanadi; muammoni hal etish tipi, maqsadi, olingan natijani tekshirish yo'llari belgilanadi; muammoning negizi bilan uni hal etish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqa xususiyatlari aniqlanadi; muammo echimini topmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

Muammoni echish nisbiy xarakterga ega, ya'ni muammoning mutlaq to'la echimini topish qiyin. To'g'ri qo'yilgan savol muammoni echishning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. Ilmiy bilish jarayonida bir muammo bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz muammosini ko'rsatish mumkin.

Gipoteza – tekshirilayotgan narsa yoki hodisa to'g'risida ilgari surilgan, ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy fakt va ma'lumotlarga zid bo'lmagan, lekin haqiqatligi hali isbotlanmagan, taxmin tarzidagi ilmiy bilish shaklidir. Gipoteza bilimlarning mavjud

bo'lish shaklidir. Narsa va hodisaning sababi haqidagi fikr dastlab gipoteza shaklida vujudga keladi.

Gipoteza har qaanday taxmin emas, balki ma'lum darajada asoslangan, muayyan mantiqiy kuchiga ega mulohaza farazdir.

Nazariya – ilmiy bilishning eng yuqori shakli bo'lib, haqiqatligi amaliy yoki nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror sohasiga oid g'oyalar, qarashlar, qonunlar va printsiplarning muayyan tizimi tushuniladi. Nazariya fan sohasiga oid bo'lib, ma'lum bilimlarning umumlashtirilishi asosida paydo bo'ladi. Nazariyaning asosiy vazifasi yangi faktlarni izohlash, o'rganilayotgan predmet yoki hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirish, voqea va hodisalarni oldindan ko'ra olishdir. Har bir nazariya ma'lum sohadagi ilmiy bilimning so'nggi natijasi sifatidagi bilim shakli bo'lib, uni tugallangan, o'zgarmas, absalyut bilim deb qaralmaydi.

Insonning borliqni bilishdan asosiy maqsadi haqiqatni bilishdir. "Haqiqat nima" degan savol qadimdan mutafakkirlarni o'ylantirib kelgan.

Spinoza inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishini haqiqat deb atagan. Haqiqat masalasini ilmiy asosda hal qilishning yagona yo'li - inson bilimlari bilan olamdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosda yoritishdan iboratdir.

Haqiqat – inson ongida voqelikning to'g'ri, haqqoniy in'ikos etishi, narsa va hodisalar asli qanday bo'lsa, inson o'z miyasida xuddi shunday in'ikos ettirgan bilimlardir. Haqiqatni bilish murakkab jarayon bo'lib, bilimlar nisbiy haqiqatdan mutlaq haqiqatga tomon boradi. Haqiqatning quyidagi turlari farqlanadi.

Ob'ektiv haqiqat – olamdagi narsa va hodisalar mohiyatining inson ongi va istaklariga bog'liq bo'lmagan holda mavjudligi haqidagi bilimlar majmui.

Nisbiy haqiqat – olamdagi narsa va hodisalar to'g'risidagi taxminan to'g'ri, lekin to'liq bo'lmagan, bilish jarayonida kuzatilib, to'ldirilib borilishi lozim bo'lgan bilimlar majmui. Mutlaq haqiqat – narsa va hodisa mohiyatining inson ongida to'la va kelgusida rad qilib bo'lmaydigan bilimlardir. Masalan, moddaning saqlanish qonuni, energiyaning bir turdan ikkinchi turga aylanishi, irsiyat va o'zgaruvchanlik, tabiiy tanlanish qonunlari, osmon jismlarining harakati kabilar mutlaq haqiqatlardir. Ular inson tafakkurining ob'ektga cheksiz yaqinlashib borishi asosida, cheksiz nisbiy haqiqatlarning majmui sifatida qaror topadi. Nisbiy va mutlaq haqiqatlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har qanday mutlaq haqiqat nisbiy haqiqatlarning cheksiz birligidan yuzaga keladi, har bir nisbiy haqiqatda esa mutlaq haqiqatning zarrasi, ulushi mavjud bo'ladi. Inson bilishi nisbiy haqiqatdan mutlaq haqiqatga tomon boradi. Bilimlar taraqqiyotida mutlaq haqiqat konkretlashib boradi.

Haqiqatning formal mantiq mezoniga ko'ra, bilim haqiqat bo'lishi uchun bir bilimni ifodalovchi fikr ikkinchi biror fikrga muvofiq kelishi yoki bir bilim boshqa bilimdan zaruran mantiqiy kelib chiqishi zarur. Aslida bilimning haqiqatligi mezonini amaliy faoliyatdir.

Bilimning haqiqatligi yoki xatoligi inson amaliy faoliyatida ma'lum bo'ladi. Haqiqat bo'lmagan bilim inson faoliyatini muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, bu sarobdir. Shuning uchun har qanday yangi bilimning haqiqatligi amaliyotda tekshiriladi. Amaliyot inson bilish jarayonida hosil qilingan bilimning haqiqatligini

tasdiqlash bilan birga, uning cheklanganligi, bir tomonlamaligi, xato yoki g'ayriilmiyligini aniqlaydi.

Haqiqatning mezoni sifatida amaliyotning o'zni beqiyos bo'lib, inson erishgan to'g'ri bilimlarini xato bilimlaridan farq qilishda katta ahamiyatga ega.

Ilmiy bilishning vazifasi ilmiy bilimlarning jamiyat taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omillarni o'rganish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy bilimlarning rivojlantirish borasidagi ilg'or tajribalarini keng ommalashtirishdir.

Antropologiya – inson falsafasi. Jamiyat falsafiy tahlili. «Jamiyat» tushunchasi, uning mohiyati, mavjudligi va taraqqiyoti qonunlari. Jamiyat - insoniyatning umumiy oilasi. Jamiyat mavjudligining moddiy va ma'naviy omillari. Jamiyat taraqqiyotining turli xil nazariyalari. Jamiyat rivojida tadrijiylik va vorislik. Jamiyat tarixi va taraqqiyotiga sinfiy qarash xaqida ijtimoiy ziddiyatlarni muvofiqlashtirishning zarari. Jamiyatning ijtimoiy asoslari Jamiyatning siyosiy asoslari. Fuqarolik jamiyati, siyosiy erkinlik, demokratiya, fuqarolik uyushmalari, ijtimoiy tartib. Tarix falsafasi. Jamiyat hayotida barqarorlik va beqarorlik. Barqaror rivojlanish - tinchlik va tadrijiy taraqqiyot garovi. Insoniyatning xavfsiz rivojlanish imkoniyatlari va muammolari. Jamiyat taraqqiyotida tolerantlik tamoyili. Jahonning milliy davlatchilik taraqqiyoti. Taraqqiyotda o'ziga xoslik va moslik tamoyili. O'zbekistonning milliy istiqloli. Zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish vazifalari. Iqtisodni boshqarish va mafkuraviy jarayonlar.

Inson falsafiy muammo sifatida. Inson olamning tarkibiy qismi. Odam, inson, individ va shaxs tushunchalari. Antropologiya-inson to'g'risidagi fan. Insonning jamiyatdagi o'rnining zamonaviy talqinlari. Insonning tabiati va mohiyati. Inson mavjudligi: jism va ruh uyg'unligi. Insonning ma'naviy-ruhiy olami. Mustaqil O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish, inson qadri va erkinliklari. Inson muammosini o'rganishning tarbiyaviy zarurati va ahamiyati. O'zbekistonda ozod Vatan va erkin hayot qurish vazifasining yoshlar ma'naviy kamoloti bilan uyg'unligini ta'minlash-zamonaviy ta'lim tarbiya ishining mezoni sifatida.

Qo'llanadigan ta'lim texnologiyalari: Mavzu zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi. O'rganishning hamkorlik modeli, namoyish etish, "Aqliy hujum", "baliq skeleti", B/B/B jadvali, bahs-munozara, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usulidan foydalanish

9-mavzu. INSON FALSAFASI (ANTROPOLOGIYA)

(2 soat)

Reja

1. **Inson olamning tarkibiy qismi. Odam, individ, shaxs va inson tushunchalari. Inson tarixning yaratuvchisi va eng ulug‘ ijtimoiy qadriyat. Antropologiya – inson to‘g‘risidagi fan.**
2. **Insonning tabiati va mohiyati. Inson mavjudligi: (jism) va ruh (ma‘naviyat) uyg‘unligi. Inson borlig‘i: tabiiy jonzo, biologik zot, ijtimoiy vujud. Insonning ma‘naviy-ruhiy olami.**
3. **Mustaqil O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish, inson qadri va erkinliklari. Insonning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlari.**
4. **Inson muammosini o‘rnanishning tarbiyaviy zarurati va ahamiyati. O‘zbekistonda ozod Vatan va erkin hayot qurish vazifasining yoshlar ma‘naviy kamoloti bilan uyg‘unligini ta‘minlash – zamonaviy ta‘lim-tarbiya ishining mezoni sifatida.**

Inson – har qanday falsafiy ta‘limotning asosini tashkil etuvchi fundamental falsafiy kategoriya bo‘lib, unda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgan, ya‘ni inson olam ichra “kichik olam”dir. Inson va uning mohiyati haqidagi bahslar qadimdan mavjud. Jumladan, hind mutafakkirlari “inson qaerda paydo bo‘lgan”, “biz qaerda yashaymiz”, “qayoqqa qarab boryapmiz” kabi savollarga javob izlab, insonning barcha jonli mavjudotlar bilan umumiylikiga e‘tibor qaratganlar. “Inson mohiyati moddiy va ma‘naviy ikki unsurdan iborat, ularni yupqa matoga o‘xshagan “karma” bog‘lab turadi. Yovuz karmalar inson ruhiyatiga salbiy ta‘sir etsa, ezgulik karmalari inson ruhiga ozuqa bo‘ladi. Insonning yovuz karmalardan qutulishining yo‘li barchaga yaxshilik qilishdir”.

Qadimgi xitoy faylasufi Konfutsiy inson, uning aqliy va ma‘naviy qiyofasi, jamiyatdagi o‘rnini tahlil etgan. “Odam hayvonmi yoki farishta” degan savolga Konfutsiy “Odam ham hayvon, ham farishtadir” deb javob bergan, ya‘ni odamlar tabiatan bir, faqat tarbiya tufayli bir-birlaridan farqlanadilar.

Konfutsiy fikricha, barcha mavjudot kabi insonning taqdiri ham samoviy qudratga bog‘liq, inson mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilishi, axloqiy qonun-qoida va me‘yorlar, an‘anaviy marosimlarga amal qilishi, jamiyatdagi darajasiga qarab ish tutishi zarur, tartibsizlik va axloqning buzilishi inqirozga sabab bo‘ladi. Konfutsiy jamiyat taraqqiyoti uchun inson axloqiy tarbiyasining zarurligini alohida e‘tirof etgan. “O‘z-o‘zingga ravo ko‘rmaydigan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rmagin. Va shunda yomonlik davlatda ham, jamiyatda ham barham topadi”.

Daotsizm falsafiy maktabi asoschisi Lao Szi ta‘limotiga ko‘ra, inson daoni bilishi, olam rivoji qonunlariga aralashmasligi, uning barcha xatti-harakati Olam qonuni va inson tabiatiga mos bo‘lmog‘i kerak. Agar inson Olam qonunlarini o‘zgartirishga urinsa, baxtsizlikka uchraydi. Odamning g‘oyat yuksak bilimdonligi oxir-oqibat uning qalbi gumroh bo‘lishiga olib keladi.

Inson muammosining falsafiy tahlili Qadimgi Yunonistonda yuksakka ko‘tarildi. Inson o‘z-o‘zini tahlil qildi, ya‘ni o‘zini va o‘z tafakkurini tahlil qildi, inson uchun uning o‘zi muammo bo‘lib qoldi.

Falsafiy ta‘limotlar markazida inson muammosining alohida tarzda qo‘yilishi qadimgi yunon faylasufi Protagorning “inson barcha narsalarning o‘lchovidir” degan

fikrida ifoda etildi. “Inson qanday bo‘lsa shu holida mavjud bo‘lgan jamiki narsalarning va yo‘qligi bilan ma’lum nomavjud narsalarning mezonidir”.

Xo‘sh, insonning o‘zi nima? Biz toki inson va shaxs, inson va tabiat, inson va jamiyat, insoniylik va ilohiylik o‘rtasida o‘zaro bog‘lanishlarni tushunib etmaguncha, bu javobning mohiyatini anglamaymiz.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot insonning aslida nima ekanligini bilishning o‘zi haqiqiy bilim ekanligini ta’kidlab, insonni “o‘z-o‘zini anglash”ga da’vat etdi. “Ezgulik – bilimdir. To‘g‘ri bilim albatta axloqiy xatti-harakatlarga olib keladi. Axloqiy xatti-harakatlar albatta baxt-saobatga etkazadi”. Suqrot fikricha, baxt-saodat insoniy barqarorlik va asllik bilan bog‘langandir.

Suqrotning shogirdi Aflotun fikricha, inson “g‘oyalar dunyosi” bilan hissiy idrok etiladigan olam o‘rtasidagi zot bo‘lib, ruhi “g‘oyalar dunyosi”ga, tanasi esa hissiyot olamiga mansubdir. Ruh va tana birligidan iborat bo‘lgan odam ikki olamga mansub bo‘lsa ham, ruh insonning haqiqiy qismidir. Ruh inson tanasida yashaydigan vaqt hayot deb ataladi. Aflotunning shogirdi Arastu fikricha, inson barcha hayvoniy yashash printsiplariga ega bo‘lgan ma’naviy mavjudotdir. Insonning qadr-qimmati uning aqliy faoliyatida anglashiladi. “Eng yaxshi insoniy qobiliyatlar insonning aqli bilan bog‘liq”.

Sharq mutafakkiri Abu Nasr Farobiy fikricha, inson barcha mavjudotlardan aql-idroki bilan farqlanadi. Abu Rayhon Beruniy insonning Xudo tomonidan yaratilganligi, ayni vaqtda uning butun hayoti va jismoniy tuzilishi jug‘rofik omillar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatgan: “inson tanasi, rangi, haqiqiy qiyofasi, tabiiy belgilari faqat kelib chiqishigagina emas, balki tuproq, suv, havo va turar joyiga ham bog‘liqdir”.

Kalom ahli insonning kelib chiqishi, olamda tutgan o‘rni, voqelikni o‘zlashtirish imkoniyatlari, ezgulik yo‘lini tanlagan insonning ideali kabi masalalarni tahlil etganlar.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, inson o‘zida olamning mohiyatini jam etgan borliqdagi eng mukammal mavjudot. Koinot miqyosida borliqning birligi Xudoda ifodalansa, Uning xossalari ko‘rinishining ifodasi insondir. Inson o‘z-o‘zini anglash orqali komillik darajasiga erishadi.

Uyg‘onish davri mutafakkirlari insonni betakror individuallikning yig‘indisi sifatida olib qaradilar, inson tabiatining bir xil emasligi, inson va insoniyatning manfaatlari uyg‘unlashgan muhim jihatlarni ko‘rsatdilar. Bu davr falsafasida birinchidan, inson, uning alohidalik sifati va imkoniyatlarining cheksizligi masalasi tursa, ikkinchidan, individualizm, egoizm (xudbinlik), manfaatparastlik falsafiy tahlil qilindi. “Inson insonga bo‘ri”, “hammaning hammaga qarshi urushi” kishilar hayotining tabiiy holati (T.Gobbs) degan qarashlar vujudga keldi.

Nemis mumtoz falsafasi asoschisi I.Kant fikricha, ”inson dunyodagi eng asosiy mavjudot, bir tomondan, tabiatga tegishli, ikkinchi tomondan axloqan erkin, uchinchidan, doimo qadriyatlar bilan ish ko‘radi”. Bu sifatning birinchisida inson zaruriyat oldida tursa, ikkinchisida ma’naviy erkinlikka egadir.

Z.Freyd fikricha, inson ongi yordamida o‘zining “men”iga ega bo‘ladi. Ayni vaqtda unda inson ruhining oliy qatlami – “supermen” hamda eng past kuchli qatlam

“u” ham farqlanishi lozim. Ular birgalikda olinganda inson o‘z ruhiy borlig‘i (iztirob, xavotir, quvonch)ni tushuntira oladi.

XX asr falsafasida inson muammosiga yangicha yondashgan ekzistentsialistlar (Yaspers, Xaydegger, Sartr, Kamyu) individ ezgulik va yovuzlikdan birini tanlashi masalasini ilgari surganlar. Shunday qilib, inson murakkab va ko‘p qirrali mavjudot, chunki unga xotira, tafakkur va til kabi ne‘mat, ruhiy kamoloti uchun qalb, nafs ato etilgan.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o‘rganadi. Insonning mohiyati odam, inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali anglashiladi. Bu tushunchalar ma‘nodosh bo‘lsa ham, bir-biridan farqlanadi.

Odam – Qur‘onga ko‘ra, Alloh tomonidan yaratilgan er yuzidagi birinchi inson zotining otasi. Odam “Abulbashar” (insoniyat otasi) deb ataladi. Islomda Odam birinchi payg‘ambar hisoblanadi. Qur‘onning “Baqara” surasi, 32-33-oyatlarda Alloh odamga barcha narsalarning nomlarini o‘rgatdi va bu bilan Odamni barcha farishtalardan yuqori qo‘ydi, deb yozilgan.

Inson – o‘zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassam etgan ongli mavjudot.

Shaxs – o‘zida barcha ijtimoiy sifatlarni mujassam etgan inson. Inson ta‘lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ma‘lum ijtimoiy-siyosiy omillar ta‘sirida yashaydi, ularni o‘zlashtiradi, shu darayonda ijtimoiylashadi, shaxs bo‘lib shakllanadi. Shaxs sifatida inson yaratuvchilik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, mas‘uliyatni his qilish, mustahkam e‘tiqodga ega bo‘lish, o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Individ – tirik mavjudot (bolaning tug‘ilganidan boshlab, shaxs sifatida shakllangunga qadar bo‘lgan muddat. Ayrim holatlarda, aqliy zaif kishilar hayoti davomida individ bo‘lib qoladilar). Individuallik – har bir insonga xos bo‘lgan xususiyat, falsafiy-axloqiy tamoyil bo‘lib, induviduallik har bir inson tabiatida yashiringan.

Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta‘minlaydi. Inson bilimi, tajribasi, erishgan yutuqlarini kelajak avlod uchun meros qilib qoldiradi, jamiyat qonunlariga o‘zgartirishlar kiritadi, tabiatni muhofaza qiladi, butun olamga buyuk bunyodkor kuch sifatida namoyon bo‘ladi, o‘z tarixini yaratadi, faoliyati davomida jamiyat ravnaqi, yurt farovonligi, xalq tinchligi, uchun xizmat qiladi va shu sifatlari bilan inson oliy qadriyat hisoblanadi.

Antropologiya – odamning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi, irqalar, inson hayotining mazmuni, shaxs kamoloti, ma‘naviyati, uning tabiat va jamiyatdagi o‘rni, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Tabiat, madaniyat, siyosat, bilish, sivilizatsiya kabi masalalar inson manfaatlari va inson mohiyatining namoyon bo‘lish shakllaridir. Ular inson tabiati va mohiyati bilan bog‘liqdir. Inson tabiati g‘oyat murakkab bo‘lib, yuqorida ta‘kidlanganidek, hayvoniy va ilohiy sifatlarni mujassam. Arastu insonni “siyosiy hayvondir” deb atagan.

Insonning ayni bir vaqtning o‘zida ham tabiatga, ham jamiyatga mansubligi masalasiga turlicha yondashilgan. Haqiqatdan ham Homo sapiens turi biologik jihatdan Homo urug‘ining Homo hofilis (qobiliyatli odam), Homo erectus (tik yuruvchi odam) turidan farq qilinmaydi, lekin ularning sezgi organlari, qon aylanishi,

muskul, nafas olish, suyaklari bir xil. Shunga ko'ra insonning barcha xatti-harakati, orzu-istak, faoliyat turlaridan uni biologik mavjudot deyishga asos bormi? Inson ham biologik mavjudot, ham ijtimoiy mavjudot, ijtimoiylik uning biologik tabiatini belgilaydi, ya'ni hayvonlarda bo'lgani kabi insonda ham xilma-xil instinktlar mavjud (Freyd). Birinchi o'rinda inson naslini davom ettirish, jinsiy instinktlar turadi. Inson o'zida faoliyatini ma'naviy, huquqiy cheklovchi ijtimoiylik sifatlari bo'lgani uchun hayvonlardan farqlanadi. Bu ijtimoiy sifatlarning tufayli inson o'zining shahvoniy hirsini cheklashi lozim bo'ladi.

Ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra (A.Leontev), odam bolasi inson bo'lish qobiliyati bilan tug'iladi. Bu o'rinda tabiat tomonidan belgilangan va inson tomonidan davom ettirilgan xususiyatlar soqov, kar, ko'r bo'lgan bolalarda qanday namoyon bo'lishi ustida o'tkazilgan tajriba yakunlari ham katta ahamiyatga ega. Tajriba jarayonida bolalarga dastlab yozish ko'nikmalari o'rgatildi. Undan keyin esa ular asta-sekin gapirishga, Broyl alifbosi bo'yicha o'qishga o'rgatildi. Natijada, tabiiy ko'r, soqov va karligicha qolganlari holda ulardan to'rttasi universitetni tugatgan. Ko'rinib turibdiki, insonning ijtimoiy mohiyatini birinchi o'ringa qo'yish jiddiy asosga ega. Agar buning yoniga insonning ba'zi biologik xususiyatlari ham ijtimoiy sabablar bilan belgilanishi qo'shilsa, dalillar yanada asosli bo'ladi. Masalan, Er yuzining ijtimoiy-madaniy rivojlanishi yuksak bosqichga ko'tarilgan mintaqalarida farzandlarning erta voyaga etishi, sog'lomlik, bo'yadorlik va uzoq umr ko'rish kuzatiladi. Ijtimoiy-madaniy rivojlanishi past bo'lgan mintaqalarda uning aksi kuzatiladi.

Insonni falsafiy tahlil etish orqali insonni bioijtimoiy mavjudot deb qarash o'rinli, ya'ni insonda biologiklikning ijtimoiy taqozolanganligi va ijtimoiylikning biologik zaminlari borligini ko'rsatadi. Odamning tabiiylik va ijtimoiylik birligi ijtimoiy harakat doirasida amalga oshadi. Bu dialektik jarayonni odamning dunyoga kelishi misolida kuzatish mumkin. Chaqaloq tug'ilganda tayyor ong bilan tug'ilmaydi. Uning miyasi universal qobiliyatlarga ega bo'lgani uchun ijtimoiy muhit ta'sirida ongni shakllantira boradi. Bundan tashqari, ona qornidagi xomila biologik qonuniyatlar asosida rivojlanadi. U tug'ilgach esa o'zida ijtimoiy muhit va undagi qonuniyatlar ta'sirini seza boshlaydi. Undagi ijtimoiy xususiyatlar biologik negizda shakllana boshlaydi. Agar biologik va fiziologik o'ziga xoslik bo'lmasa, barcha odamlar fe'l-atvori, ongi, axloqi va boshqa ijtimoiy xususiyatlari bo'yicha deyarli bir bo'lib qolardilar. Chunki ular deyarli bir xil ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadilar. Har bir odam biologik jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan ham betakroridir.

Biologik betakrorlik shundan iboratki, har bir odamdagi irsiy belgilarni tashuvchi genlar soni, turli xromosomalar mutanosibligi va boshqa juda ko'p ichki va tashqi belgilar yig'indisi boshqa birorta odamda takrorlanmaydi. Demak, har bir odam biologik o'ziga xoslikka, betakrorlikka ega ekan, mana shu betakrorlik negizga ijtimoiy muhitning ta'sir qilishi ham betakror natijalarga olib keladi. Inson biologik va ijtimoiy xususiyatlar mujassami bo'lgani uchun ham uni yaxlit butunlik sifatida o'rganilganda ham, alohida sifatlarni o'rganilganda ham ana shu ikki xususiyat birligidan kelib chiqish kerak. Aks holda xulosalar bir tomonlama va g'ayri ilmiy bo'lib qoladi. Insondagi biologik xususiyatlar ahamiyatini burttirish va ijtimoiy jihatlar ahamiyatini kamsitish qanday g'ayri ilmiy xulosalaraga olib kelsa,

ijtimoiylikni burttirib, biologik sifatlarni mensimaslik ham shunday oqibatlariga olib keladi. Ijtimoiy xislatlar ahamiyatini bo'rttirib, biologik xususiyatlar ahamiyatini inkor qilib, ularga ijtimoiy mohiyatni yaratish uchun bir xom ashyo, undan istalgan buyumni yasash mumkin deb qarovchilar ijtimoiylashtiruvchilardir. Bu kabi nazariyalar asosida XX asrda antiutopiyalar vujudga keldi.

Ingliz yozuvchisi O.Xakslining "G'aroyib yangi dunyo" nomli antiutopik romanida sun'iy yo'l bilan odammijoz mavjudotlar yaratilgan. Ular mehnatning u yoki bu turiga maxsus dastur orqali moslashtirilgan bo'lib, boshqa insoniy jihatlardan mutlaqo cheklangan bo'lishadi. Hayotda ham bunday antiutopik g'oyalar ilgari surilgan. Masalan, natsistlar ma'lum xildagi xom ashyoni yo'q qilish, boshqa xildagilarini ko'paytirishga urindilar. Inson ustida so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan dahshatli tajribalar o'tkazdilar. Bunday urinishlar qanday ayanchli oqibatlar bilan tugaganligi hammaga ma'lum.

Har qanday jonli mavjudot singari inson hayotining nihoyasi borligi, boshqa mavjudotlardan farqli, vaqti-soati etgach o'limga mahkumligini anglashi falsafiy muammolar doirasiga kiradi. O'limning muqarrarligi yoshlik davrlarida mavhum bir tushuncha sifatida qabul qilinsa ham, yosh o'tgan sari inson o'lim haqida jiddiy o'ylay boshlaydi, o'limni chetlab o'tish mumkin emasligi unda kuchli his-tuyg'ular uyg'otadi, hayotda yashashning maqsadi va mazmuni to'g'risida o'ylashga, bosh qotirishga majbur qiladi. O'limning muqarrarligini anglagan insonning dunyoqarashi va axloqi ham tubdan o'zgaradi. Inson hayoti va o'limi masalasi asotir-miflar va dinlarda ham markaziy o'rinni egallagan. Dastlab insonda o'limdan qo'rqish tuyg'usi kuchli bo'lgan. Keyinroq asotiriy-diniy tasavvurlar vositasida bu jarayon majburiy ekanligi haqidagi e'tiqod bilan almashgan.

Asotirlarda hayvonlar ham, inson ham o'ladigan tana va o'lmas ruhga ega deb ko'rsatilgan. Ruh nozik, nomoddiy tabiatga ega bo'lib, o'zida inson vujudi timsolini gavdalantirgan. U yo'qolmaydi, o'lmaydi va o'z makonida yashaydi hamda o'z joyini almashtirib turadi. Diniy ta'limotlarda tana o'lgach, ruh darajasiga qarab joylashishi ta'kidlangan. Ba'zi asotirlarda ruhning tanadan tanaga ko'chishi aytilgan.

Falsafiy yo'nalish va maktablar hayot va o'lim muammosini turlicha izohlaganlar. Ayrim faylasuflar uchun bu masala shaxsiy hayot taqdirini hal qilish bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, Suqrotning o'z o'limiga roziligi haqidagi qarori uning hayoti uchungina emas, balki undan keyingi falsafiy muammolar rivoji uchun ahamiyatga ega bo'lgan. Aflotun bu maslakda faylasuf uchun "o'z hayotini oliyjanoblik bilan tugatish imkoniyati"ni ko'rgan. Aflotunning fikricha, inson ma'naviy mavjudot sifatida ilohiy mohiyatga ega. Bu insonning o'z ustida ishlashi, o'zini takomillashtirishi va ilohiy dunyo sari intilishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'lim yuksak mas'uliyat, ya'ni ma'naviyatli insonda o'limdan qo'rqish tuyg'usi bo'lmaydi.

Islom dinida inson hayotining ma'nosi va o'lim masalasi katta o'rin olgan. Hayotning ma'nosi ruhning salomatligi, doimiy rohat-farog'atga eltuvchi mehnat va bilimdir. Inson yaralishidagi asl g'oya uning o'z Yaratuvchisiga chiroyli bandalik qilishidir. Inson o'z hayotini xudbinlik va yovuzlikdan saqlashi, umri davomida oxiratni o'ylashi kerak, ya'ni dunyo oxirat ekinzoridir. Hayotning maqsadi o'limga tayyorlanish, bu dunyo foni, dunyo ne'matlariga ruju qo'ymaslik kerak. Faylasuflar

insonning haqiqiy hayoti u o'lgandan keyin narigi dunyoda boshlanadi, degan fikrni tasdiqlamoqdalar.

Tasavvuf darg'alari Xoja Yusuf Xamadoniy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Shayx Najmiddin Kubro, Xoja Bahuoddin Naqshband hayotning ma'nosi, o'lim va oxirat, ilohiy mohiyatni bilishga intilish, "o'lmasdan avval o'lish", halol mehnat qilib boshqalarga mehr-saxovat ko'rsatishga chaqirganlar. Shark falsafasidan ozuqa olgan yangi davr falsafasi hayot va o'lim masalalariga yangicha yondashdi. Hayot va o'lim ikki antropologik modelda – biologik inson va yangi Evropacha inson modellari orqali ifodalandi. Agar birinchi modelda inson fan ob'ekti bo'lsa, ikkinchisida u o'zini olamning markazi sifatida anglagan, aql-idroki va erkinligini o'zi yo'naltiradigan, o'z hayotini o'tmishdan hozirgi, undan esa kelajakka qarab borishini anglagan mavjudot sifatida baholanadi.

Hozirgi zamon inson falsafasi inson hayoti va o'limi muammosi tahlilida yigirmadan ortiq falsafiy oqim va yo'nalishlar mavjud. Ularda inson mohiyati, hayot mazmuni va umr nihoyasi mushohada qilinadi. Hozirga qadar erishilgan yuksak sivilizatsiya saboqlariga asoslanib inson muammosi tahlilida yangi davr falsafiy ta'limotlari o'rta tashlagan g'oyalarga tayanish mumkin, ya'ni yangi inson modeli tabiiy inson modelini ham o'ziga singdiradi. Shu sababli yangi ijtimoiy, ma'naviy inson modeli yuzaga keladi.

Hozirgi inson ko'proq shartli mulohazalar asosida yashashga moyilki, bunday yashash va fikrlash yo'liga radio, televidenie, kino, teatr, badiiy adabiyot va albatta, o'zining mustaqil fikr-uylari olib kelgan. Natijada u o'zining o'limidan keyingi hayotidan ko'proq tashvishlanmoqda. Hayot qancha yaxshi bo'lsa, kishiga o'lim shunchalik dahshatli ko'rinadi. Ma'lumki, o'lim ekzistentsial tomondan olinganda, inson individual hayotining shunchaki yo'qolib ketishi emas. O'lim oldida qo'rquvni yo'qotish - qay tarzda uni ma'noli va hatto, hayotning zaruriy momenti sifatida anglashdir. Darhaqiqat, o'limni tabiiy ob'ekt sifatida qarash mumkin emas. O'limni har doim zaruriyat sifatida idrok etish lozim. O'limni ma'naviy anglash orqali ma'noli yashalgan umrning o'limdan keyingi davomi, ya'ni yuksak manguligi masalasi ko'ndalang bo'ladi.

Mangulik – inson o'z ijodiy, yaratuvchilik faoliyati bilan hayotda abadiy iz qoldirishdir. Insonning bu dunyoda qoldirgan yaxshi nomi – uning ikkinchi umridir. Shu sababli insoniyat xayrli, ezgu, saxovatli va adolatli ishlar qilib, yaxshi nom qoldirgan kishilarni hurmat bilan tilga oladi. Jamiyat tarixida shunday davrlar va ijtimoiy-falsafiy oqimlar bo'lganki, o'lim to'g'risida mutlako o'ylamaslik, o'limni "chetlab o'tish"ga harakat qilganlar. Masalan, mustabid tuzum davridan mamlakatimiz istiqbolga erishgunga o'lim haqida deyarli ilmiy risola, maqola ham yozilmagan. Sho'rolar mafkuraviy aqidasiga ko'ra, o'lim o'lim to'g'risida gapirish, asar yaratish odamning pessimistligi, tushkunlikka uchraganini ko'rsatgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan fanning gurrak rivojlanishi o'lim bilan bog'liq bir qancha muammolarni keltirib chiqardi. Shulardan biri o'lim holatini aniqlash bo'lib, avvallari nafas olishi to'xtagan kishi o'lgan hisoblanar edi. Keyinchalik nafas olishi to'xtagan kishi ham sun'iy nafas oldirib tiriltirilishi mumkinligi isbotlandi. Nafasning to'xtashi haqiqiy o'lim emas, klinik o'lim deb ataldi.

Haqiqiy o'lim bosh miya faoliyatining to'xtashi bilan bog'landi. Lekin tibbiyot fanining keyingi yillardagi taraqqiyoti bosh miya faoliyati to'xtagandan keyin ham organizmning bir qancha funksiyalari, jumladan, nafas olish, modda almashuvi kabilar davom etishi mumkinligini ko'rsatdi. Inson tanasi a'zolarini bir organizmdan ikkinchisiga ko'chirish (transplantatsiya) imkoniyatlari kengaygan sari tibbiyotda o'lim holatini aniq ta'riflashga ehtiyoj kuchaydi. Chunki nafas olishdan to'xtagan yoki yuragi urmay qo'ygan kishining a'zolarini olib boshqa bemorga o'rnatish huquqiy va axloqiy muammolarni keltirib chiqardi. Inson hayotini saqlab qolish uchun qilingan bunday sa'y-harakatlar axloqsizlik sanaldi va bu insonni ustidan masxara qilish, erga urish deb ayblandi. Shunga qaramay, afsuski, rivojlangan mamlakatlarda transplantatsiya savdosi keng yo'lga qo'yilib, iqtisodiy rivojlanmagan davlatlardan sog'lom inson a'zolari eksport qilinmoqda. Hozirgi zamon tibbiyot ilmi, ayniqsa, gerontologiya insonning yoshlik va etuklik davrini uzaytirish masalasini keng targ'ib etmoqda. Gerontologlar fikricha, odamning biologik tur sifatidagi o'rtacha umri 80-90 yil bo'lishi mumkin. Abu Ali ibn Sino odam o'rtacha 100-120 yil umr ko'rish mumkinligini yoz. Ta'kidlash kerakki, odamning qancha yashashi to'g'risidagi masala uning qanday yashashi va nima uchun yashashi muammosi bilan birgalikda olib qaralsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shoir aytadi:

Odam bor, o'lsa hamki tirikdir,
Odam bor, tirigida o'likdir. yoki:
Odam borki, odamlarning naqshidir,
Odam borki, hayvon undan yaxshidir.

Rivojlangan mamlakatlarda og'riqsiz, tinch, osoyishta o'lim (evtanaziya) masalasi ko'tarilmoqda. Dastlabki qarashda bu masala jumboqday tuyuladi. Chunki insoniyat asrlar davomida umrini uzaytirish to'g'risida bosh qotirib kelgan. Masalaning jumboqligi shundaki, ixtiyoriy o'lim muammosining ko'tarilishi tibbiyot yutuqlari bilan bog'liq. Hozirga qadar davosi topilmagan kasalliklar mavjud, lekin bedavo kasalga chalingan bemor kasallikdan butunlay xalos bo'lmasa ham (rak, sil), uning hayoti ma'lum muddat (to Xudo bergan umrini yashaguncha) so'ndirmay ushlab turish mumkin. Ba'zi faylasuflar va tibbiyot olimlari odamga ixtiyoriy o'lim huquqini berish kerak, degan fikrni tasdiqlaydilar, ya'ni bemorning dard bilan olishgan umri azob-uqubatlardan, og'riqlardan xalos bo'lishning birdan-bir yo'li ixtiyoriy o'limdir. Faylasuf, huquqshunos, biologlar og'riqsiz o'lim muammosini axloqiy asoslash mumkinmi, yo'qmi, degan masalani turlicha tahlil qilmoqdalar.

Bir guruh olimlar ixtiyoriy o'limga qarshi quyidagi dalillarni keltiradilar: birinchidan, inson hayoti eng oliy qadriyat va shuning uchun u daxlsiz, ikkinchidan, insonning ixtiyoriy o'lim huquqini tan olishi vrach yoki boshqa manfaatdor shaxs tomonidan suiste'mol qilinishiga olib kelishi mumkin, uchinchi, evtanaziya "chiqmagan jondan umid" printsipiga zid bo'lib, vrachlar yo'l qo'ygan xatolar oqibatida ham amalga oshirilishi mumkin. Ikkinchi toifa mutaxassislar fikricha, hozirgi zamon tibbiyoti inson umrini sezilarli uzaytirish bilan, ularning qarilikdagi azob-uqubatlarini ham cho'zib yubordi. Qartaygan odamlar o'z badanlari qanday emirilib borayotganligini o'zlari kuzatmoqdalar va yaqinlariga qanchalik noqulayliklar tug'dirayotganliklarini va malol kelayotganliklarini his etmoqdalar.

Shunga ko'ra, qiynalib, azoblanayotgan odamga o'limni ixtiyoriy qilishga ruxsat bermaslik axloqqa ziddir. Hattoki hayvon ham yaralangan yoki og'ir dardga chalinib azoblanayotganda o'zini o'ldirib azob-uqubatlardan xalos bo'ladi.

Bu mulohazalar kishini o'ylantirishi tabiiy. Shunga qaramay, inson inson bo'lib qolishi va insonga yarasha o'lishi kerak, deb hisoblaymiz, insonni hayvon bilan tenglashtirish insoniylikka ham, madaniyatga ham, ma'naviyatga ham, axloqqa ham ziddir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, barcha falsafiy sistemalar, diniy ta'limotlarda o'z-o'zini o'ldirish keskin qoralangan. Ba'zi dinlar o'z joniga qasd qilganlarni erga ko'mishni ham man qilganlar, islom dinida o'z joniga qasd qilganlarga hatto janoza buyurilmagan. Inson hayoti davomida tana va ruhning ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana inson kamoloti uchun vosita bo'lib, vujud pokizaligi orqali yuksaladi.

Ruhiy kamolotga erishgan qalb tanani faollikka undaydi. Yuksak ma'naviyat inson ruhini poklab, imon-e'tiqodni mustahkamlaydi. Zero, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar ham insonni ma'naviy-ruhiy kamol toptirishga qaratilgan. Ma'naviyat hayotda qanchalik jiddiy ahamiyat kasb etmasin, uni faol targ'ib qilinmasin, inson faqat shuning o'zidan yuksak aql-zakovat, ijodiy tafakkur sohibi bo'lib qolmaydi.

Qadim zamonlardan boshlab aqlli fikr, dono qarash, xalqchil ta'limotlar yaratilganligiga qaramay, ularning orzulari ro'yobga chiqmagan. Demak, gap u yoki bu dono fikr, qimmatli ta'limotning mavjudligida emas, balki muayyan jamiyatda ularni ro'yobga chiqaruvchi shart-sharoitning muhayyo ekanligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Istiqlool inson qadri va erkinliklari, manfaat va ehtiyojlarini dolzarblashtirib yubordi. Inson qadri, uning ijtimoiy xususiyatlari, jamiyatdagi amalغان oshirgan ishlari, boshqalarga va atrof-muhitga bo'lgan munosabati, kamoloti, ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirib olganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qilishida aks etadi.

Insoniyat uchinchi ming yillikka qadam qo'yar ekan, butun dunyoda qadrlash falsafasining umuminsoniy mezonlarini amaliyotda qo'llashga ehtiyoj kuchaydi. Zero, inson zoti sayyoramizda yashagan ilk davrdan boshlab qadr va qadriyat masalalari ustuvor bo'lganida Er yuzining zamonaviy manzarasi butunlay o'zgacha tus olgan, insoniyatni ekologik buhronlar, yadro urushi xavfi, ma'naviy tanazzul, axloqiy inqiroz kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan bo'larmidi?

Bugunga kunga kelib insoniyat yana tabiat va inson nasli uyg'unligini saqlab qolish uchun qadr va qadriyatga ehtiyoj sezdi va qadriyatlarni muammolarning echimi deb bildi. Zero, o'z shaxsi va boshqalar qadrini anglab etish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan ma'naviy qiyofasi va dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi, insonning o'zi hayotning mohiyati va maqsadini to'g'ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bo'lishi orqali insoniyat ona sayyoramizni halokatdan saqlab qoladi.

Ezgulik, go'zallik, nafislik, saxovat, muloyimlik, muhabbat olamni barqaror etadi. Bu haqda Sharqning zabardast shoiri Jaloliddin Rumi bundan to'qqiz yuz yil avval e'tirof etgan edi:

Odamiy¹ chun maskan etdi er yuzin,
Tokay bo'lgay deb dilafkoru² hazin³.

Joyi jannat⁴ ichra erdi avvali,
Erga tushdi, tavba⁵ deb uzr aytgali.

Senki Odam zotidansen, naslidin,
Unga ergashgil, chekinma aslidin⁶.

Bitmasin hech dilda otash, ko'z yosh,
Bog'ni yashnatgay bulut birla quyosh.

Bo'yladur ushbu jahonda qiylu qol⁷,
Och ko'zingni, boq jahonga, ibrat ol.

Sen o'zingdin-ku qocholmassen, aniq,
Bas, netib Haqdin qocharsen, ey rafiq⁸.

Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngul⁹,
Ko'z bo'lurmu Haqni ko'rmas bo'lsa ul.

Narsa yo'qkim, xoriyi olam erur,
Har ne istarsen, o'zingda jam erur¹⁰.

Globallashuvning falsafiy muammolari. Global muammolar hozirgi davrdagi butun insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan muammolar qatoriga kiradi ularni dastlab mahalliy mintaqaviy va umumbashariy ko'rinishlarga ajratiladi. Umumbashariy muammolarni hal etishda O'zbekiston faol ishtirok etmoqda. Insoniyat istiqbolini

¹ Odam – Abulbashar - insoniyat otasi, Alloh tomonidan yaratilgan er yuzidagi birinchi odam zoti, Allohning erdagi xalifasi, Momo Havo bilan jannatda yashagan, ta'qiqlangan daraxt mevasidan egani uchun jannatdan chiqarilib, ularning avlodlari erda yashashga va mehnat qilishga mahkum qilingan.

² Dilafkor – g'am-qayg'u, hasrat chekib ko'ngli vayron bo'lgan, dilxasta, dilpora.

³ Hazin – kishini ham-qayg'uga soladigan holat, qayg'uli, hasratli, mungli, iztirob girdobidagi hayot.

⁴ Jannat – behisht, dor us-salom, dor ul-baqo, dor ul-oxir, dor ul-muttaqiyn, bog'i eram, firdavs, illiyyun, bog'-bo'ston. Bu dunyoda ezgu ishlar bilan yashagan insonning oxiratdagi manzili.

⁵ Tavba – qaytish, pushaymon bo'lish, sodir etgan gunohlaridan tavba qilish. Insonning o'zini-o'zi tabiyalashidagi muhim axloqiy vosita, yomonlikdan yuz o'girib, umrni yaxshilik, ezgu ishlarga bag'ishlash.

⁶ Asl, asllik – tub, negiz, hol, zot, kelib chiqish, nasl-nasab. Bu erda insonning odam naslidan tarqaganligi, odamiylik sifatlariga ega bo'lishiga ishora qilingan.

⁷ Qiylu qol – gap-so'z, muddao, asl haqiqat.

⁸ Rafiq – do'st, birodar, hamroh, suhbatdosh, mahbub.

⁹ Ko'ngul – yurak, qalb, dil, moddiy olamning gavhari. Alloh nuri jamolini ko'rsatadigan ko'zgu. ichki ma'naviy olami, ruhi, qalb ko'zi.

¹⁰ Maqsad insonning koinot gultoji ekanligi, uning qalb ko'zi bilan olamning birligi Allohda mujassam bo'lishi, ya'ni olam Allohning tajalliysi (emanatsiya) ekanligini anglashi, o'zida go'zal xislat va barcha axloqiy fazilatlar sohibi, moddiy olamlar bilan ma'naviy olamlarni mujassamlashtirib, yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorifni kamolga etkazishi, o'z-o'zini anglash orqali nodonlik, bilimsizlik, johillikdan xalos bo'lib, aql, so'z va harakatdagi uyg'unlikka erishishini ta'kidlashdir.

belgilovchi eng ustivor yoʻnalish, jarayon va muammolar. I.Karimvo tomonidan asoslangan "Oʻzbekiston-kelajagi buyuk davlat gʻoyasi". Ijtimoiy taraqqiyot va hozirgi davr. Xalqaro integratsion jarayonlari va universal texnologiyalar. Umumbashariy muammolar va ularning asosiy yoʻnalish va namoyon boʻlish xususiyatlari. Jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozining sabablari, namoyon boʻlish shakllari. Jahon va Oʻzbekiston XXI asrda: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. «Jamiyat» tushunchasi, uning mohiyati, mavjudligi va taraqqiyoti qonunlari. Jamiyat -insoniyatning umumiy oilasi. Jamiyat mavjudligining moddiy va maʼnaviy omillari. Jamiyat taraqqiyotining turli xil nazariyalari. Jamiyat rivojida tadrijiylik va vorislik. Jamiyat tarixi va taraqqiyotiga sinfiy qarash xaqida ijtimoiy ziddiyatlarni muvofiqlashtirishning zarari. Jamiyat hayotida barqarorlik va beqarorlik. Barqaror rivojlanish - tinchlik va tadrijiy taraqqiyot garovi. Insoniyatning xavfsiz rivojlanish imkoniyatlari va muammolari. Jamiyat taraqqiyotida tolerantlik tamoyili. Jahonning milliy davlatchilik taraqqiyoti. Taraqqiyotda oʻziga xoslik va moslik tamoyili. Oʻzbekistonning milliy istiqloli. Mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod vatan bunyod qilish jarayoni. Taraqqiyotning oʻzbek modeli-jamiyat rivojining tadrijiy rivojlanish kontseptsiyasi. Uning asosiy tamoyillari, milliy va planetar ahamiyati. Iqtisod va maʼnaviyat.

Qoʻllanadigan taʼlim texnologiyalari: Mavzu zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda oʻtkaziladi. "Muloqot" trening, namoyish etish, "Aqliy hujum", "Muammoli vaziyat", bahs-munozara, dialog va savol-javob usulidan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis 1. Al-Jomi' as-Sahih. Ishonarli to'plam. Hadis 1-4. / Professor N.Ibrohimov va shoir Mirzo Kenjabek tahriri ostida. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991-1996.
2. Abu Ali ibn Sino. Falsafiy qissalar. – T.: Fan, 1963.
3. Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol / Tarjimonlar: Shoislom Shomuhamedov, Jamol Kamol, Abdusodiq Irisov. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1980.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Masʼul muharrir Muzaffar Xayrullaev. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Abu Homid Gʻazzoliy. Mukoshafat ul-qulub (Qalblar kashfiyoti). I-II-kitoblar / Tarjimon: M.Aʼzam. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
6. Abu Homid Gʻazzoliy. Kimyoi saodat. Ruh haqiqati. I-kitob / Nashrga tayyorlovchilar Mahkam Mahmud Andijoniy, Abdulloh Umar Toshkandiy. – T.: Adolat, 2005.
7. Avesto / Tarjimon, muqaddima va izohlar muallifi Asqar Mahkam. – T.: OʻzME, 2003.

8. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq. (Haqiqatlar qaymog'i) / Fors tilidan N.Komilov tarjimasi. – T.: Kamalak, 1995.
9. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar / Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi Ibrohim Haqqulov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
10. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2000.
11. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir / Fors tilidan Ulug'bek Hamdam tarjimasi. – T.: Mehnat, 2001.
12. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad / Tarjimon, muqaddima va izohlar muallifi Shamsiddin Boboxonov. – T.: O'zbekiston, 1990.
13. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. – T.: 1995.
14. Yo'ldoshev S. Antik falsafa. – T.: 1999.
15. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O'zbekiston, 1997.
16. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997.
17. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
18. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: O'zbekiston, 1998.
19. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999.
20. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1999.
21. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. // Fidokor gazetasi muxbiri savollariga javoblar // Fidokor. – T., 2000 yil 8-iyun.
22. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – T.: O'zbekiston, 2003.
23. Komil inson haqida to'rt risola / Fors-tojik tilidan N.Komilov tarjimasi. – T.: Ma'naviyat, 1997.
24. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, 1996.
25. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at va O'zbekiston nashriyotlari, 1999.
26. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
27. Mo'minov I. O'zbekistonda tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. – T.: Fan, 1998.
28. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. – T.: Sharq, 2002.
29. Usmon Nuriy To'pboshi. Masnaviy bog'chasidan. Bir ko'za suv. – T.: 2002.
30. Falsafa / Ma'ruzalar matni. – T.: O'AJBNT, 2000.
31. Falsafa / Akademik E.Yusupov tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1998.
32. Falsafa / Entsiklopediya. – T.: O'zME, 2004. Falsafa / Qomusiy lug'at. – T.: O'zME, 2004.
33. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot / Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: I.Haqqul, A.Bektosh. Mas'ul muharrir: S.Sayfulloh. – T.: Movarounnahr, 2004.

34. Shermuhamedov S. Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot. – T.: Fan, 2005.
35. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. – T.: Akademiya, 2000.
36. Yangi va eng yangi davr Gʻarbiy Evropa falsafasi. – T.: Sharq, 2002.
37. Oʻrta Osiyo xalqlari hurfiyliligi tarixidan / Masʼul muharrir M.M.Xayrullaev. – T.: Fan, 1990.
38. Qurʼoni Karim maʼnolarining tarjimasi / Tarjimon va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: TIU nashriyoti, 2001.
39. Gʻarb falsafasi / Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Masʼul muharrir Q.Nazarov. – T.: Sharq, 2004.

MUNDARIJA

Kirish	5
Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari. Falsafiy dunyoqarash	7
Falsafaning asosiy yoʻnalishlari, fanlar tizimidagi oʻrni va vazifalari.	15
Markaziy Osiyodagi falsafiy fikrlar, ularning jahon madaniyatida tutgan oʻrni	21
Oʻrta asrlar va yangi davr Ovrupadagi falsafiy fikrlar	30
Olam va odam: falsafiy talqin	44
Borliq falsafasi	53
Falsafiy qonun va kategoriyalar	63
Bilish falsafasi	75
Inson falsafasi (antropologiya)	86
Soʻngsoʻz	95
Foydalanilgan adabiyotlar	96